

84  
M-74

Gi de MOPASSAN

# SO'NGGI AFSUS

HIKOYALAR



JAHON ADABI Y<sup>U</sup>TI TURKUMIDAN

84	2072/3
M-74	Maпassan G
Sõnгgi afsus	
2020у	17135≈

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан  
кечикирмagan ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар микдори \_\_\_\_\_

24/X - 1722  
 20/XI - 1651 20<sup>4</sup>  
 30/XI = 2067 - 205  
 16.01 - 666 - 21  
 17.03 - 662 - 21





84  
M-74

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**GI DE MOPASSAN**

**SO'NGGI AFSUS**

*Hikoyalari*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
**2020**

UO'K: 821.133.1-32

KBK 84(4Fra)

M 74

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Nodirabegim IBROHIMOVA va b.**

•

Qo'lingizdag'i to'plamdan jahon adabiyotidan saralab tarjima qilingan hikoyalari o'rinni olgan. Ulardan biri nafaqaga chiqqanida turmush tashvishlari bilan to'qnashgan qariya haqida. U odamlarga ishonmaydi. Hatto uning ismini aytib murojaat qilsalar ham hadiksiraydi, vahimaga tushadi. Oqibatda tog' yo'lida adashib, qor ostida muzlab qoladi.

Aksariyati insonlarni ezgulikka, bir-biriga mehr ko'rsatishga undovchi hikoyalardan jamlangan ushbu to'plam o'quvchilarimizga hayot sabog'ini beradi, degan umiddamiz.

© N. Ibrohimova va b. (tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

ISBN 978-9943-6342-0-6

INTERFAR ID 2072/3  
Зарнуга АКМ

## N A S H R I Y O T D A N

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqta-yi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarni o'qishga tuyasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrinig deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimmi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlар oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## SO'NGGI AFSUS

Butun Manta shahrida „Saval ota“, deb nom chiqargan janob Saval endigina uyg‘ondi.

Kuzning mahzun bir kuni. Yomg‘ir yog‘moqda. Barglar ham yomg‘ir singari yerga to‘kiladi, ammo ular yirik va biroz tanbal ko‘rinadi. Shunga monand janob Savalning ham ko‘ngli ezgin. Xona bo‘ylab kamin va deraza yo‘nalishida aylangani-aylangan. Inson hayotida ba’zan qayg‘uli kunlar ham bo‘lib turadi. Ammo bu janobning har kuni zimiston: mana, yoshi oltmish ikkiga chiqsa ham. U yolg‘iz, keksa bo‘ydoq, qalbining hamrohi yo‘q. Seni kimdir yaxshi ko‘rmaganini anglab turib, yolg‘izlikda o‘lib ketishdan yomoni bo‘lmasa kerak!

Saval hayoti haqida o‘ylasa, naqadar quruq va rangsiz degan fikrga keladi. O‘tib ketgan bolalik, eski uyi, ota-onasi, so‘ngra kollej, dunyoni ko‘rishi, Parijda tahsil olishi... Keyin otasining betob bo‘lib vafot etishi ko‘z o‘ngidan o‘tdi. Otasi qazo qilgach, Saval Parijdan qaytdi va onasiga hamroh bo‘ldi. Yosh yigit va keksa ona bирgalikda tinchgina yashashdi, ularga boshqa hech kimning keragi yo‘q edi. Onasi ham o‘lgach esa... g‘amgin hayot boshlandi.

U batamom yakkalanib qoldi. Mana, yaqinda o‘zi ham o‘lsa kerak. Saval hayotni tark etadi! Naqadar dahshat! Qolgan insonlar esa yashashda davom etadi, sevishadi, kulishadi, hayot gashtini surishadi. Qachondir o‘lishlarini bilgan holda xursand bo‘lishdan, o‘yin-kulgidan voz ke-

cholmaydilar. Kundan keyin, albatta, tun keladi. Hayotdan so'ng o'lim ham muqarrar.

Bu hayotda biror nimaga erishganida, bo'shliq o'rni to'ldirilganida ham alam qilmasdi odamga. Hayotida qiziq voqealar, quvonch, omad, mammunlik bo'lganida edi! Yo'q, hech nima yo'q. U hayotini uqlash, uyg'onish, yeyish bilan o'tkazib yubordi. Boshqalarga o'xshab uylanay ham demadi. Nega? Uylanishga to'la imkoniyati bor edi-ku? Balki, sharoit taqozo etmadimi? Yo'q, hammasiga o'zingning pessimistligi sabab. Passivlik hayotining mazmuniga aylandi. Natijada, baxtini yo'qotdi. U hatto sevimli bo'lish nima ekanini ham his etmadni. Biror ayolning qaynoq taftini sezmadni. Bo'sa ta'mini tatib ko'rmadi.

Janob Saval shularni o'ylagancha kamin tomonga oyog'ini uzatib o'tirardi. Ha, hayoti o'xshamadi. U qachonlardir bir xonimni ich-ichidan pinhona sevgandi. Ammo ayol eski bir oshnasi Sandrning xotini edi. Qani endi ayolni turmushga chiqmasdan avval uchratganida... Unga turmush qurushni taklif qilarmidi. Afsus, ular kech uchrashishdi. Shunday bo'lsa-da, Saval uni bir ko'rishdayoq sevib qolgandi. Uni orzulab bedor o'tgan tunlarni yaxshi eslaydi.

Yoshligida ayol biram yaxshi, mehribon, sochlari malla va jingalak edi. Hozir u ellik yetti yoshda. Baxtli ko'rnadi. O'shanda ayol ham uni sevganida, Savalning sevgisini payqaganida edi!.. Agar Saval sevgi izhor qilganida bunga qanday qaragan bo'lardi?.. Saval o'ziga-o'zi tinimsiz savol berardi.

Saval ayol bilan birga Sena qirg'og'i bo'ylab yugurishga chiqqanlarini, yakshanba nonushtalarini esladi. Bir kuni ular o'zлari bilan yegulik olib daryoga borishdi. Bahorning ajoyib bir kuni edi. Qushlar ham quvonchdan qo'shiq aytardilar. Ikkisi daryo bo'yida nonushta qilishdi. Atrofni

gullarning mayin ifori tutib ketgandi. So'ngra, u Savalga suyanib bir muddat mudrab qoldi.

– Hecham bunchalik maroq bilan uxlamagandim, – degandi ayol uyg'ongach.

So'ngra ular qirg'oqda sayr qilishdi. Ayol uni qo'ltiqlab olgandi.

– Men sarxushman, – derdi nuqul kulib.

Xonim o'tlar va liliyalardan gulchambar yasab, boshiga qo'ndirdi:

– Xo'sh, yoqdimi senga?

Saval indamadi. U bu go'zalikka mos ta'rif topolmagan, uning qarshisida tiz cho'kishga shay turardi. Ammo tilidan boshqa so'zlar chiqdi:

– Qo'ysang-chi! Tentaklik! – dedi-yu, o'zi yig'lab yuborayozdi.

Ular to'lqinlarni kuzatib ancha sayr qilishdi.

– Balki, uyg'a qaytarmiz?

Saval shunday deganda ayol unga ajablanib boqdi.

– Mayli, do'stim. Charchagan bo'lsangiz, qaytamiz.

– Charchamadim. Shunchaki, Sandr uyg'onganmikin, deb o'layapman.

– Albatta. Agar shundan cho'chiyotgan bo'lsangiz, bu boshqa gap. Ketdik!

Ular jimgina ortga qaytishdi. Hozir shularni o'ylagan Saval ayolning holatini endi tushunayotgandi. Nahotki, u ham...

Saval yuzining qizarganini sezdi. Xuddi o'ttiz yoshiga qaytib qolgandek, ayol „Sizni sevaman“, deyayotgandek tuyuldi. Axir, shunday bo'lishi mumkin edi-ku? Savalning ichini it tirnay boshladi. Men hammasiga oydinlik kiritishim shart! U darhol kiyina boshladi. „Yoshim allaqachon oltmish ikki, u esa ellik yettida. Endi hammasini so'rashga haqim bor“.

Saval ayolning yoniga yo‘l oldi. Sandrning uyi shu ko‘chada, deyarli qarama-qarshi edi. Eshikni yoshgina oqsoch qiz ochdi. Qiz mehmonning bunchalik erta kelganidan ajablandi.

– Barvaqt kelibsiz, janob Saval? Hammasi joyidami?  
– Tinchlik, azizam. Bekangga kirib aystsang, uni hoziroq ko‘rishim kerak.

– Bekam bandlar, oshxonada qishga deb murabbo yop-yaptilar. Hali tungi kiyimlarini ham yechmagandilar.

– Ha, ha, mayli. Ammo aytib qo‘y, muhim gapim bor.

Oqsoch ketdi. Saval mehmonxonada u yoqdan bu yoqqa kezinardi. „Zarari yo‘q. Men undan oddiy ohangda so‘rayman. Xuddi biror taomning retseptini so‘ragan kabi. Axir, yoshimiz bir joyga borib qolgan, ayb emas“.

Eshik ochilib, ayol kirib keldi. U endi og‘ir-vazmin, to‘lishgan edi. Qo‘llarida murabbo yuqi bilan mehmonga yaqinlashdi.

– Sizga nima bo‘ldi, do‘stim, salomatmisiz? – so‘radi u jilmayib.

– Yaxshiman, shunchaki sizdan men uchun muhim bo‘lgan bir nimani so‘ramoqchi edim. Faqat va‘da bering, rostini aytasiz.

– Sizni hecham aldamaganman. So‘rang!

– Xo‘s... Men sizni bir ko‘rishda sevib qolgandim. Buni sezganmisiz?

Ayol nim tabassum qildi. So‘zlarida unutilib ketgan ohang bo‘y ko‘rsatdi:

– Tentak! Albatta, boshidayoq sezganman.  
– Bilgansiz? – Saval shoshib qoldi. – Unda nega?..  
– Nima nega?  
– Nega... bunga qanday qaragansiz? Nima deb javob bergen bo‘lardingiz o‘shanda?

Ayol yoyilib kuldi. Barmoqlaridagi murabbo tomchilari yerga oqdi.

– Menmi? Axir, bu haqda sirayam so‘ramagansiz-ku?  
So‘ramasangiz, qanday qilib birinchi bo‘lib sevgimni tan olardim!

Saval unga yaqinroq keldi:

– Ayting... ayting-chi, daryo bo‘yida sayr qilganimiz esingizdami?

– O‘sha kunni eslayman, – dedi ayol uning ko‘ziga tikilib.

Saval titroq bilan yana so‘radi:

– Agar... agar o‘sha kuni sizga ko‘nglimni ochganimda nima qillardingiz?

Ayol o‘zining baxtiyor tabassumiga erk berdi va baland ovoz hamda biroz kesatiq bilan javob qaytardi:

– Qabul qillardim, do‘stim mening.

Shunday deb u oshxona tomon shoshib ketib qoldi.

Saval og‘ir yuk bilan tashqariga chiqdi. Katta qadam tashlab ketib borar, yomg‘irni his etmas, ko‘zлari hech ni-mani ko‘rmasdi. Senaga yetib borgach, qirg‘oq bo‘ylab keta berdi. U uzoq sayr qildi. Kiyimlari, shlapasi suvga bo‘kdi. Saval ayol bilan nonushta qilgan va qo‘l ushlashib sayr qilgan aynan o‘sha joyni ko‘zlab ketardi. Yetib kelgach esa o‘tloqqa cho‘kdi va daraxt panasida yig‘lab yubordi.

---

## SOVUQ KUNLAR

Tushlikdan so‘ng bir joyga yig‘ilgan erkaklar ovga chiqqan paytlarida yuz bergen eng qiziqarli sarguzashtlarni so‘zlab berayotgandi. Ajoyib mergan, uddaburon ovchi sanalgan eski qadrdomiz janob Banifas tabiatan quvnoq, aqli, faylasuf hamda donishmand odam edi. U ovga oid hazillarni sevar, qayg‘uli hikoyalarni esa jini suymasdi. Janob Banifas bu safar bizni hayron qoldirib, kutilmaganda shunday dedi:

— Men g‘aroyib bir hikoyani bilaman, to‘g‘rirog‘i, ovga chiqqan paytlarimda yuz bergen qayg‘uli bir hodisa. Ilgari bunga o‘xhash hikoyalarni sira so‘zlab bermaganimni hisobga olganda shuni aytib qo‘yishim kerakki, u boshqalaridan ancha farq qiladi va sizni umuman zavqlantirmaydi, deb qo‘rqaman. Hikoya u qadar hayratlanarli ham emas. Demoqchimanki, unda asablarni qitiqlaydigan qiziqarli hech narsa yo‘q. Lekin, aslida, hamma gap ham shunda-da. O‘sanda o‘ttiz besh yoshda edim va ov eng sevimi mashg‘ulotimga aylangandi. Ovga mukkasidan ketgan vaqtlarimda men hatto Jyumeja o‘rmonlari orasida quyon va turli yovvoyi hayvonlar ko‘p bo‘lgan katta hududni soitib ham olgandim. Kundalik tashvishlardan ortib u yerga yiliga bir marta, shunda ham atigi to‘rt-besh kunga, faqat yolg‘iz borishga to‘g‘ri kelardi. Chunki bu qalin o‘rmonda tunagani qo‘nalg‘a topish anchayin mushkul vazifa edi va ayni ana shu sabab do‘stlarimni u yerga olib borolmasdim.

Ov mahali menga nafaqadagi jandarm, vijdonli, qattiqqo'l, intizomga qattiq riosa qiladigan, mas'uliyatli, brakonyer-larga haqiqiy xavf-xatar tug'dira oladigan hamda shu bilan birga beozor qari qorovul hamrohlik qilardi. U qishloqdan juda olisda joylashgan ikkita tor xona va bitta oshxonadan iborat kichkinagina kulbada yashardi. Atigi bitta karavot, kiyimlar qo'yiladigan bitta javon va bitta kursi sig'adigan tor xonalarning biri kaminaga ajratilgandi. Ikkinchи xonani esa Kavalye amaki egallagandi. Uzr so'rayman, men sobiq jandarm hikoyamning boshida yolg'iz yashaydi, deb aytib biroz yanglishibman. U o'n to'rt yoshli jivanini asrab olgandi. Bola ba'zan ro'zg'orga kerakli mahsulotlarni keltirish uchun uch chaqirim yo'l bosib qishloqqa borar va uy yu-mushlarini bajarishda amakisiga yaqindan ko'maklashardi. Bu oriq, baland bo'yli bolaning sochlari tovuq patlariga o'xshardi va o'shanday oppoq edi. Olisdan u xuddi taqir-day tuyulardi. Bolaning gavdasiga nisbatan katta oyoqlari hamda uzun qo'llari e'tiborni tortardi. U biroz duduqlanan va odamning ko'zlariga sira tik qarolmasdi. Hayvonlar orasida hayvonchalar qanday o'rin egallasa, odamlar orasida u ham xuddi shunday mavqega ega edi. Ha, bu bolacha ko'rinishidan bo'rsiqni yo isqirt tulkichani eslatardi. U ikki xonani birlashtiradigan zinapoya ostida uxlardi. Kavalye amakining uyida tayyorlanadigan ovqatlarning hammasini ham tanovul qilishga yaroqli deb bo'lmasdi, shuning uchun menga Selestа ovqat tayyorlardi. Ov qilishga borgan paytlarim Kovalye oshxonani qishloqda yashaydigan shu qari kampirga bo'shatib berishga majbur edi. Shunday qilib, siz hikoyamning barcha qahramonlari va voqeа sodir bo'lgan joy bilan yaqindan tanishib oldingiz, endi hikoya-ning o'zini eshititing. Men Ruanadan otda yurib borardim. Kavalye amakining Bok laqabli iti ortimdan qolmaslikka intilardi. Katta, kuchli va keng ko'krakli it barglar orasidan

o'lja izlardi. Yo'l xaltasini miltiq bilan birga belimga osib olgandim. Kun sovuq edi. Qattiq shamol esar, osmonda esa qora bulutlar kezardi. Men kentel cho'qqisiga ko'tarilar-kanman, keng Sena adirlariga tikildim. Ilon iziga o'xshab bir-biriga ulanib ketgan daryolar va irmoqlarni ko'rdim. Ruanadan chapda esa osmono'par tog'larning go'zal ko'rinishi ko'zni qamashtirardi. Undan so'ng otga qamchi bosib, Rumars o'rmonidan o'tib, soat beshlarda „Pavil-yon“ gacha yetib bordim. Meni u yerda Kavalye amaki va Selesta kampir kutib turardi. O'n yil men bir joyga bitta yo'l bilan keldim va meni o'n yil o'sha odamlar har doim bir xil so'zlar bilan kutib olardi:

– Xayrli kun, janob. Yaxshimsiz?

Kavalye amaki sira o'zgarmagandi. U hayotdagi buzg'unchi o'zgarishlardan qo'rqmay, qari eman kabi ularga ko'kragini tutib yashardi. Ammo Selesta, oxirgi to'rt yil ichida tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. To'g'rirog'i, kampir qarib qoldi. U meni yaxshi ko'rardi. Ketayotganimda esa faqat bir gapni takrorlardi:

– O'ylaymanki, janob, biz oxirgi marta ko'rishmayapmiz.

Men otdan tushdim va Kavalyening qo'lidan tutib salomlashdim. U otning arqonini qo'limdan oldi hamda kichkina otxona tomon yetakladi. Men oshxonada kuy-malanayotgan Selesta bilan ko'rishib, biroz subatlashib turdim. Ko'p o'tmay qorovul ham bizga hamrohlik qildi. Uning nigohlaridan nimadandir tashvishda ekanligini darrrov sezdim.

– Nima bo'ldi, Kavalye? Hammasi joyidami? Qanday yangiliklar bor? – deb so'radim.

– Yaxshisi ham yomoni ham bor, – deya g'udrandi u.

– Aytavering, birodar? Nima bo'ldi?

U „yo'q“ degandek boshini chayqadi.

– Hozir emas, janob, men sizni kelgan kuningizdanoq xavotirga solishni istamasdim...

Qancha talab qilmay, Kovale o‘z tashvishi bilan tushlikka qadar kayfiyatimni buzmaslikka ahd qilganini aytib, qarorida qat‘iy turib oldi. Biroq uning yuzidagi alomatlariga qarab ish nihoyatda jiddiyligini anglab yetdim. Suhbat davomida uning jiyani ko‘rinmayotganini payqab:

– Darvoqe, Marius qani? – so‘radim.

Qorovul bunday savolni kutmaganidanmi, jinoyat ustida qo‘lga tushgan odamday betoqlanib, hatto titrab ketgandek tuyuldi.

– Hammasini hozirning o‘zida aytganim yaxshi. Qalbimni egallagan qayg‘u ham, aslida, u tufaylidir. U hozir otxonada, janob, ko‘zingizga ko‘rinishga qo‘rqtyapti. – Qorovul o‘ng‘aysizlanib, gapirishga qiyalar, nazarimda, hamon ikkilanardi. Kutilmaganda uning ovozi o‘zgardi. Yuzlarida esa chuqur qarilik ajinlari paydo bo‘ldi hamda u asta-sekin tilga kirdi.

– O‘tgan yili qishda Rozerye hududida kimdir tuzoq qo‘yayotganligini sezib qoldim, ammo topa olmadim. Bu vaqtida Ekorshvila atrofida yangilari paydo bo‘ldi. Bu muttaham oldindan qayerga borishim va nima ish qilishimni yaxshi bilardi. Nihoyat bir kun Mariusning bozor kuni kiyadigan shimini tozalayotib, cho‘ntagidan sim topib oldim. Yosh bola simni nima qilarkin, deb ko‘p o‘yladim. Bu haqda bir hafta bosh qotirdim va uning aynan dam olgani uyga qaytgan soatlarda qayergadir g‘oyib bo‘lishini sezib qoldim. Shundan so‘ng men uning ortidan kuzata boshladim. Boshida xayolimga hech narsa kelgani ham yo‘q, lekin bir kun tongda atayin dam olgani xonamga kirdim. U meni uxbab qoldi, deb o‘ylab tashqariga chiqdi. Bolaning ortidan sekin kuzatib bordim. Tasavvur qilyapsizmi, o‘sha muttaham o‘g‘ri deb yurganim – mening o‘z jiyanim ekan.

Men sizning qo'l ostingizga qorovullik qilib, yerlaringizni qo'riqlayman-u, u bo'lsa... Ko'zimga tuz sepib yurgan ekan, nonko'r. Qonim qaynab uni shunday kaltakladimki, joyida o'ldirib qo'yishimga ozgina qoldi. Bolani sizning ko'zingiz oldida jazolash bilan ham qo'rqtidim. Shunaqa gaplar, janob, bunday vaziyatga hech tushmagandim. Uni qanday jazolay, o'zingiz ayting. Mariusning ota-onasi yo'q. Qarindoshlaridan yolg'iz men borman. Shuning uchun ham uni o'z qaramog'imga olgandim. To'g'risini aytsam, bu sag'ir yetimchani ko'chaga haydagani ko'zim qiymaydi. Unga bu ishni yana qayta qilsa, oxir-oqibat menden rahm-shafqat kutmasligini tushuntirdim. To'g'ri ish qilibmanmi, janob, nima deysiz?

Men unga qo'limni uzatdim va:

– Albatta, siz xatoga yo'l qo'yaningiz yo'q, Kavalye. Siz vijdonli odamsiz!

– Rahmat janob, endi ruxsat etsangiz, bolani olib kelsam, uni yaxshilab qo'rqtib qo'ymasak bo'lmaydi.

Qariyani bu shashtidan qaytarish befoydaligini bilar-dim, u, baribir, o'z aytganidan qolmasdi. Qari jandarm Mariusning ortidan bordi va qulog'idan tortib olib keldi. Men singan kursida sudyalarga o'xshab, qiyofamga jiddiy tus berib voqeani kuzatib turardim. Marius o'tgan yilidan ancha ulg'ayib, yanada xunuklashib hamda ayyorlashib qolgandi. Uning uzun qo'llari esa nihoyatda qo'rqinchli edi.

Iymonli tog'a jiyanini insofga chaqirar ekan:

– Xo'jayindan kechirim so'ra! – deb buyurdi.

Bola hadeganda og'zini ochavermadi. Shunda sobiq jandarm jahl otiga mindi va qo'lidagi tayog'i bilan tushirdi.

– Kechiring!.. Kechiring!.. Kechiring!.. Men boshqa bunday qilmayman, deb ayt. Kavalye qo'lidagi tayog'ini pastga tushirdi va jiyanini tiz cho'kib uzr so'rashga majbur-ladi. Bola ko'zlarini yerga qadadi va:

– Kechiring, – deb to‘ng‘illadi.

Shundan so‘ng Kovalye uni qo‘lidan tortib o‘rni-dan turg‘azdi va yana bir musht tushirdi. Marius tashqariga otilib chiqib ketdi-yu, kechgacha ko‘rinmadi.

Kavalye xuddi sinib qolganday edi.

– Uning ichiga shayton o‘rnashib olgan. Odamning ola-si ichida bo‘larakan, deganlari shu bo‘lsa kerak-da! – dedi u yelkasini qisib. – Meni u qanday ranjitganini so‘z bilan tasvirlab berolmayman, janob!

Uni tinchlantirishga urinib ko‘rdim, biroq bari befoy-da edi. Erta tongda ovga chiqishimizni bahona qilib, vaqt-liroq dam olmoqchi bo‘ldim. Xonamga kirganimda itim karavotim yonida yotardi. Chiroqni o‘chirib, toza o‘ringa cho‘zildim. Yarim kechasi itning qo‘rqinchli akkillashidan uyg‘onib ketdim. Ko‘zlarimni ochganimda xona tutunga to‘lgandi. O‘rnimdan yugurib turdim va chiroqni yoqdim. Bir tepib eshikni ochgandim, ichkariga alanga otilib kirdi. Kulba yonayotgandi.

Men emandan yasalgan qalin eshikni qayta mahkam-lab, tezda kiyimlarimni kiyib, choyshabdan arqon tayyor-ladim. Avval itni, keyin kiyimlarim solingan jomadonlarni, ov miltig‘i-yu ov sumkasini tashqariga uloqtirdim va ar-qonga osilib, yong‘indan qutulib chiqdim.

Keyin ovozim boricha baqira boshladim:

– Kavalye! Kavalye! Kavalye!

Ammo qorovul uyg‘onmasdi. Qari jandarm qattiq uy-quda edi.

– Uy yonyapti! Kavalye! Xudo haqi uyg‘oning!

Qariya tutundan bo‘g‘ilib qolgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylab qoldim va miltiqni olib o‘qladim-da, derazaga qarab ot-dim. Bu safar o‘zini yo‘qotib qo‘ygan qariya deraza oldida paydo bo‘ldi. U gurullab yonayotgan olovga nima qilishini bilmay hayron qarab turardi.

— Uy yonyapti! O‘zingizni derazadan tashqariga oting! — deb baqirdim bor ovozim bilan.

Qariya aytganimday qildi. U tashqariga chiqishi bilan uyning yonib bo‘lgan devorlari yerga quladi.

Bir necha daqiqa ichida uydan kuldan bo‘lak hech narsa qolmadi.

Kavalye titrar, nima qilishni bilmasdi:

— Yong‘in qayerdan chiqibdi? — deb so‘radi.

— Bilmadim. Oshxonadan bo‘lsa kerak, — dedim men.

— Kim qilgan bo‘lishi mumkin?

Birdan u anglab yetdi:

— Marius! Yo tangrim! Nima uchun tunagani uyga qayt-maganligini endi tushundim. Iblis! — deb baqirardi qariya telbalarcha.


Birdan:

— Selest? Selest qani? — deb so‘radim qari ayolni eslab.

U hech nima deb javob berolmadi. Dahshatli yong‘in ichra bir begunoh kampirning yonib ketganini sezmabmiz ham. Biz, hatto, uning baqirganini ham eshitmabmiz. Olov oxtonaga ham o‘tgandi. Kavalye otni qutqarish uchun yugurib ketdi. U oxtonaning eshigini ochgandi hamki, kimdir ichkaridan otilib chiqdi. Chol yerga yuztuban yiqildi. Bu Marius edi. Qorovul uning ortidan telbalarcha yugurib ketdi, biroq jiyaniga yetishi amri mahol edi. Hammasi shunchalar tez yuz berdiki, men nima bo‘lganini anglayolmadim. Aqlimi yig‘masimdan qariya qo‘limdagи miltiqni yulqib, o‘qlangan yo o‘qlanmaganligini ham tekshirib ko‘rmasdan, bolani nishonga oldi va o‘q uzdi. Men uning yoniga yugurib bordim, biroq bola o‘layotgan odamdek xirrilab nafas olardi. U bir og‘izam gapirmay, vafot etdi. Kavalye, bitta ko‘ylakda turgan joyida tosh qotib qolgandi. Qishloq odamlari qorovulni olib ketishdi, chunki u esdan

og‘ib qolgandi. Meni sudga guvoh sifatida chaqirishdi. Voeaning hammasini tafsilotlarigacha oqizmay-tomizmay aytib berdim. Kavalyeni oqlashdi, biroq suddan keyin u g‘oyib bo‘ldi va butun umrga bu yarlarni tark etdi. Men uni qayta uchratmadim. Mana, janoblar, bu sizga mening qari jandarm to‘g‘risida aytib bermoqchi bo‘lgan mungli hikoyam edi.

---



---

## TUN

Men tunni qattiq sevaman. Xuddiki Vatanni yoxud ma'shuqani sevishganiday g'ayrishuuriy, chuqur, yengib bo'lmas ishtiyoq bilan sevaman. Ha, men uni butun sezgilarm bilan sevaman: ko'zlarim uni tomosha qiladi, dimog'im bo'yalarini sipqoradi, qulqqlarim uning sukunatini tinglaydi, qorong'ilik mening bor vujudimni erkalaydi. So'fito'rg'aylar quyoshli kun ko'm-ko'k osmonda, yorqin tonglarning iliq-miliq, erkalovchi havosida qanday kuylashsa, boyqushlar ham zim-ziyo kengliklarni qora dog' singari kesib o'tarak, tun qo'ynida xuddi shunday g'izillab yurishadi. Tunning hududsiz zulumotidan shirakayf bo'lib, zirillagan, vahim tovushlar chiqarib shodlik izhor etishadi.

Kun meni toliqtirib, g'am-g'ussaga cho'mdiradi. U qo'pol va sershovqin. Ertalablari suyagim og'ir uyg'onaman, qo'lim bormay kiyinaman, uydan ma'yus chiqarkanman, har bir odim, har bir harakat, har bir ishora, har bir fikr, xuddi zalvorli yuk singari menga malol keladi.

Lekin, mana, quyosh botib borarkan, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan bir shodlik butun borlig'imni qamrab oladi. Men go'yoki uyg'onaman, jonlanaman. Zulmat o'z pardasini yoygani sari sekin-asta men o'zimni butunlay boshqacha – navqironroq, quadratli va tiyrakroq, yanada baxtiyorroq his eta boshlayman. Osmondan ibtido olgan sim-siyoh, yoqimli bir qorong'ilik quyuqlashishini kuzata-

man; u sezilmas, ammo qop-qora to'lqin singari shaharni g'arq qiladi; ranglarni, tarhlarni yashiradi, go'yoki yuvib tashlaydi, barbod etadi; uylar, odamlar, haykallar ustiga o'zining ko'rinasini yopadi.

Shunday lahzalarda mening shodlikdan xuddi boyqush singari qichqirgim, tomlar ustida mushuk kabi daydigim keladi; tomirlarimni ishtiyoqning hukmfarmo, muzaffar bir tashnaligi kuydira boshlaydi.

Avval-boshlab zulmatga cho'mgan shahar atrofini, keyin esa tevarakdag'i o'rmonlarni kezinaman, bu o'rmonlarda mening singillarim bo'lmish til-zabonsiz maxluqlarning, mening og'a-inilarim bo'lmish brokonyer (o'g'ri ovchi)lar ning izg'ib yurishlarini tinglayman.

Nimaniki qattiq sevsang, oxir-oqibat u seni halok etadi... Ammo menga nima bo'lyapti o'zi? Harchand urinmay tushuntirib berolmayman. Bu haqda so'zlab berishga kuchni qayerdan oldim – aql bovar qilmaydi. Bilmayman, boshqa hech narsani bilmayman. Aynan shunday bo'ldi – shuni bilaman, xolos. Ha, aynan shunday bo'ldi.

Ehtimolki, bu hodisot kecha bo'lib o'tdi – vaholanki, aniq kechamidi? – agar muqaddamroq – boshqa kun, boshqa oy yoxud boshqa yilda sodir bo'limgan bo'lsa, albatta, kecha edi – yana bir narsa deyolmayman. Har qalay, bu voqeal kecha bo'lgan bo'lishi kerak, chunki o'shandan buyon boshqa tong otgani, quyosh chiqqani yo'q. Ammo-lekin tun qachondan buyon davom etyapti? Qachondan buyon? Kim aytal oladi? Buni biror kimsa, hech bo'limganda, qachondir kelib bilib olarmikin?

Kecha edi, shekilli, kechki ovqatdan so'ng har kungi odatincha uydan chiqdim. Atrof sokin, havo g'oyatda yoqimli, iliq. Xiyobonga kirib borarkanman, osmonda – boshim ustida go'yo binolarning tomi bilan o'yib hosil qilingan yulduzoqar qop-qora daryoga ko'zim tushdi; ko'cha

qayrila turib yulduzlar to‘lqin urgan bu daryoni povullab otilib chiqishga majbur qilardi go‘yo.

Yulduzlardan tortib gazchiroqlargacha – barchasi yengil havoda lipillab-yarqillab turardi. Osmon toqlarida ham, shaharda ham had-hisobsiz chiroqlar porlab turganidan tunning qa’ri yorishib ketgan edi. Bunday porloq kechalar uzundan uzoq serquyosh kunlardan ko‘ra zavqliroqdir.

Xiyobondagi ko‘psonli qahvaxonalar shu’la to‘kib turadi, odamlar esa sayr qilishadi, xandon otib kulishadi, qadah ko‘tarishadi. Oniy lahzaga teatrga nazar soldim. Qaysi teatr edi u? Bilmayman. U yer shunchalar yorug‘ ediki, ko‘nglim g‘ash tortib tezgina uzoqlashdim: zarhal ayvonni oynaday ravshan namoyish etib turgan q‘tkir yorug‘lik, ulkan bilur qandillarning yasamaday tuyuladigan yarqiroq nurlari, sahna chiroqlarining jilvalanishi – bularning barchasi notabiyy, chidab bo‘lmas darajada bo‘lib, ko‘ksimni qayg‘u-hasratga to‘ldirdi. Men Yelisey dalalari sari otildim: u yerda tungi ayshini boshlagan restoranchalar barglar orasida gulxanday lovullab ko‘rinadi. Sap-sariq shu’lalarga chulg‘angan kashtanlar rang-barang qilib bo‘yalgan, ichdan nur taratib turuvchi afsonaviy daraxtlarga o‘xshaydi. Dumaloq elektr chiroqlari dam yaltiroq va kumushrang oymomalarни, dam osmondan tushgan oysimon tuxumlarni, dam xiyol titrab turgan ulkan marvaridlarni eslatadi: ular o‘zining sirli sadafrang, ayni paytda shohona shu’lalari bilan manfur, rasvoyi raddibalo gazchiroqlarning ayanchli „tilcha“larni ham, marjonday tizilgan rang-barang shishachiroqlarni ham xira torttirib qo‘yan.

Men G‘alaba darvozasining tagida to‘xtab, chiroqlarning ikki tomonlama muvoziy zanjiri o‘rtasidan Parijga tomon yo‘nalgan uzun va ulug‘vor shohko‘chani hamda shundoqqina boshim ustidagi samo yoritkichlarini tomosha qila boshladim. Eh, hududsiz fazoga tavakkal sochib

yuborilgan va u yerda jimjimador naqshlar hosil qilgan bu samo mash'alalari bizni taxayyul va orzu-istiklar olamining qaysi puchmoqlariga yetaklamaydi deysiz?!

Men Bulon o'rmoniga kirdim va u yerda uzoq-uzoq qolib ketdim! Daf'atan tanamga g'alati bir titroq yugurdi, kuchli tug'yon to'lqin singari butun borlig'imni chulg'ab oldi, cheksiz hayajon va sururdan shaytonlab qolay dedim.

Men yana uzoq sang'idim, judayam uzoq. Keyin esa orqaga qaytdim.

G'alaba darvozasi ostida qayta paydo bo'lganimda qay mahal edi? Bilmayman. Butun shahar qotib uxlardan, og'ir va sim-siyoh bulutlar sekin-asta osmonni bosib kelar edi.

Daf'atan nimadir g'alati, g'ayritabiyy bir hodisa ro'y berrajagini his etdim – salqin kuchayib, havo quyuqlashganday, tun, ha, men uchun bag'oyat sevimli bo'lgan shu tun yuragimni siqib, o'z og'irligi bilan bosib kelayotganday bo'ldi.

Endi shohko'cha butunlay bo'shab qolgan. Yolg'iz ikki mirshab faytunlar to'xtash joyida u yoqdan bu yoqqa borib-kelishardi. Ko'chaning piltalari zo'rg'a lipillab turgan gazchiroqlar bilan yoritilgan qatnov qismida sabzavot yuklangan aravalalar turnaqator bo'lib Markaziy bozor sari yo'nalgan edi. Qorong'ilikka deyarli singib ketgan aravakashlar mudrashadi, otlar bir-birining ortidan bir maromda yo'rtib borishadi, hatto yog'och ko'prikda ham tuyoqlarning taqillashi eshitilmaydi. Ko'cha chiroqlari shu'lasida sabzilar qizil, sholg'om – oq, karam – yashil rangda yiltillab ko'rinadi; bu qizil shunchaki qizil emas – xuddi olov, oqini – xuddi kumush, yashilini – naq zumrad deysiz! Aravalalar birin-sirin o'tib borishardi. Birmuncha vaqt ularning ortidan tushib oldim, keyin esa Qirol ko'chasiga burildim va yana xiyobonga kelib qoldim. Endi na sershovqin olomondan, na yaraqlagan qahvaxonalardan nom-u nishon yo'q, yolg'iz uyi sari shoshilgan bir necha kechikkan yo'lovchilargina

ko‘rinib qoladi. Parijni hech qachon hozirgiday huvullagan, kimsasiz ko‘rgan emasdym. Soatimga qaradim: tungi ikki.

G‘ayritabiyy bir kuch meni nuqilaydi, yana izg‘ishga undaydi. Bastiliya maydoniga bordim. Shu yerda daf’atan bu qadar sim-siyoh tunni boshqa hech qachon ko‘rmaganligimni anglab qoldim. Negaki qorong‘ining zo‘ridan hatto Iyul kolonnasini ham ilg‘ab bo‘lmas, uning oltin qubbalari ham quyuq zulmatda ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan edi. Osilib turgan mahobatli va zich bulutlar qatlami yulduzlarni yutib yuborgani yetmaganday, uni ham komiga tortish uchun yerga tushgan kabi edi.

Men izimga qaytdim. Atrofimda endi hech jondan asar yo‘q. Shunday bo‘lsa-da, Shato d’O maydonida qandaydir mast holda yurgan kishiga urilib ketay dedim, keyin u ham ko‘zdan yo‘qoldi; birmuncha vaqt uning alpang-talpang qadam tovushlari baralla eshitilib turdi. Yana olg‘a ketdim. Monmartdan Sena daryosiga qarab fayton ketib borardi. Kucherni chaqirdim, ammo hech qanday javob bo‘lmadi. Druo ko‘chasi kunjagida allambalo bir ayol daydib yuribdi.

– Janob, Xudo xayringizni bersin...

Men uning uzatilgan qo‘llarini sezmaganga olib qadamimni tezlatdim. Mana, yana hech kim yo‘q. „Vodevil teatri“ oldida eskifurush oqava zovurini titkilab yuribdi – qo‘l-chirog‘i naq yer ustida tebranadi.

– Soat necha bo‘lganikin, qadrdon? – so‘radim undan.

U esa po‘ng‘illab berdi:

– Men qayerdan bilay?! Soatim bo‘lmasa...

Aynan shu paytda birdan gazchiroyqlarning ortiq yonmay qo‘yanini sezib qoldim. Bilaman, yilning bu paytida tejash maqsadida ancha barvaqtroq – hali g‘ira-shiradayoq gazchiroyqlarni o‘chirib qo‘yishadi; ammo-lekin quyosh chiqishigacha hali olam-zamon vaqt bor, olam-zamon!

„Markaziy bozorga boray-chi, – o‘yladim men, – hech bo‘lmasa o‘sha yerda biror hayot nishonasi bordir axir?!”

Yana yo‘lga tushdim. Biroq endi qaysi yo‘ldan yurish kerakligini farqlolmay qoldim. Xuddi o‘rmonda ketayot-ganday tanish ko‘chalarni tusmollab ketaverdim.

„Lion krediti“ binosi oldida menga it tashlanib qoldi. Grammon ko‘chasiga qayrildim. Ammo yana tezda adashib qoldim, toki Birjani temir panjaralaridan tanib qolmagunimcha shu taxlit adashib yuraverdim. Butun Parij uyquga cho‘mgan, qandaydir bir chuqur va vahim uyquga cho‘mgan. To‘satdan uzoqdan faytonning taraqlashi eshitilib qoldi, bu – halizamon yonginamdan o‘tib ketgan faytonning o‘zginasi bo‘lsa ehtimol. Uni quvib yetish maqsadida bo‘m-bo‘sh va sim-siyoh ko‘chalardagi taraqlashga ergashib ketaverdim, ha, xuddi o‘lim singari zimiston ko‘chalarda.

Lekin yana adashib qoldim. Hozir qayerdaman? Shuncha barvaqtan gazchiroqlarni o‘chirib qo‘yish qanaqa bema’nilik o‘zi? Na o‘tkinchilar, na kechikkan ishrat-parastlar, na uysiz daydilar – biror kimsa yo‘q. Hatto mov bo‘lgan mushuklarning xumor-xumor miyovlashlari ham eshitilmaydi.

Mirshablar qayoqqa yo‘qolishdi? „Dod solaman, shunda yugurib kelishadi“, dedim o‘zimga o‘zim. Ovoz berdim, biroq tirik jonning sasi chiqmadi.

Qattiqroq baqirdim. Mening juda zaif, bo‘g‘iq ovozim hatto aks-sado bermay yutilib ketdi – u go‘yo tun, ha, aynan ana shu zim-ziyo tun tomonidan yanchib, yakson qilib tashlangan edi.

Men endi baralla dod soldim:

– Yordam beringlar! Yordam beringla-ar! Yorda-a-am!

Mening noumid qichqirig‘im javobsiz qoldi. Har holda, soat necha bo‘ldiykin? Men soatimni chiqardim, ammo

gugurt yo‘q. Uvoqqina mexanizmning zaif chiqillashiga tasavvur etib bo‘lmas alomat bir quvonch bilan qulop tutdim: ishlayapti! Har qalay, men yolg‘iz emas ekanman. Aql bovar qilmaydi!.. Yana ketaverdim, xuddi ko‘r odam singari devorlarni aso bilan paypaslab ketaverdim. Alaloqibat, kun yorisha boshlarmikan, degan umidda dam-dam osmonga qarab qo‘yaman, ammo boshim us-tidagi cheki yo‘q fazo qop-qorong‘i, mutlaqo zimiston, shahardan ko‘ra zimistonroq edi.

Har qalay, soat necha bo‘lsa ekan? Menga juda uzoq adashib yurganday tuyulyapti, negaki oyoqlarim chalishib, harsillaryman, ustiga-ustak o‘liday och qoldim. Men bir qarorga keldim va birinchi ~~duch~~ kelgan eshikning mis halqasini tortdim, eshik qo‘ng‘irog‘i uy ichida baralla ja-ranglay boshladи. Bu jaranglash juda g‘alati – go‘yoki uyda shundan boshqa tovush yo‘qdek.

Men kutib turaverdim, na biror tirik jon sas beradi, na birov eshikni ochadi. Qo‘ng‘iroqni yana bir marta urdim, kutdim – yana hech gap yo‘q.

Meni qo‘rquv chulg‘ab oldi! Qo‘shni uy sari otildim va qo‘ng‘iroqni eshikbon uxlaydigan qorong‘i dahlizga ham qattiq eshitiladigan qilib yigirma martacha urdim. Nima qilayki, eshikbon ham uyg‘onmadi – men yana zo‘r-ba-zo‘r oldinga intildim: butun kuchim bilan eshik dastaklarini, qo‘ng‘iroq halqalarini siltalayman, dam aso bilan, dam mushtim, dam oyoqlarim bilan eshiklarni uraman, harchand urinmay, ular to‘rsayib zikh tambalangancha qolaverdi.

Daf’atan Markaziy bozorda ekanligimni bilib qoldim. Bozor bo‘m-bo‘sh edi – na biror-bir sas, na bir harakat sharpasi, na birorta arava, na bir inson zoti, na sabzavotlar g‘arami, na gul dastalari – hammasini xuddiki yer o‘z komiga tortganday! Bozor butunlay huvullagan, harakatsiz, tashlandiq va o‘lik edi.

Meni rosmanasiga vahima bosdi. Nima bo‘lyapti o‘zi?  
Ey Xudoyim, nima bo‘lyapti o‘zi??

Yana olg‘a yurdim. Soat necha bo‘ldi? Necha? Kim ay-tadi, soat necha? Butxonalar qo‘ng‘iroqxonasi-dagi soatlar ham, binolardagi soatlar ham mum tishlaganday jim. „Soatimning shisha qopqog‘ini sindiraman-da, millarini bar-moqlarim bilan paypaslab vaqt ni bilib olaman“. Shunday xayol bilan soatimni chiqardim... yo‘q, u ham ortiq chiqil-lamay qo‘ygandi... soatim to‘xtab qolgandi. Na shaharda, na havoda – hech narsa, ortiq hech narsa qilt etmaydi: na bir shitirlash, na yilt etgan nur, na bir shabada! Hech narsa! Ortiq hech narsa! Hatto tobora uzoqlashib borayotgan fay-tonning zaif taraqlashi ham eshitilmaydi – hech narsa!

Endi men qirg‘oqda turardim, daryodan muzday shaba-da esmoqda.

A, Sena-chi? U haliyam oqyaptimikan?

Shuni bilgim keldi, timirskilanib zinani topdim, sho-shilmay pastga tushdim...

Hatto suvning ko‘priq ostidagi guvullashi ham eshitilmaydi... Yana pillapoyalar... keyin qumloq... balki, suvdır... Suvga qo‘limni tiqdim... U hali oqayotir... oqayotir... sovuq... sovuq... sovuq... qariyb muzday... Hatto butunlay to‘xtab qolganday... oh, deyarli ado bo‘lganday.

Birdan aniq-tiniq anglab yetdimki, endi hech qachon yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘zimda kuch topolmayman... shu yerda – shundayicha o‘lib ketaman... o‘lib ketaman – ochlikdan, holsizlikdan, sovuqdan.

---

## **NOTANISH MAHBUBAM**

Biz boshimizdan o'tgan sirli sarguzashtlar, zavqli ta-assurotlarimiz, poyezd, mehmonxona-yu dengiz sohillaridagi ishqiy uchrashuvlarimiz haqida berilib suhabat qurardik. Rojer de Annet aytganidek, joylashgan sohilmiz juda go'zal edi. Biz oramizda halidan beri mum tishlab o'tirgan Gontrandan nima haqida o'layotganini so'radik.

– Menimcha, Parij dunyodagi eng xushmanzara maskan, – gap boshladi u. – Ayollar bu yerda qimmatbaho bezakni eslatadilar. To'g'ri, biz ularni har yerda qadrlaymiz, biroq Parij eng qimmatli ayollar sultanati deyish mumkin.

Erkak biroz o'ylandi-da, so'ng qizishib gapida davom etdi:

– Tavbangdan ketay, bu juda ajoyib-da! Bahor tonglari ko'chalarни yayov kezsang... yoningdan esa kichik jussali ayollar xirom aylab o'tib ketishadi, ular xuddi endi ochilgan gullarni eslatadi-ya. Yoqimli va jozibali bu manzara... Har nafasda binafsha gulining mayin iforini tuyasan. Shahar gulzor go'yo, ayollar borligini har on ilg'aysan. Tavba-yey, ular shunday yorqin, nozik liboslar kiyishadiki, yarq etib ko'zga tashlanadilar. Ular uzoqdan siz tomon yaqinlashgan sari taniy boshlaysiz: avval bosh kiyimiga qo'ndirgan gulidan, boshchalarini u yoq-bu yoqqa nozik qaratishidan yoki qadam olishlaridan. U sizga yaqin kelganda, o'zingizga o'zingiz „Ana,

u yonimda“, deb pichirlaysiz va ko‘zlarigiz bilan teshib yuborgudek tikilib qolasiz. U biror yumush bilan yur-gan qiz, cherkovdan qaytayotgan ayol yoki oshig‘i bilan uchrashuvga chiqqan ma’shuqa bo‘lishi mumkin. Uning nozik belidan qaddi-qomatini chamalab ko‘rish mum-kin. Oh, agar bir martagina uning qo‘llaridan tutish im-koni bo‘lsami... Uning nigohi iboli yoki behayo, sochlari sariq yoki qora bo‘lar, nima farqi bor? Agar sizga biroz turtinib ketsa bormi, oyog‘ingiz uchigacha muzlab ke-tasiz. Qaniydi, u bilan bir bora suhbatlashsam! Bu yo‘l bo‘ylab qancha nozaninlar uchramadi deysiz. Ularning nechtasini sevib qolmadim-a... Hech o‘ylab ko‘rganmis-ziz, umrimizda bir marta ko‘rgan ayolni g‘oyibona, bi-roq o‘ta qattiq sevib qolishimiz mumkinmi? Bo‘lmagan gap! Vaqt o‘tib, biz arang bir ayolning nazariga tusha-miz, u tuyg‘ularimizni to‘lqinlantiradi ham. Biroq bu hol uzoqqa cho‘zilmaydi. Men yana Parij burchaklarida uchratganim – yoqimtoy nozaninlarni eslay boshlayman va judayam asabiylashaman. Ular kim? Qayerda hozir? Qanday topsam bo‘ladi? Ko‘pincha baxt shundoqqina yonimizdan o‘tib ketadi. Ishonchim komil, men ham nozik qushchamni o‘sha ko‘cha bo‘ylab o‘tkazib yubor-ganman, balki, u meni bir umr orombaxsh ifori bilan o‘zining yoqimli tuzog‘ida ilintirarmidi?

Royer de Annet miyig‘ida kulgancha uni tingladi va gap boshladidi:

– Ehtimol, siz haqdirsiz. Bu hol mening hayotimda ham sodir bo‘lgan. Bundan besh yil burun men yosh bir ayolni uchratdim, u meni hayaonga solgandi. Ayol qora-chadan kelgan, boshqalar kabi nozik bo‘lmasa-da, biroq xushbichim, silliq sochli va kipriklari qora ko‘zlariga tush-gan go‘zal edi. Nigohlari sirli, surat kabi jimgina tikilishi juda ajoyib edi. Uni ko‘riboq ko‘zlarimni uzolmay qoldim.

Uning qadam bosishlari latif bo‘lmasa-da, meni nimasi bilandir o‘ziga jalb etgandi. Uni ko‘rgan kunim, ayol Plesy de la Konkordida kareta to‘xtatgan va unga chiqmay bir muddat jim turib qolgandi. So‘ng menga qattiq tikildi, men bu nigohni hech qachon unutolmayman. Keyin uch haftacha faqat u haqda o‘yladim va asta-sekin jamolini xayolimdan chiqarishga urindim. Olti oy o‘tgach, men uni Rue de la Paiksda uchratib qoldim. Shunda ham uni birinchi ko‘rganim kabi qattiq hayajonlandim. Yaxshisi, uni kuza-tishga ahd qildim. U menga yaqin kelganda, o‘zimni qaynoq olov ichida turgandek his etdim. Yonimdan o‘tib ketgach esa tanim muzdek bo‘lib qoldi. Ortidan borolmadim. Biror ahmoqlik qilib qo‘yishdan, noqlay vaziyatga tushib qolishdan cho‘chidim. O‘zimdan qo‘rqdim.

U orzularimni o‘zi bilan olib ketgandi. Men ayolni mayning ilk kuni – quyosh botib, oqshom cho‘kkach – des Champs – Elzas avenyusida yolg‘iz kezayotganda yana bir bor uchratdim. Olovrang shafaq nurlarida Ark de Trimf inshooti mag‘rur qad rostlagan, oltinrang tuman esa hamma yoqni qoplagandi. Men bu safar uning ortidan poyladim, manzilini bilish uchun hamma narsaga tayyor edim. Ikki marta uni qo‘yib yubordim, biroq otashin tuyg‘ular meni tark etmadi, demak, bu gal ham mum tishlab qolish yaramaydi.

Ayol menga bir qur nazar tashladi va Rue de Presburg-dagi bir uyg‘a kirib ketdi. Men uni tashqarida ikki soatcha kutdim, biroq u chiqmadi. Men ayol haqida darvoza qorovulidan so‘radim. U esa yelka qisdi:

– Ehtimol, birortasini kiga mehmonga kelgandir...

Shu tariqa men uni yana sakkiz oy ko‘rmadim. Yanvarning izg‘irinli kunlarining birida Boulevard Malsherbez ko‘chasida sayr qilayotib, bir kimsaga urilib ketdim va bo‘xhasini qo‘lidan tushirib yubordim. Endi uzr so‘ramoq-

chi bo'lib turgandim hamki, birdan uni tanib qoldim: bu o'sha ayol edi!

Avvaliga hayrat va hayajondan qotib qoldim, so'ng uning bo'xhasini qaytararkanman, nima bo'lsa bo'lar, deb gap boshladim:

– Sizni turtib yuborganimdan judayam xijolatdaman, xonim. Bilasizmi, sizni ikki yildan beri g'oyibona taniyman, hurmat qilaman... Nihoyat, bugun o'zimni tanishtirishimga imkon tug'ildi. Shu paytgacha kimligingiz va qayerdaligingizni bilish uchun ko'p urindim. Bunday g'alati gaplarim uchun ma'zur tuting... Siz meni tanimaysiz. Is-mim Baron Rojer de Annet. Men... yomon niyatli kishi emasman, bunga hali o'zingiz amin bo'lasiz. Agar... agar hozir ketib qolsangiz, men tubsiz qiyonoqlar otashida qolib ketaman. Iltimos, iloji bo'lsa, siz bilan qanday uchrashishim mumkinligini aytangiz...

Ayol menga bir muddat hayron bo'lgancha tikilib turdi, so'ng jilmayib javob qaytardi:

– Menga manzilingizni bera qoling... o'zim sizni topib boraman.

Men o'z hayratimni yashira olmay quvondim. Lekin darrov aqlimni yig'ib olib, unga tashrif qog'ozimni tutqazdim. Ayol tezda uni cho'ntagiga yashirdi.

Men umid bilan pichirladim:

– Sizni ko'rishga qachon musharraf bo'laman?

U biroz ikkilanib turdi, keyin past ovozda javob berdi:

– Yakshanba tongi sizga ma'qulmi?

Men roziligidimni bildirdim.

U ketar ekan, menga o'sha sinovchan nigohlarini tikdi...

Yakshanbagacha tun-u kun faqat u haqida o'yladim. Bir qarorga kelib, unga taqinchoq xarid qildim. Bejirimgina qimmatbaho toshli uzukni qutichaga o'radim va

sabrsizlik ila mahbubamni kuta boshladim. Yakshanba tuni umuman uxlamacidim. Ertalab soat o'nda u jiddiy va xotirjam holda uyimga kirib keldi. Uning qo'llaridan tutar ekanman, go'yo ming yildan buyon tanishdek edim. Uni stulga taklif etib, bosh kiyimi va mo'ynali plashini ilgichga ilib qo'ydim. So'ng yana qo'llarini kaftimga oldim...

Eh, do'stlarim, men zavq bilan chiroyli kamzul va ko'k tasma taqqan bu ayolni kuzatardim. U juda yoqimtoy edi. Bir payt u ortiga o'girilganda mening ko'zlarim beixtiyor uning yelkalaridagi katta-katta qora dog'larga tushdi. U nima ekan? Men ularga qarab o'yga cho'mganimda, ayol birdan ko'zlarimga tikildi! Keyin men e'tiborimni chalg'itib, uning uzun kipriklari, ko'zları va qora sochlariga nazar tashladim. Biroq xayolim o'sha dog'larda edi. Ular menga „Ming bir kecha“dagi qo'rqinchli ruhni eslatardi. Unga sevgi izhor qiladigan paytim kelganda, mening ovozim chiqmay qoldi. U hammasini tushundi. Avvaliga araz bilan boqdi, so'ng mo'ynasini olib o'randi va sekin pichirladi:

– Bu yerga kelishim oson bo'limgandi...

Men unga hozir uzukni tuhfa etish payti, deb o'yladim, lekin u gapida davom etdi:

– Nima uchun meni chorladingiz, janob?

Men uyatdan sochlaringacha qizarib ketdim. U esa indamay uymni tark etdi.

Bu mening bor sarguzashtim. Eng yomoni shundaki, hozir ham uni telbalarcha sevaman. Biror ayolga ko'zim tushsa, doim uni izlayman. Hamma narsa uni eslatadi. U doimo men bilan birga, qalbimda yashab kelmoqda. Bu dunyoda bormi, yo'qmi, baribir, xayolan yonimda. Hozir ham u qayerdadir, menga yaqinroq biror joydadir... Uning yelkalaridagi tamg'a unga tumor bo'lsin. Qiziq, kim edi u?

Halgacha bilmayman. O'sha voqeadan so'ng uni bir-ikki marotaba uchratdim, biroq u o'zini tanimaganga olib ketib qoldi. Balki, ayol osiyolikdir. Ha, nazarimda, u yahudiy edi. Lekin nega u shunday bo'lib tug'ildi? Bilmayman, bilolmayman...

To'plangan do'stlarimning hech biri ishqiy sarguzashtlari haqida boshqa og'iz ochmadi...

---

---

## TO‘Y SOVG‘ASI

Jakkuiz Bordiller uylanmayman, deb ahd qilgandi. Bir-dan uning rejasi o‘zgardi. Bu hodisa birdaniga, yoz kun-la-rining birida dengiz bo‘yida sodir bo‘ldi. Bir kuni ertalab qumda toblanib yotganida, shu yerlik, suv bo‘yida turgan ayolning nozik va bejirim qadamlari erkakning e’tiborini tortdi. U qovog‘ini ko‘tarib, ko‘zlarini katta-katta ochdi. Qarshisidagi insondan hayratlandi. Hech nimani ko‘rmas, faqat ayolning to‘pig‘i va sochlari yumshoq ro‘mol bi-lan o‘ralgan boshinigina tomosha qilardi. Jakkuizning tuyg‘ulari uyg‘onib ketdi. Bunga sabab ayol nozik qadam-lar bilan xirom aylar va birinchi nigohdayoq odamni o‘ziga asir etardi. Erkak yosh ayolning yoqimtoy yuziga, yarashib turgan kulgichlari va dudoqlariga ilindi-qo‘ydi. U muhab-bat dardiga yo‘liqdi. Berti Lennisni uzun sarg‘ish qumloq ichida ko‘rganidayoq, kokillarining har bir tolasini ting-lagandek bo‘lgandi. U yaqinrog‘iga kelganda esa ayolga asta so‘zlagisi, hech bo‘lmasa u haqida o‘ylagisi, yuragi-ning har bir tepkisi uning bejirim quloqlariga eshitilishini judayam istadi. Nahotki, bu sevgi bo‘lsa? U buni bilmaydi va tushunmaydi, lekin farzandlarining onasi faqat shu ayol bo‘lishini istayotganini bilardi, xolos.

Ayolning ota-onasi uzoq ikkilanishdi, bu yosh erkak-ning o‘tmishini bilishmasdi. Jakkuizning aytishicha, uning yuragi toza, sadoqatga yo‘g‘rilgan qalbi sinishidan doim cho‘chir ekan...

Aslida-chi, aslida, erkak qanaqa edi? U qisqami, uzun-mi, har qanday suhbatda qarshisidagi ayolni sevib qola-verardi, dudoqlariga oshiq bo'lardi. Lekin keyinroq u bunday muhabbatdan afsuslanardi, boisi bu oddiy havas bo'lib chiqardi. Jakkuiz uzoq yillar birgina ayol bilan yashagan erkaklarni ko'rganda, ulardan hayratlanardi. Erkak avval uylangandi, sobiq xotinining moddiy ahvoldidan do'sti boxabar bo'lib turardi. Jakkuiz uni mablag' bilan ta'minlar, biroq xotinini boshqa ko'rishni ham, u haqida eshitishni ham istamasdi. Xotini unga xatlar yozar, sobiq er ularni ochmasdi ham. Har hafta erkak ayoldan mungli va ginali maktublar olar, shu zahotiyoy konverti bilan yirtib tashlardi. Hatto biror satriga ham ko'z yogurtirmasdi...

Jakuizni hali hech kim yaxshi bilmagani uchun qish bo'yi sinashdi. Bahorgacha Bertining turmushga chi-qishiga rozilik bermadilar. Nihoyat, ota-oni to'yni mayga belgilashdi, u Parijning so'lim go'shalaridan birida o'tka-zildi. Yosh juftlik an'anaviy to'y sayohatiga bormaslikka qaror qilishdi. Soat tungi o'n birgacha cho'zilgan raqsni yosh jiyanchalari yakunlashdi. Odatda, bunday kech tugaydigan to'y marosimlari odamni zeriktirib diqqat qiladi. Yangi oila tunni qizning ota-onasini kida o'tkazishdi, tongda esa plyajdag'i bu uyni dilgir yuraklar ila tark etishdi. Axir, bu yerda ikki qalb topishgan va eng baxtli lahzalarni o'tkazishgandi.

Kech tushdi. Juftlik yaqin oradagi kichkina yapon ijaxonasiga kirib kelishdi, bu yerda raqs avjida edi. Shipga ilingan katta rangli chiroqlar o'zidan ajib nur taratar, xuddi ulkan tuxumlarni eslatardi. Ochiq derazadan ufurayotgan toza havo esa ularning yuzlarini erkalardi. Tun osoyishta, bahor nafasi iliq edi. Sevishganlar jimgina bir-birlarining qo'lidan ushlagancha o'tirardilar. Ayolning ko'zları orzu-larga to'la, hayotida katta burilish yasagan bo'lsa-da, bun-

dan jilmayar, ba'zan yig'lab yuborishga tayyor, baxtdan o'zini yo'qotay der, go'yo butun dunyo o'zgarib ketgandek, yana o'zi ham tushunmas darajada butun tani va qalbi allaqanday noaniq va shirin tuyg'u iskanjasida edi. Erkak esa unga doimiy jilmayishini takrorlardi. U biror gap aytishni istar, biroq tiliga jo'yaliroq narsa kelmas, faqatgina jim o'tirib ayolning qo'lllarini silardi. Ba'zan esa „Berti!“ deya ilhomlanib sukunatni buzar, bu payt ayol unga ko'zlarini katta-katta ochib muloyim tikilardi. Ular bir necha soniya bir-birlariga qarab olgach, erkak uning go'zalligidan hushini yo'qotay derdi. Ular shu ko'yi o'tiraverdilar. Ba'zan raqs tushayotganlar sevishganlarga qarab qo'yishar, biroq ular jim va ishonch bilan o'tirardilar.

Eshik ochilib, xizmatchi kirib keldi. Uning patnisida hozirgina pochtachi keltirgan maktub bor edi. U to'g'ri Jakkuizning oldiga keldi. Erkak qo'llari titrab xatni oldi va birdan qo'rquvga tushdi. U ancha payt konvertga tikilib, ustiga nima yozilganini angolmay, xatni ochmay, o'qishga tobi kelmay turdi. Keyin kuch bilan uni cho'ntagiga soldi va o'ziga o'zi, ertagayoq bu yerdan ketaman uzoqlarga, deb pichirladi. Lekin xat chetidagi katta harflar bilan tagiga chizib qo'yilgan ikki so'z xayolidan ketmasdi: Shoshilinch xabar! Bu uni tashvishga soldi. So'ng „Uzr, azizim, bir daqiqa“, dedi-da, konvertni ochdi. Qog'ozni o'qib, qo'rquv bilan unga tikilib qoldi, har bir harfini hijjalab chiqdi. Erkak boshini changallab qoldi va pichirladi:

— Azizim, bu... bu mening yaqin do'stimdan ekan. Hozir katta muammoga duch kelibdi. Men unga juda kerakman, bu hayot-mamot masalasi. Seni yarim soatga xoli goldirsam, mendan ranjimaysanmi? Tez qaytaman.

Unga qo'shilib qayg'uga cho'mgan ayol esa dedi:

— Oh, azizim...

Bir kunlik rafiqasi uni so'roq qilishga iymandi. Erkak ketdi. Ayol bir o'zi raqsni kuzata boshladi.

Erkak qo'lida shlapasi va plashini ushlagancha, uchta zinani bitta qilib sakrab borardi. Ko'chaga chiqishi bilan vestibulda to'xtadi va xatni yana ochdi:

*„Janob, Ravet ismli ayol – aytishicha, sizni juda sevarkan – hozirgina farzandingizni dunyoga keltirdi. Ona ning ahvoli yomon va sizga iltijo qilmoqda. G'amga botgan ayolning so'nggi xohishini ijobat qilishingizni so'rab mak-tub yozishga qaror qildim. Hurmat bilan, doktor Bonnard“.*

Erkak shifoxonaga kirib kelganda, ayol chalajon yotgan ekan. Avvaliga erkak uni tanimadi. Doktor va hamshira uni ayolning yoniga olib borishdi. Atrof muz bo'laklari va qon lattalar bilan to'lgandi. Gilam suvgaga bo'kkagan, ikkita sham qoldig'i stolga yopishib qolgandi. Yotoqning yonida esa savatdan to'qilgan belanchakda chaqaloq yig'lardi. U onasiga talpinar, ming azob bilan qimirlashga urinar, titrardi.

Ayol mashaqqat chekib o'lim bilan olishardi. Shuncha muz bo'laklari va parvarishga qaramay, bir soatdan beri qon ketishi to'xtamasdi. U Jakkuz kelganini sezib, qo'llarini cho'zdi. Barmoqlari shunchalik ingichka ediki, bazo'r yuqoriga ko'tarildi. Biroq ko'zyoshlari yonoqlaridan shashqator bo'lib oqardi. Erkak tizzasini yotoqqa qo'ydi va ayolning qo'llaridan tutib o'pdi. So'ng asta uning ozg'in yuzi tomon yaqinlashdi. Hamshiralardan biri ularning yoniga shamdon qo'yib ketdi, doktor esa naridan kuzatib turdi. Ayol past tovushda gap boshladi:

— Men o'lyapman, azizim. Oxirigacha shu yerda bo'lishga so'z ber, ketib qolma, iltimos. Oh, so'nggi lahzalarda meni tark etma...

Erkak uning sochlaridan o'pib qo'ydi va pichirladi:

– Ko‘p qiynama o‘zingni, men shu yerdaman, ketmayman.

Ayol madorsizlikdan zo‘rg‘a gapini davom ettirdi:

– Bu bolakay sening surriyoding. Uni Xudodan chin qalbdan tilaganman. Mayli, o‘limim evaziga bo‘lsa ham... Hayotimda sendan o‘zgasini sevmaganman. Menga va’da ber: farzandimizga g‘amxo‘rlik qilaman deb...

Erkak uning bemajol tanasini ko‘tarishga urindi. Vijdon azobi va nadomat bilan shivirladi:

– Uni o‘zim ulg‘aytirishga va tarbiyalashga ont ichaman. Men o‘g‘limdan ayrilmayman.

Ayol tinchlanib, xotirjam dedi:

– Bolani qo‘lingga ol, uni sevishingni menga isbotla...

Erkak o‘rnidan turib, chaqaloqni ko‘tardi. Ehtiyotkorlik bilan uni o‘rtalariga qo‘ygach, bola yig‘lashdan to‘xtadi.

– Uni qo‘lingdan qo‘yma, – dedi ayol.

Erkak bir qo‘lida chaqaloqning barmoqchalarini, bir qo‘lida esa nozik ayolning bilagini ushlagancha jim o‘tirardi. Vaqt o‘tgan sayin u avval tungi o‘n ikki, so‘ng bir, ikkini ko‘rsatib bong urayotgan soatga qarab qo‘yardi. Hamshiralar ham stolda o‘tirgancha uxbab qolishgandi. Chaqaloq shirin uyquda, onasi esa ko‘zlarini yumib dam olishga harakat qilardi.

Birdan sukunat buzildi. Ayol bilagini erkakning qo‘lidan bo‘shatdi va tezlik bilan boladan nari surildi. Bo‘g‘zidan xirildoq tovush eshitildi va qotib qoldi.

Hamshira uyg‘ondi.

– Hammasi tugadi, – dedi afsus bilan.

Erkak bir paytlar qattiq sevgan ayoliga, keyin to‘rtini ko‘rsatib turgan soatga qaradi. So‘ng plashini ham unutib, qo‘liga bolani olgancha tezlik bilan tashqariga otildi.

Yosh ayol esa eri uni tark etgach, yaponcha uyda uni kutdi. Avvaliga tinchgina o‘tirdi, so‘ng kelavermagach,

pastga tushdi. Undan ranjiy boshladı. So'ng uyiga bordı. Onasi uning yolg'izligini ko'rgach, so'roqqa tutdi:

- Ering qayerda?
- Ijara xonamizda, hozir kelib qoladi.

Biror soatdan so'ng shubhalana boshlagan oila a'zolari uni o'rab olishdi. Ayol xat kelganini va erining g'amgin bo'lib chiqib ketganini aytib berdi. Ular kuta boshladilar. Yarim tunda kelin yosh to'kkancha o'rniga borib yotdi. Onasi va ikki xolasi yotog'i yonida o'tirgancha uni yupati-shardi. Otasi esa biror baxtsiz hodisa yuz bermaganligini surishtirish uchun politsiya mahkamasiga yo'l oldi. Soat tonggi beshlarda xo'lldan ovoz eshitildi. Ko'cha eshik ochilib-yopildi. So'ng jimlik cho'kkan uyni chaqaloqning yig'isi buzib yubordi. Ayollar Bertining xonasidan shol ro'molga o'rangancha chiqa boshladilar.

Jakkui xonaning o'rtasida turardi. Rangi o'chgan, bazo'r nafas olar va qo'lida go'dak ko'targandi. To'rt ayol unga hayrat bilan tikilishdi, lekin tezda o'zini qo'lga olgan Berti gap boshladı:

- Nima bo'ldi? Kim bu?
- Erkak unga nazar tashlab, qisqa javob qaytardi:
- Bu... bu mening farzandim, onasi hozirgina o'ldi.

U shunday deya titragan qo'llari bilan go'dakka imo qildi.

Berti hech nima demay bolani qo'liga oldi. Uni o'pib erkaladi va yoshli ko'zlarini eriga tikdi:

- Onasi o'ldi dedingmi?
- Ha... qo'llarimda jon berdi. Men u bilan yozda ajarashgan edim. Boshqa narsa bilmayman. Shifokor charqirib aytidi.

Berti pichirladi:

- O'zim unga ona bo'laman. Biz uni birga parvarish qilamiz...

---

## DO‘STIMNING OILASI

Men, nihoyat, o‘n besh yildan beri ko‘rishmagan do‘stim Simon Radevinni topdim. Bir vaqtlar u mening qadrli do‘stim edi. Shunchalar yaqin edikki, Simon mening o‘y-xayollarim, bosgan har qadamimni bilar, uzun va sokin oqshomlarda sevgi qissamni-da tinglardi. Biz bazo‘rgina ayrildik; chunki doim birga yashagan, birga orzularga berilgan, bir xil narsalarni xush ko‘rgan, bir nomdagи kitoblar mutolaa qilgan, yozuvchilarni birday tushungan, doim bir xil hodisalarga duch kelgan, bir paytda qah-qah otgan, nigohlarimizni bir zumda uqqan biz kabi do‘stlarning ayrilishi oson emasdi.

Keyin do‘stim uylandi. Ha, Parijga er izlab kelgan yosh bir qizga qo‘qqisdan uylana qoldi. Dunyoda shunaqangi ozg‘in va so‘lg‘in, chillashir bilakli va nursiz nigohli, ahmoqona tovushli va yuz yoshli qiyofaga ega bo‘lgan qizning mavjudligini ko‘rib o‘shanda hayratda qoldim. Aqli va odobli do‘stimning uning tuzog‘iga tushgani esa battar hayratlanarli edi. Simonning endi baxtli va uzoq hayot kechirishi amri mahol edi. U jo‘shqin va zavqqa to‘la hayotga intilib, so‘ng bari-baridan charchab qo‘l siltashni, haqiqatga tik qarab, hech nimaga qodir emasligini tan olishni orzu qilmagandi-ku?

Uni ko‘rsam, qay holatda bo‘larkin? Hamon quvnoq, aqli, toza yurakli, kuchga to‘lamikin yoki hayot oqimiga moslashib ketganmikin? Axir, o‘n besh yil hamma narsani o‘zgartirishga qodir muddat-ku!

Poyezd kichik bir bekatda to'xtadi, men yuklarim bilan tashqariga chiqdim. Qarshimda baquvvat, ha, juda baquvvat, qip-qizil yuzli va qorni katta erkak paydo bo'ldi va menga quchog'ini ochdi:

– Jorj!

U menga tanish tuyuldi, lekin eslay olmadim. Keyin hayrat bilan so'z qotdim:

– Axir, juda ozg'in eding-ku?

– Nimani kutganding? – kuldi u, – Yaxshi yashayapman, yaxshi ishlayapman, yaxshi orom olyapman axir! Yeyish va uqlash – mana hayotim mazmuni.

Unga yaqinlashib, yuziga yaxshilab tikildim: o'sha qadrli qiyofadan asar izladim. Ko'zлari o'sha-o'sha bo'lsada, undagi ifoda begona edi. „Ko'zlardagi ifoda tasviri miyadan uzatiladi. Bu miyadagi o'ylar esa menga doim ma'lum bo'lgan“, o'yladim men.

Ha, uning ko'zлari oldingidek jigarrang bo'lib, baxt va do'stlikka to'la edi. Ammo tiyrakligi yo'qolgan, aqlli ifoda ham ko'rinnmasdi. Birdan u xayollarimni buzdi:

– Bular mening farzandlarim.

Qizcha o'n to'rt yoshda bo'lib, katta ayollarga o'xshar, o'g'li esa o'n uch yashar edi. Ular menga ikkilanib yaqinlashishdi.

– Ular chindan senikimi? – pichirlab so'radim.

– Albatta, meniki-da!

– Nechta o'zi farzndlardan?

– Beshta! Uchtasi uyda qoldi.

U shunchalik g'urur, ishonch va g'oliblik tuyg'usi bilan gapirardiki, o'zimni juda nochor va g'arib his etdim. Biz do'stim haydar kelgan ulovga o'tirdik. Shaharchaga kirib borarkanmiz, ko'chalar jimjit, zerikarli va g'amgin ko'rindi ko'zimga. Uch-to'rt kuchukvachcha va oqsoch ayollarni aytmaganda, shahar kimsasiz edi. Do'kon sotuv-

chisi bizni ko‘rib bosh kiyimini yechib salomlashdi. Simon menga uning ismini aytgan bo‘ldi (u o‘zini hurmatlashlarini isbotlardi, menimcha). Do‘stim deputatlikka nomzodini qo‘yishni orzu qilardi. Shahar tugab, biz sun’iy bog‘ tomon kirib keldik. U ulovini kichik minorali qishloq uyi qarshisida to‘xtatdi.

– Mana, bu mening uyim, – dedi Simon.

– Mo‘jazgina ekan, – dedim o‘rni bo‘lgani uchun maqtab.

Chiroyli kiyingan bir ayol pillapoyadan tushib kela boshladi. Uning sochlari o‘n yil ilgarigidek och tusda emasdi. Metindek bu ayolning sochlari jingalak, besabr qadam tashlar, yoshini aniqlash mushkul bo‘lib, miyasi bo‘m-bo‘shligi yaqqol sezilib turardi. Qisqasi, u dag‘al va qo‘pol onaga o‘xshardi.

U men bilan salomlashdi va xollga – uch farzandining yoniga kirib ketdi.

– O, bu yerda ekan-da qolgan bolalaring? – hayqirdim men.

– Jin, Sofi va Gontran, – g‘urur bilan tanishtirdi Simon.

Mehmonxona eshigi ochiq ekan. Ichkariga kirib, o‘radek yumshoq stulda tebranib o‘tirgan keksa cholga ko‘zim tushdi. Radevin xonim yonimga kelib, bizni tanishtirdi:

– Bu mening bobom, monsinyor. Yoshi sakson yettida.

So‘ng qariyaning qulog‘iga baqirdi:

– Bu Simonning do‘sti!

Aftidan, chol menga xayrli kun tilamoqchiydi, biroq og‘zidan „xay... xay“ degan so‘zlar bazo‘r chiqdi. Uning qo‘lini siqdim va yoniga o‘tirdim:

– Iltifotingiz uchun rahmat, janob.

Xonaga Simon kirib keldi va kulgi aralash dedi:

– Bobom bilan tezda tanishib olibsan-da. U naq xazina ning o‘zi. Bolalarning ovunchog‘i. Biroq juda qizg‘anchiq-

da, ovqatlanishini bir ko'rsang edi. Ha, hali o'zing guvoh bo'lasan. Hamma shirinliklarga qizlarni ko'rgandek ko'z olaytiradi. Ko'rib ichaging uziladi hali.

Kiyimimni almashtirish uchun menga xonamni ko'rsa-tishdi. Bolalar xonamga kirgunimcha, ortimdan zimdan kuzatishdi.

Bir payt qo'ng'iroq chalindi: bu tushlikka chorlov edi. Radevin xonim meni oshxonaga boshladи. Meni qariyaning stuliga o'tqazishdi. Chol tushmagur desertga och va jiddiy nigholarini tikdi. Boshi silkinib turishiga qaramay, hamma taomni nazardan qochirmadi.

Simon qo'llarini bir-biriga ishqaladi.

– Hali hayron qolasan!

Ayol ham yelkalarini uchirib qo'ydi. Simon bobosiga so'z qotdi:

– Bugun shirin qaymoqli guruch tortiladi!

Cholning badqovoq yuzi birdan yorishib ketdi. Keyin sochidan to tirmog'iga qadar o'zining mammun ekanligini bildirdi. Tushlikni boshladik.

– Qarab tur, – Simon meni ogohlantirdi.

Chol sho'rvani yoqtirmas ekan, uni ichishdan voz kech-di. Garchi taom sog'lig'i uchun foydali bo'lsa-da, qoshiqni ushlashni ham xohlamadi. Shuning uchun xizmatchi qo-shiqni uning og'ziga majburlab kirgizdi. Jahli chiqqan qariya qarshilik qilgani uchun o'zi va yonidagilarning dasturxonini bulg'adi. Bolalar o'zlarini kulgidan to'xtatol-masdilar.

– U juda kulgili, to'g'rimi? – Simon oila a'zolariga gapirdi.

Butun tushlik davomida shu keksa bobo hammaning e'tibor markazida turdi. U dasturxonagi barcha yegulik-larga ochko'zlik bilan tikilar, qo'llari bilan ularni olishga harakat qilardi. U gapirmas, faqat og'zi, burni va ko'zları

harakatda edi. Bunday dahshatli manzarani esa oiladagilar quvonch bilan kuzatishardi.

Tushlik oxirida qaymoqli guruch ham keltirildi. Unga ko‘z tikkan bobosiga Gontran dedi:

– Sizga hozircha yetarli, boshqa yemay qo‘ya qoling.

Ular cholga boshqa narsa yeyishni taqiqladilar. Qariya bu gapdan yig‘lay boshladi. Bolalar esa kulishardi. Oxiri „taslim bo‘lishgan“ xonadon egalari cholga bir kesimgina shirinlik tutqazishdi. U ishtahasini namoyon etib, bor kuchini to‘plab desertga yopishди.

– Yana birozgina ber unga, – men bunga chidolmay Simondan so‘radim.

– Yo‘q, azizim, uning yoshida bu og‘irlik qiladi.

Tilimni tishlab qoldim. Mana madaniyat, mana mantiq, mana donolik! Ular cholning sog‘lig‘idan qayg‘urish-yaptimi o‘zi? Yoshida emish! Bir oyog‘i yerda, biri go‘rda bo‘lsa? Necha kunlik umri qoldiykin o‘zi? O‘n, yigirma, ellik, yuz kummi? Uning hayotida qiladigan boshqa ishi qolmagan. Uning birgina niyati shirinlik yeyish, to o‘limi-gacha unga buni taqiqlashsa kerak.

Ancha payt qarta o‘ynaganimizdan so‘ng men o‘z xonamga yo‘l oldim. O‘rnimda yotdim, judayam, judayam xafa edim. Derazadan tashqariga tikildim. Biror sas yo‘q. Faqat qayerdadir olisda qushlar sayrardi. Men do‘stimning bolalariga achindim. Keyin esa o‘zimni Simonning o‘rniga qo‘yib ko‘rdim – xurrak otayotgan beo‘xshov xotini bilan yashasam... Qo‘rqib ketdim!

## TAVBA

Margarita de Terel o‘lim to‘shagida yotardi. Uning yoshi ellik oltida bo‘lsa-da, ko‘rinishidan yetmish beshdan kam emasdi. Nafasi qaytib, yuzlari choyshabdek oqarib ketgan, seskanib-seskanib ketar, butun tanasi titrar, ko‘zлari esa bিror dahshatli narsani ko‘rgandek olazarak edi.

Uning opasi Suzanna undan olti yoshga katta bo‘lib, yotoq yonida tizzalab o‘tirgancha ko‘zyosh to‘kardi. Kichkina, ustiga dasturxon tashlangan stolda ikkita yonib bitgan sham qoldiqlari esa tezroq ruhoniy kelib, tavba-tazarru qildirishi lozimligiga ishora qilib turardi.

O‘lim yoqasida yotgan ayolning yotog‘ida ham xunuk tartibsizlik hukm surar: stol va polkalarda turli dori-darmon ko‘piklari, burchaklarda ishlatib tashlangan qo‘l sochiqlari sochilib yotardi. Stul va kreslolar esa xuddi qo‘rqib ketishgandek har tomonga surilib ketishardi. O‘lim sharpasi shu yaqin orada kezinar va egasini kutardi.

Bu opa-singilning taqdiri achinarli. Butun tuman shu haqda gapirgan, eshitganlar ko‘zyosh ham to‘kishgan. Kattasi – Suzanna bir vaqtlar yosh bir yigit bilan sevishgan, hatto unashtirilgan edilar. To‘y kuni ham belgilangan, biroq to‘satdan Andi le Sampyerning bevaqt o‘limi ularni ayirgandi. Kuchli qayg‘uda qolgan qiz hech qachon turmushga chiqmaslikka ahd qilgan. U so‘zida turdi. Bevalik libosini egnidan yechmadi, doimo qora ko‘ylakda o‘tirardi.

Bir kuni ertalab singlisi, o'n ikki yashar Margarita opasini quchdi va dedi:

– Opajon, sizning baxtsiz bo'lishingizni istamayman. Bir umr yig'lab o'tishingizni ham xohlamayman. Hech qachon, sirayam sizni tashlab ketmayman. Menam turmushga chiqmayman. Siz bilan bir umr birga qolaman.

Suzanna singlisining hayajonli gaplaridan ta'sirlanib uni o'pib qo'ysa-da, biroq gaplariga ishonmagandi. Ammo singlisi gapida turdi. Ota-onasining nasihatlari, opasining iltijolari kor qilmadi: erga tegmadi. U juda go'zal edi, ko'pchilik yosh yigitlarning aqlini olgandi, lekin qiz barini rad etar, opasini tashlab ketmasdi.

Opa-singil bir umr birga yashashdi, ayrilishmadi. Tushgan yo'llaridan birma-bir qadam bosib o'tdilar. Margarita opasiga nisbatan doim g'amgin yurar, biroz qattiq-qo'l edi. Shuning uchunmi opasidan ko'ra tez qaridi, o'ttiz yil davomida dilini ezib kelgan bir sir tufayli ham shunday kechdi uning taqdiri.

Mana, u dunyoni birinchi bo'lib tark etyapti.

Bir sutkadan beri Margarita gapirmsasdi. Tongda u ni-hoyat tilga kirdi:

– Ruhoniyni chaqiringlar, vaqt bo'ldi, – dedi u quruq-shagan lablarini bazo'r qimirlatib. Uning ko'zlarida alla-qanday qo'rqinch bor edi.

Opasi choyshabning bir chetiga o'tirib, yuragi ezilib yig'lar, bir so'zni takrorlardi:

– Margo, jigarim mening, mittiginam!

Opasi uni doim mittiginam deb erkalardi. Singlisi esa opajon derdi.

Zinadan qadam tovushlari eshitildi. Eshik ochilib, xiz-matchi bolakay ko'rindi. Uning ortidan esa kimxob ki-yimdag'i ruhoniyl kirib keldi. Ruhoniyni ko'rib, Margarita

amallab qo'zg'aldi, gapishtiga bazo'r shaylandi, oyog'ini o'rab turgan choyshabni irg'itdi.

Abbat Simon uning yoniga kelib, qo'llaridan tutdi, peshonasidan o'pib mayin so'zladi:

– Egam seni afv etgay, bo'tam. To'g'riso'z bo'ling, gapishtingiz mumkin.

Shu payt Margarita haqiqatni aytishga chog'lanib o'rni-dan jildi. Butun yotoq qimirlab ketdi go'yo. U tilga kirdi:

– Opajon, yonimga o'tiring va tinglang...

Ruhoni Suzanna tomon o'girildi va unga joy ajratdi. O'zi esa kresloga cho'kib, ikki ayolning ham qo'llaridan tutdi:

– E Yaratgan egam! Ularga kuch-quvvat ber, marhamatingni ayama.

Margarita xirillagan tovushda gapirar, xuddi ovozi hozir o'chib qoladigandek edi.

– Meni kechiring, kechiring, opajon! O, agar bilsayingiz, bu paytning kelishidan naqadar qo'rqib yashaganimni...

Suzanna ko'zidagi yoshni artib so'radi:

– Seni nega kechiray, mittiginam? Sen menga o'zingni baxsh etding, baridan kechding. Sen farishtasan...

Margarita uni to'xtatdi:

– Jim! Aytishimga imkon bering... gapimni bo'lmang. Qo'rqinchli... hammasini aytib olay. Oxirigacha... shoshmang... tinglang... siz eslaysiz... Anrini eslaysiz-a?...

Suzanna hayron bo'lib singlisiga tikildi.

– Eshiting, shunda tushunib olasiz. Men o'shanda atigi o'n ikki yoshda edim. Esingizda-ku, to'g'rimi? Meni rosa erkalatishardi. U uyimizga birinchi marta kelgani-da, loklangan etikda edi; tulporidan sakrab tushdi, kiyimi uchun uzr so'rab, otamga bir xabar yetkazishi lozimligi-

ni aytdi. Bular esingizda, to‘g‘rimi? Jim... tinglang. Uni ilk bor ko‘rganimda ko‘rkamligidan toshdek qotgandim. U otam bilan gaplashib bo‘lguncha xonaning bir burchida turib undan ko‘zimni uzolmay qolganman. Bolalar juda g‘alati xalq, hatto qo‘rinchli... O, uni qanchalar orzulardim! U yana keldi. Uni bor nigohlarim, bor qalbim bilan kuzatardim... Yoshimdan ko‘ra tez ulg‘ayib qolgandim. Ko‘ringanimdan ko‘ra esa ancha ayyor ham edim. U tez-tez kela boshladi. Faqat u haqda o‘ylardim. O‘zimga o‘zim shivirlardim: „Anri... Anri de Sampyer!“<sup>1</sup>

Keyin esa uning sizga uylanmoqchiliginı aytishdi. Oh, opajon, bu so‘zlar menga tij‘deq qadaldi! Yondirdi! Uch kecha uxlamay yig‘lab chiqdim. U har kuni nonushtadan so‘ng uyimizga kelardi, esingizdam? Gapimni bo‘lmang, eshiting... Siz Anriga atab u yoqtiradigan pirojniylarni tayyorlardingiz: un, yog‘ va sutdan. O, men ham pishirishni bilardim buni. Kerak bo‘lsa, hozir ham pishirolaman. Anri pirojniylardan tatib ko‘rarkan, qo‘lidagi vinodan ho‘plab, „A’lo darajada!“, deb maqtardi. Esingizdam shu gaplari? Rashk qilardim, rashk! To‘y kuni ham yaqinlashib qolgandi. Ikki haftagini qoluvdi. Men aqldan ozdim. „U Suzannaga uylanmaydi, yo‘q, buni istamayman. Katta bo‘lsam, u faqatgina menga uylanadi. Hayotimda undan boshqasini bu qadar qattiq sevolmayman...“, derdim xayolan.

Ammo bir kuni kechasi, to‘yga o‘n kun qolganida, siz oy yog‘dusida u bilan sayr qilishga chiqib ketdingiz... u yerda katta qoraqarag‘ay bor edi... U sizni daraxt tagida quchib qo‘llaringizdan tutdi va uzoq bo‘sса oldi. Buni yaxshi eslaysiz. Axir, bu sizlarning ilk bo‘sangiz edi... Ha, uyg‘a qaytganingizda hayajondan oqarib ketgandingiz! Sizlar-

---

<sup>1</sup> „Anri... Sampyerlik! Anri!“. (fra.)

ni bog‘da kuzatib turgandim. Quturgancha ortga qaytdim. Qo‘limdan kelsa, sizlarni o‘ldirishga ham tayyor edim! O‘zimga dedim: „U Suzannaga uylanmaydi. Ular oila qurisholmaydi. Bu baxtsizlikni ko‘tara olmayman“. Qalbimda chuqur hasad uyg‘ondi. Keyin, bilasizmi nima qildim? Tinglang... Bog‘bonimiz quturgan itlar uchun zahar tayyorlashini ko‘rib qolgandim. U shisha butilkani sindirib, maydalab, go‘shtli qiymaga qo‘shardi. Onamning dori shishasini oldim va uni maydaladim. Zarrali, yaltiroq kukun hosil bo‘ldi. Ertasiga esa siz pirojniy tayyorlayotganingizda, men bildirmay kukunni xamirga qo‘shib yubordim. U pirojniydan uch dona yedi... siz esa bitta. Qolgan oltitasini esa hovuzga tashlab yubordim... O‘shanda ikkita oqqushimiz o‘lib qolgandi, esingizdam? Jim bo‘ling... faqat tinglang. O‘shanda mengina qotil pirojniylardan yemadim, ammo bir umrlik azobni orttirib oldim. U o‘ldi... bilasiz. Tinglang... bu hali hammasi emas... keyin... har doim... qo‘rqinchli edi. Butun hayotim buzilib ketdi. O‘zimga so‘z berdim: „Bir umr opamning yonida bo‘laman va so‘nggi ondagina haqiqatni so‘zlab beraman.“ Ha, bu daqiqalarni doim o‘ylab yashardim. Qarshingizda aybimni tan olish onlarini... Vaqt bo‘ldi. Qo‘rqib ketyapman... opajon!

Erta-yu kech, tun va tongda shu haqda o‘ylardim: vaqtি kelsa, unga iqror bo‘lishim kerak... Kudim. Oh, bu azob iskanjas! Mana, endi barini bilasiz. Jim! Gapirmang. Men qo‘rqib ketyapman! Narigi dunyoda u bilan yuzlashsam, o‘ylab ko‘ring-a? Axir, uni sizdan avval men ko‘raman. Istamasam-da shunday bo‘ladi. O‘lyapman... Kechiring meni, kechiring!... Siz afv etmasangiz, uning ko‘zlariga qaray olmayman. Ayting unga, janob ruhoniy, meni kechirsin... iltimos. Bo‘lmasa, o‘lolmayman...

U og‘ir nafas olib titradi va oyoqlari bilan choyshabni timdalay boshladi.

Suzanna esa qo‘llari bilan yuzini yopib olgan, qimir etmasdi. U Anri haqida, uzoq davom etishi mumkin bo‘lgan muhabbatи haqida o‘ylardi. Qanday go‘zal hayot kechirishlari mumkin edi-ya? Eh, qadrdon marhumlar! Ular qalbimizni naqadar qiynaydilar. Ilk va yagona bo‘sа-chi! Ayol buni yuragida asrab keldi. Bu bo‘sа so‘nggisi bo‘lib qoldi.

Birdan ruhoniy baland ovozda hayqirdi:

– Suzanna xonim, singlingiz jon beryapti!

Shunda Suzanna qo‘lini yuzidan tushirib, singlisini quchib o‘pdi va shivirladi:

– Seni kechiraman, mittiginam...

---

## MARHUMANING SIRLI SEVGISI

Ayol hech qanday og'riqsiz, tinch, xuddi hayotidan rozi bo'lib ko'z yumgan bekadek jon berdi. U hozir o'z yotog'ida, osmonga qarab yotgancha, ko'zlari yumuq va xushbichim yuzida tinchlik zohirlangan, uzun oq sochlari esa o'limidan o'n daqiqa oldin taralib, tartibga solingandi. Marhumaning chehrasida aks etgan ifoda shunday tartibili, sokin va itoatkor ediki, ko'rgan odam uning naqadar pok ko'ngil bilan yashaganiga amin bo'lar, joni qiyalmay chiqibdi, degan xayolga borardi.

Yotoq yonida tiz cho'kkancha o'z qat'iy fikrlarida sobit turuvchi sudya o'g'li va rohiba Eulali opa nomi bilan tanilgan qizi yuraklari buzilib yig'lab o'tirishardi. Ayol farzandlarini bolaligidan yuvib-taragan, qonunlar bilan qurollantirgan, diniy saboqlardan ta'lim bergandi. Bu yu-mushlarni u hech qanday kamchiliksiz, majburiyatsiz va isnod keltirmaydigan qilib bajarardi. O'g'il sudya bo'lib yetishdi, qonunni o'ziga qurol qilib olgan erkak zarra achinmay bechoralarning kunini ko'rsatardi. Qiz esa qat-tiqqo'l oilasining o'rgangan diniy mezonlari ta'sirida cherkov rohibasiga aylandi, asli o'zining ham erkaklarga hushi yo'q edi.

Farzandlar otalari haqida deyarli hech nima bilishmaydi. Faqat u kishi onasini baxtsiz qilganligidan boxabarlar, onasi bu haqda hech gapirmagan.

Qiz marhumaning qo'llarini ushladi, fil suyagidek op-poq bilak yotoq bo'ylab chormixga tortilgandek cho'zilib yotar edi. Narigi bilagi esa karavotning adyolini mahkam siqib olgan, adyol esa ayolning bajargan so'nggi haraktlariqa yagona guvoh edi.

Eshik yonidagi chiroq yonganini ko'rishib, ikki juft qizargan ko'zlar o'sha tomonga qarashdi. Avliyo ota tushlikdan endigina qaytib kelgandi. U qizil ro'dapo kiygan, oshqozoni qiyin hazm qilayotgandek og'ir nafas chiqarardi. Chunki u tushligida achchiq qahva va brendini bir necha bedor tunlarning o'rmini qoplab kuch bo'lishi, shuningdek, uyqusini yozish uchun ichib olgandi.

Avliyo ota xafaroq ko'rinardi. U qo'lidagi xochga bir cho'qinib olgach, odatiy salobatli so'zları bilan ularga ya-qinlasha boshladi.

– Xo'sh, mening bechora bolalarim! G'amazingizni aritishga yordam berish uchun yoningizda hozir bo'ldim.

Biroq Eulali opa uning gapini bo'ldi:

– Rahmat, ota. Lekin biz akam bilan onamning yonida biroz yolg'iz qolmoqchi edik. Boshqa uni ko'rolmaymiz, bu so'nggi vidolashuv... axir, biz uchalamiz... kichkina oila bo'lsak-da... oh, munis onajonim...

U achchiq va qaynoq ko'zyoshlarini tiya olmay gapi-dan to'xtab qoldi.

Avliyo ota bamaylixotir engashgancha uyqu haqida o'ylar ekan, dedi:

– Siz nima desangiz shu, bolalarim. – U yana bir bor cho'qinib tilovat qilib olgach, pichirlagancha chiqib ket-di. – U tabarruk ayol edi.

Ular yana yolg'iz qolishdi. Sukunatni faqat soatning chiqillashi-yu, deraza ortidagi shamolning g'uvullashi bu-zardi. Ochiq deraza tashqarisidan somon va daraxtlarning

isi kelib turar, oy ham bu xonadonga mo'ralab qo'yardi. Qurbaqanining qurullahidan boshqa hech qanday jonzotning tovushi kelmasdi. Cheksiz sukut, ilohiy ma'yuslik, so'zsiz osoyishtalik ayolni bor vujudi bilan qamrab olgan, go'yo nafasiga aylangan va uni tinchlik og'ushiga cho'mdirgandi.

Tiz cho'kib o'tirgan o'g'il boshini choyshabga burkab olgancha hamon yig'lardi.

– Ona, onajonim...

Qiz esa ma'nosiz ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha titrar, ba'zan sapchib tushar, qaltiroq bosgancha bir nimalarni qaytarardi. Ularning har ikkisi ham dardning zo'ridan jaza-vaga tushgandilar.

To'fon asta tingandek, vaqt o'tgan sari farzandlar ham o'zlariga kela boshladilar: ko'zyoshlar qurib, yuraklari bir tekisda ura boshladi. Onalarining o'limiga ko'nikkach, ular xotiralarga berilishdi: o'tmishning shirin xotiralari bugun azobli yodga aylangandi. Farzandlar birin-ketin unutilayozgan voqealarning ipidan ignasigacha xotirladilar. Ushbu qadrdon voqealar zamirida ularni tashlab ketgan insonning siymosi-da bor edi. Aka-singil bir-biriga to'lib-toshib tafsilotlarni aytishar, kulishar, ehtirosga berilishardi. Oxirgi bor ham ular onalarini tinch va sokin holatdaligiga guvoh bo'lishdi. Bolalar onasi aytgan har bir gapni, qo'l harakatlarini, muhim narsalarni alohida urg'u bilan so'zlashini yodga olishar va eng asosiysi, onalarini behad sevganliklarini ich-ichlaridan tan olishshardi. O'z g'amlarining chuqurligini o'lchagandek, endi ular onalarisiz qanday yolg'izlik ummonida qolganliklarini chamalashardi.

Ona ularning tirkagi, yo'lboshchisi, yoshligi, hayotlaridagi eng baxtli onlarning guvoysi ekan.

Bir payt singil akasiga so‘z qotdi:

— Esingdami, onamiz o‘zining eski maktublarini qayta-qayta o‘qishni xush ko‘rardi. Ularning hammasi tortmaning ichida turibdi. Doim ularga qiziqardik, kel, olib o‘qib ko‘ramiz. Axir, tun hali uzun. Balki, ularni biz umuman ko‘rmagan bobo-buvilarimiz bitgandir.

Tortma ichidan ular o‘ntacha kichkina sariq paketlarni topishdi. Ular o‘ta tartib bilan joylashtirilgandi. Maktublarni yotog‘ga qo‘ygach, ularning orasidan „otam“ deb yozilganini ochdilar. Maktub eskicha uslubda yozilgan bo‘lib, o‘tgan asrnikiga o‘xshardi. Ilk so‘zları esa „Mening aziz bolajonim“, „Mening kichkinagini qizalog‘im“ kabi jumlalar ila boshlangandi. Qiz xatni ovoz chiqarib o‘qiy boshladı, unda onaning yoshlik xotiralari, beg‘ubor damlari aks etgandi. O‘g‘il esa tirsagini yotog‘ga tirab, onasiga xayoliy tikilgancha singlisini tinglardi. Jonsiz tana hamon baxtli ko‘rinardi. Eulali opa birdan o‘qishdan to‘xtab gap boshladı:

Maktublarni onam bilan birga ko‘mish lozim, ular unga kafandan ham muhimroq, balki.

Singlisi boshqa bir maktubni qo‘liga oldi. Unga nom qo‘yilmagandi, ayol tiniq ovozda o‘qiy ketdi:

„Aziz yorim, seni telbalarcha sevaman. Kechadan beri azobning og‘ir iskanjasida qoldim, xotiralar qiyndi. Sening ko‘zlarining, lablaringni, nafasingni his qilgandek bo‘ldim. Seni sevaman, sevaman! Meni telba qilayozding. Mening qo‘llarim ochiq, bu qiynoq qa‘ridan chiqib, sening yoningga borishga har on tayyorman. Bor vujudim va qalbim senga talpinib yig‘lamoqda...“

Sudya o‘rnidan turib ketdi. Rohiba o‘qishdan to‘xtadi. Aka undan maktubni yulqib oldi va imzoga qaradi. Imzo chekilmagandi, biroq oxiriga „seni sevuvchi inson Genri“ deyilgandi. Otalarining ismi Rene edi. Demak, maktub ota-

sidan emas. Erkak darrov boshqa nomsiz maktubga ko‘z yogurtirdi: „*Sensiz yashashga ortiq bardoshim qolmadi*“. Jo‘natilmagan maktub!

O‘g‘il tik qotgancha, o‘rindiqqa cho‘kdi va onasiga tikilib qoldi. Rohiba esa haykaldek qotgancha, ko‘zlaridan yosh dumalardi. Sudya deraza tomon yurdi va qorong‘ilik-dagi bir nuqtaga tikelgancha qotib qoldi. Ortiga o‘girilganda, singlisining ko‘zyoshlari tingan, yotoq yonida o‘tirardi. So‘ng, ular barcha maktublarni avvalgidek qilib tortmaga joylab qo‘ydilar. Keyin yotoqning darpardalarini yopib qo‘yishdi.

Kun yorisha boshlagach, o‘g‘il o‘rnidan turdi va onasi-ga qaramay eshik tomon yo‘naldi:

– Endi keta qolaylik, singlim...

---

---

## SO‘QIRNIG QISMATI

Quyosh bizga naqadar zavq berishini bilasizmi?! U asta uyqudan bosh ko‘tarishi bilan odamlarda yashashga bo‘lgan ishtiyoq uyg‘ona boshlaydi! Osmon butunlay ko‘m-ko‘k, keng dalalar yam-yashil, uylarimiz esa oppoq. Ko‘zlarimiz ana shu kamalak ranglardan suv ichib atrofga teran nazar tashlaydi. Yuragingizda bahor barq uralib, raqs tushgingiz, yuguringiz, kuylagingiz keladi... Bularning hammasi quyosh tufayli.

Ko‘zi ojiz odamlar chiqish eshigi yonida o‘zining o‘rganib qolgan qorong‘i hayoti ichida tinchgina o‘tirar, atrof bilan ishlari yo‘q, nimalar sodir bo‘layotgani bilan qiziqmas ham edilar. Kun adog‘iga yetgach, ko‘rlar yosh ukalari yoki mitti singillari tomonidan ergashtirilgancha olib ketilardi. Agar bolakaylor „Bugun qanday chiroyli kun bo‘ldi-ya“, deb aystsalar, ko‘zi ojizlar, „Men ham buni his qildim, Loulo hech tinch o‘tirmadi“, deb javob qaytarardilar. Men ulardan birining hayoti g‘oyat azob va qiyinchilikda o‘tganini bilardim, buni hatto tasavvur qilish ham qiyin.

U past tabaqa – dehqonlar toifasidan chiqqan, otasi esa oddiy norman fermeri edi. Bolaga ota-onasi tomonidan ozmi-ko‘pmi g‘amxo‘rlik qilinar, u o‘zining azobli ojizligini shu tufayli biroz unutar edi. Ular dunyodan o‘tib ketishgach, qo‘rquvning ayanchli chinqirig‘i uni ta’qib qila boshladi. Endi u singlisining qo‘liga qarab qoldi. Fer-

madagilar unga boshqalarning nonini yeydigan gadoydek ijirg'anib qarashardi. Ovqatlanish payti yeyotgan har bir luqmasi unga minglab ta'nali boqishlar keltirar edi. Uni „tekinxo'r“, „masxaraboz“ deb atashar, hatto singlisining eri ham unga istamaygina sho'rva berar, ochdan o'lmasligiga yetarli bo'lsa bo'ldi, derdi. So'qirning yuzi bechorahol, bir juft katta ko'zлari esa muhrni eslatardi. Uni qancha yerga ursalar ham miq etmas, odamlar ko'rning nimani his qilishi bilan ishlari yo'q edi. Shunday qilib, u hayotda birovdan mehr ko'rmadi. Onasi unga doim bemehrlik bilan boqar, deyarli parvarish qilmas edi. Qishloq joyda qo'lidan ish kelmaydiganlarga keraksiz odam sifatida qaralardi, dehqonlar orasida bunday odamlar yo'q bo'lib ketsa, ular bundan, albatta, mammun bo'lishardi.

Nihoyat, ko'r sho'rvasini ichib bo'lgach, eshik ostonasiga borib o'tirdi. Yozda u shu yerda, qishda esa kamin yonida o'tirardi. Har kungidek u qimir etmasdi. Uning biror yeri ham qimirlamasdi, faqat ko'zining qovoqlari ba'zan biror asabiy harakatdan uchib tushar, ojiz ko'zlarini yumib olardi. Unda biror narsaga layoqat, qiziqish, ehtimolki, iqtidor bor edimi? Buni hech kim so'ramagan. Lekin uning ishga bo'lgan uquvsizligi qarindoshlari tomonidan ko'rga oddiy buyum sifatida qaralishiga sabab bo'lardi: xuddi katta bochka yoki yovvoyi biror jonzot kabi. Uning so'qirligi haqida bo'ladigan achchiq latifalarni-ku qo'yavering. Ular biroz miriqish ilinjida ovqatlanish paytida ko'rning ovqatini birma-bir xontaxta bo'ylab soatlab aylantirib chiqishardi. Qo'shni uylardagi ba'zi dehqonlar ham bu „tomosha“ni ko'rgani mo'ralab o'tishar, bu qiziq voqeа eshikma-eshik kezib yurardi, shuning uchun oshxona har kuni yemakxo'rlardan ham ko'ra, tomoshabinlarga to'la bo'lardi. Ba'zan odamlar u ovqatlanishidan oldin tovog'iga biror kuchuk yoki

mushukni solib qo'yishardi. Jonivor ham ichki sezgisi bilan qarshisidagi odamning nogironligini sezar va beozorlik bilan qochib qolardi. Odamlar esa atayin chapillab ovqatlarini yeyishga tushishardi. Devorga tizilishgan tomoshabinlar esa bundan maroqlanib, bir-birlarini tirsaklari bilan turtib kulishar, oyoqlari bilan yernidepsishardi. Ko'r bo'lsa indamay taomini o'ng qo'li bilan yeyishga tutinar, chap qo'li bilan esa tovog'ini begonalardan „himoya qilardi“. Boshqa payt esa ular ko'rni po'kak, daraxt po'stlog'i, barg yoki loy yeyishga majbur qilishar, chunki u bularning farqiga bormasdi. Nihoyat, dehqonlar bu kabi qiliqlardan zerikishar, pochchasi ham unga qarashdan bezib borardi.

Shunday qilib, dehqonlar, xizmatchi qizlar, hatto duch kelgan notanish ham uni turtib o'tadigan bo'lgan, bunday payt ko'rning kipriklari nozik titrab ketardi. Ko'r o'zini qayerga yashirishni bilmas, odamlar unga yaqinlashmasligi uchun qo'llari bilan o'zini to'sardi. Bular ish bermagach, u yolvorishga o'tardi.

So'qir bugun katta ko'chaning bir yeridan joy oldi. Qadam tovushlarini yoki transportning shovqinini eshitgach, shlapasini qo'liga oldi va duduqlangancha so'z qotdi:

— Menga ehson qilinglar, o'tinaman...

Biroq yo'lovchi dehqonlar saxovatli emasdi, buning ustiga ko'r hali u bergen su'ni qaytarmagandi.

Bu qish hamma yoq qor bilan qoplandi, sovuqning zahri qattiq bo'ldi. Pochchasi ko'rni katta ko'chadan uzoqroqqa olib chiqdi: u bu yerda bemalol tilanchilik qilishi mumkin edi. U ko'chada kun bo'yi qolib ketdi. Tun kirgach, pochchasi uyidagilarga ko'rni yo'qotib qo'yganini aytib, qo'shimcha qildi:

---

<sup>1</sup> Su – fransuz chaqasi.

– Uf, yaxshisi, undan xavotirlanmaylik! Uni kimdir topib olgandir. Siqilmanglar, u yo‘qolmagan. Ertaga ovqat yeyish uchun ham qaytib keladi.

Lekin ko‘r ertasiga qaytmadi. U o‘sha kuni soatlab kutdi, ichigacha muzlab ketdi. O‘zini hozir o‘lib qolsam kerak, deb o‘yladi, isinish uchun yura boshladi. Ming urinmasin, kelgan yo‘lini topa olmadi. Majburan yo‘g‘on sumalakni ermak qilgancha tavakkaliga ketaverdi. Chuqurchalarga tushib ketar, lekin o‘rnidan turgancha sas chiqarmay olg‘a intilaverardi. Umidi – yo‘lidan biror boshpana chiqib qolishi edi. Borgan sari qor kuchayib uni qotirib qo‘ydi, ko‘r tanasini sezmay qolgan, oyoqlari uni ko‘tarolmay qiyinalardi. Shuning uchun u o‘tirib qoldi va qaytib turmadı. Pag‘alab yog‘ayotgan qor uning yotishiga bir enlik ham joy qoldirmasdi. Ko‘rning qarindoshlari uning topilishiga umid qilib, bir haftacha izlashdi. Natijada, uning qadam izlarini topishdi. Qish uzoq davom etdi, qorlar ham eriy demasdi. Nihoyat, yakshanba kuni dehqonlar naryoqdagi ochiq dala-da quzg‘unlar gala bo‘lib aylanayotganligiga e’tibor berishdi. Keyin sharros yomg‘ir quyди. Kelasi hafta ham qushlar o‘sha yerdan ketishmadi. Ular ufq tomondan uchib kelgan turli-tuman qushlar bo‘lib, uzoqdan xuddi oppoq matodagi qora yamojni eslatardilar. Bunga qiziqqan bir guruh odamlar o‘sha joyga yo‘l olishdi. Va u yerdan yarmi qarg‘alarga yem bo‘lgan jasad topishdi. Ko‘zlari ham o‘yib yeyliman bu jonsiz tana, ko‘rniki edi.

Shundan so‘ng men quyoshning nurlaridan zavq olmay qo‘ydim, chunki quyoshga intilgan so‘qirning xotiralari meni tinch qo‘ymasdi. Uni taniganlar biladi: inson uchun, u kim bo‘lishidan qat’i nazar bu, dahshatli yakun edi.

## JAHL CHIQSA, AQL KETAR

Hali teatr tomoshasi oxiriga yetmasdanoq mashhur journalist va teatr tanqidchisi odamlar oldidan o'tib, tashqari ga qarab yurdi. Tomoshabinlarga teatrda namoyish etilgan spektakl juda ham yoqqan edi. Bu haqda Artur Rozenberger mashinaga o'tirib tahririyatga ketmoqchi bo'lib turgan paytda yana bir bora odamlar og'zidan eshitdi.

– Bu asar yaxshi, ammo bosh rolni o'ynagan Jens Xanno buni qoyil qila olmadi, – deb qo'ydi Rozenberger.

Rozenberger tug'ma qobiliyat sohibi, shuning uchun ham u mashhur. Uning tanqidlari juda o'tkir bo'lib, omma ga teatr tomoshasi qanday yoqqan bo'lsa, uning tanqidlari xuddi shunday yoqar edi. Bu safar Xanno uning o'tkir va qahrli tanqidiga duchor bo'ldi. U Xannoga bu masxara bozlikni bas qilib, boshqa kasbning etagini tutishni maslahat berdi, chunki u bu safar haqiqatdan ham rolni juda yomon o'ynagan edi.

Ertasi kuni uni Xanning menejeri Bernd Droste oldiga chaqirdi va shunday dedi:

– Jens sizning tanqidingizni gazetadan o'qib, adoyi tamom bo'ldi. Uni bunday ahvolda hech ham ko'rmagan edim. Men uni anchadan beri bilaman. Xanno haqida bunday yozishga qanday jur'at etdingiz! Balki, hech nima sodir bo'lmas, lekin men endi u nima qilishi kerakligini bilmayman. Nima uchun siz u haqda shunday ahmoqona

tanqidni yozganingizga tushuna olmayapman. Xanno juda ham xafa. Hatto u hozirgi paytda hech kim bilan gaplashmayapti.

Rozenberger Bernd Drosteni anchadan beri bilishiga qaramasdan, u bilan tanqid haqida bahslashishni istamadi. So'ngra u xayrlashib chiqib ketdi.

Kechki payt Rozenberger uyida kichkinagina ziyoft uyushtirdi. Tungi soat o'n birlarda mehmonlar uylariga ketishdi. Rozenberger ularni ko'chagacha kuzatib qo'ydi. U xonasiga qaytib kelganida xona eshigi lang ochiq turar, Xanno bo'lsa dam olib o'tirar edi.

U g'azab bilan kulib qo'ydi. Uning kulgisi Rozenbergerga yoqmadidi. U bezovtalana boshladi.

– Janob Rozenberger, har doim ham mehmonlaringizga shunday muomalada bo'lasizmi? – so'radi Xanno. – Menga ichishga biror narsa taklif qilmaysizmi? Uzoqdan kelganman, charchaganman, bundan tashqari juda sovqotyapman.

Rozenberger xona eshigi tomon bordi-da, eshikni ochib, Xannoga tashqarini ko'rsatib:

– Hoziroq bu yerdan yo'qoling! – dedi.

Xanno sekin o'rnidan turib, Rozenbergerning so'zlariga qulq ham solmay, mehmonlar yeb tugatmagan totli yeguliklar turgan stol tomonga bordi. Salatlar, go'sht, non, kulcha non, pishloq va yana u yerda buzoq go'shti ham turar edi. Xanno shoshilmasdan o'ziga ichimlik quyib ichdi.

– Ha, dasturxon chakki emas, – u stol atrofida aylanar ekan, xotirjamlik bilan chiroyli narsalarga razm solar edi. Hadeb „buzoq go'shti, yana kulcha non, chakkimas, chakkimas“ deb takrorlayverardi.

– Haddingizdan oshib ketdingiz, – dedi Rozenberger va telefonga yaqinlashdi. Ammo Xanno uning yo'lini to'sdi.

– Unaqa emas-da! Biroz gaplashib o‘tirsak degan edim.

Rozenberger qo‘liga bir stakan brendi oldi. U juda ham bezovta edi, hatto g‘azabidan stakanni qo‘llarida xotirjam tutib tura olmasdi.

– Nima bo‘ldi? – zaharxanda kulib so‘radi Xanno, – nima teatr tanqidchisi birdaniga qo‘rquv ostiga tushib qoldimi? Nega tipirchilab qolganligingizga hech ham tushuna olmayapman.

Rozenberger brendiyni oxirigacha ichib:

– Bo‘ling, gapiring, – dedi. Uning ovozida nafrat ufurib turardi. – Hikoyangizni so‘zlang-da, bu yerdan jo‘nang! – dedi-yu, ovozi qaltirab ketdi.

Xanno aktyor bo‘lganligi uchuhmi, aniq va bosiqlik bilan gapirardi:

– Men 12 yoshimdan beri ijod qilaman. Men butun dunyoni kezib chiqqanman. Teatr mening vatanim bo‘lib qolgan. Bularni tushunishga qurbingiz yetar, deb o‘ylayman?

– Ha, – dedi Rozenberger tund ohangda.

– Yaxshi. Endi siz meni tunlari mijja qoqmay nima uchun aktyor bo‘lish fikriga kelganimga tushungandirsiz?! Menga har doim ham oson bo‘lgan emas. Juda qiyin kunarim ham bo‘lgan.

Xanno birdan tez qo‘lini cho‘ntagiga soldi-da, to‘pponcha chiqardi va Rozenbergerga o‘qtalib so‘radi:

– Buni ko‘ryapsizmi?

Artur Rozenberger unga xavotir bilan qaradi.

– Men bu to‘pponchani sizga o‘xshagan tanqidchilar uchun maxsus olib keldim.

To‘pponcha Rozenbergerni nishonga olib turardi. Xanning nafrat to‘la ko‘zlar katta-katta ochilib, dahshat ila Rozenbergerga qadalgan edi.

– Bilasizmi men buni qayerdan oldim?

– Yo‘q.

– Bir ajoyib do‘stim xuddi shu quroldan o‘zini otgan.

U ham xuddi mendek aktyor edi. Tanqidchilar uni qoniga tashna qilishgan. Qaniydi, u hozir bu to‘pponchasini nima karomat ko‘rsatishini ko‘ra olsa!

– Siz noto‘g‘ri o‘ylayapsiz. Aytsangiz-chi, siz buni f-aqtgina meni qo‘rqtib qo‘yish uchun shunday deyapsiz, shunday emasmi? – dedi Rozenberger qat’iy ohangda.

– Ha, sizga shunday tuyulishi mumkin, – dedi zahar-xanda kulib Xanno, – siz shunday fikrdasiz, Rozenberger.

– Yo‘q, siz jiddiy gapirayotganingiz yo‘q, – dedi Rozenberger sekin va ehtiyyotkorlik bilan. U Xannoni biroz tinchlantirmoqchi bo‘ldi.

– Afsuski, meni bundan boshqa ilojim yo‘q. Siz men-dan nafratlanasiz. Shunisi aniqki, tanqidchi bo‘lishdan avval siz ham yaxshi aktyor bo‘lishni xohlagansiz, ammo yetarli darajada talantli emas edingiz. Shuning uchun ham siz tanqidchilik yo‘liga o‘tib olgansiz. Shuni bilib qo‘ying-ki, faqat men emas, boshqa yosh aktyorlar ham menga o‘xshab sizday tanqidchining umriga nuqta qo‘ymoqchi bo‘lishyapti.

Rozenberger to‘pponchaga qaradi. U qo‘rqayotganini bildirmaslikka harakat qilar, lekin bu uning qo‘lidan kel-mayotgandi. Xanno gapida davom etar, Rozenbergerning qo‘rquvlariga parvo ham qilmasdi.

– Bu hodisani politsiya mahkamasidagilar kichik bir baxtsizlik, deb qo‘ya qolishadi. Politsiyachilar agarda sizni bu yerda otilgan holda ko‘rishsa, ertaga ular bu hodisani oddiygina hal qilib qo‘ya qolishadi, chunki siz kichkina bir ziyofat uyushtirgansiz, biroz ko‘proq ichib qo‘ygansiz va so‘ng to‘pponcha bilan hazil qilgan bo‘lasiz, natijada,

to‘pponcha otilib ketib sizga o‘q tegib ketgan bo‘ladi va hokazo.

Rozenberger unga xavotirlanib qaradi.

– Nima bo‘ldi? – kului Xanno. – O‘zingizni yaxshi his etyapsizmi?

U to‘pponcha bilan Rozenbergerga yaqinlashgandan yaqinlashib kelardi. Rozenberger orqasi bilan yurib stolga-chaga bordi. U tuzukroq narsa qidira boshladи.

– Biroz qo‘rqayotganga o‘xshaysiz janob Rozenberger? Men tanqidchilarning qo‘lidan odamlarni tanqid qilib qo‘rkitishgina keladi, xolos, deb o‘ylovdim.

Rozenbergerning qo‘liga ayni shu paytda brendiyning shishasi to‘g‘ri kelib qoldi.

Xanno unga g‘azab bilan tikilardi.

– Balki, men sizga yordam bera olarman?

Xuddi mana shu soniyalarda Rozenberger shishani oldi-yu, Xannoga otdi. Shisha borib uning peshonasiga tegdi.

Aktyor og‘zini katta ochganicha, miq etmay yerga qu-ladi. Shubhasiz, Xanno o‘ldi.

Rozenberger Xanning to‘pponchasini qo‘liga oldi. Endi u nima qilishi kerak? Albatta, u politsiyaga qo‘ng‘iroq qilishi kerak!

Eshik qo‘ng‘irog‘i chalinganida Rozenberger telefon oldiga bormoqchi bo‘lib turgandi. Tashqarida Bernd Droste turar va unga do‘stona jilmayar edi.

– Xo‘sish qalay, juda zo‘r bo‘ldimi-a? U bu ajoyib rolni maromiga yetkazib o‘ynab berdimi? Ha, siz bo‘lsa doim Jens Xanno yomon aktyor deganingiz degan edi.

Rozenberger Xanning menejeriga so‘zsiz qarab turar edi. So‘ng o‘zi istamagan holda u to‘pponchaning us-tida barmoqlarini aylantirdi. Birdan to‘pponchaning o‘qi yo‘qligini bilib qoldi va ko‘zlariga ishonmay yana bir bor tekshirib ko‘rdi. Haqiqatdan ham to‘pponchaning o‘qi

yo‘q edi. Demak, Xanno meni o‘qsiz to‘pponcha bilan qo‘rquitib qoyilmaqom rol o‘ynagan ekan-da, deb o‘yladi Rozenberger.

Droste esa hamon kulgidan to‘xtamasdi. U Rozenbergerning oldidan o‘tib xonaga kirdi va „Jens qayerdasan? Javob ber!“, deya qichqira ketdi. To‘satdan yerda yotgan do‘stiga ko‘zi tushdi-yu, hayratdan hang-u mang bo‘lib qoldi. U shunda tanqidchi va aktyor orasida tushunmovchilik bo‘lganligini va bu ikkoviga ham qimmatga tushganligini angladi...

---

## MUHABBAT QURBONI

Urushdan keyingi dastlabki yoz oylari. Borliq go‘zal-lashgan, dalalardagi bug‘doy boshoqlari shamolda bir maromda tebranar, uzumzorlardagi toklar ko‘m-ko‘k barg yozgandi. Ang‘izlar avji gullagan payt. Ko‘kragi medalga to‘la to‘pchi Sashko Dedenko pilotkasini qiy-shaytirib kiyib olgancha oddiy suv tashiydigan aravada ketib borardi. Uning o‘y-xayoli javob tekkach, tezroq uyiga yo‘l olish. Barchamiz ana shu kunni orziqib kutardik. Yaqin orada uygaga ketamiz. Uyimizda qay birimizni ota-onamiz, qay birimizni sevimli yorimiz kutayotganini his etib yashardik.

Ozod bo‘lgunga qadar odamlar ortiqcha shovqin-suron ko‘tarmay, pusib yashardilar. Ammo hozir qarorgohdan tashqariga chiqib olgan Dedenko:

- Ehe-he-he-he! – qichqirdi bor ovozi bilan.
- Qichqiryapsanmi yoki xirgoyi qilyapsanmi? – kulimsirab so‘radi qarhisidan kelayotgan polk suv tashuvchisi.
- Nima, qichqirsam yo xirgoyi qilsam bo‘lmaydimi?
- Kel, birgalikda qichqiramiz!
- Bo‘pti!

Endi ikkovlon: – Ehe-he-he-he! – deya qichqira boshladilar. Bu ovoz dalalar bo‘ylab taralar, bug‘doy o‘rvuchilar esa qaddilarini rostlagancha nima bo‘lganiga tushunolmay, jilmayib ularga tikilib qarardilar.

Frontda yuz bergen muhabbat, hamshira qizlar bilan tanishuv kabi shirin xayollarni yodingga solardi. Lekin Sashko Dedenko bular haqida o'yamas, u faqat yolg'iz pushkasini bilardi, u bilan loyga botgancha dunyoning yarmini kezib chiqdi-yov! U bu quroli bilan lagerni himoya qilgan, pushka bilan jang qilib, qizlarga qarashga vaqtı ham bo'Imagan. Nihoyat, urush tugadi. U suv tashiydigan aravasida xirgoyi qilib ketmoqda.

Yon-atrofga o'rilgan ang'iz bog'lamlari to'p-to'p qilib qo'yilgan edi. Bir uyum oldida nimadir, xuddi alanga kabi bir zum yalt etib ko'rindi-yu, g'aram ortiga g'oyib bo'ldi. So'ng bog'lamni g'aram ustiga qo'yayotgan – quyoshda qoraygan qo'llar ko'zga tashlandi.

G'aram ortida o'roqchi ayol ko'rindi. U g'aramni to'g'rilar ekan, askarga tabassum ila tikildi. Ayolning egnidagi qizil ko'y lagi shamolda hilpirardi. Qora sochlari yelkasi bilan bitta bo'lib to'lg'onardi. U ko'zachani qo'liga olib, boshini dast ko'targancha suv icha boshladi. Suv icharkan, aravada suv olib kelayotgan askarga ko'z qiri bilan qarab, go'yo, kel, suvgaga to'ydiraman, degandek tabassumi bilan askarni o'zi tomon chorlab turardi.

Shu tob Dedenko otning jilovini tortib aravadan sakrab tushdi-da, tabassum hadya qilgan ayol tomon jilmaygancha kela boshladi. Buni kutmagan ayolning rangi oqarib, yuzidagi tabassumi yo'qoldi. Dedenkoning bu jasoratidan u dovdirab qolgan edi. Ayolning ma'yus ko'zlarida bir ma'no yashirin edi... Ayol o'zini o'nglab oldi, qarshisida kelayotgan askardan endi cho'chimas, bu onlarni ko'pdan buyon kutgandek joyida qimir etmay turardi.

U askarga „Ana, suvdan to'yib ich“, deb ko'zaga ishora qildi, ammo Dedenko minnatdorchilik bildirdi-yu, suv ichmadi.

– Isming nima? – so‘radi Dedenko. – Marichkami, Yu-lichkami?

U askardan ko‘zini olib qochdi.

– Lore...

– E-ha! Bizningcha Larisa ekan-da!..

Lore qo‘lida sarg‘ish cho‘pni o‘ynab turardi. Dedenko uning qo‘lidagi cho‘pni asta oldi. Lore qarshilik ko‘rsatmay cho‘pni unga uzatdi-yu, qip-qizarib ketdi. Yigitning mehri jo‘s sh urib, Lorenning nozik qo‘lini dag‘al va keng kaftlari orasiga oldi. Lore bo‘lsa yigitning kaftlari orasidan qo‘llarini tortib olmay, unga yonib turgan ko‘zlarini qadadi.

– Larisa... Larisa... – qizning nomini qaytarardi Dedenko

Lore aynan Dedenkonи bir umr kutgandek, mehr-la tikilib turardi.

Dedenko Lorenning yelkasiga tushib turgan qora sochlari orasidagi oqarib turgan bir tolaga ko‘zi tushdi. Bu Dedenkoning qalbida achinish hissini uyg‘otdi: sochining erta oqarishiga nima sabab bo‘ldi ekan-a? Shu tobda yigitning unga yana-da mehri tovlanib ketdi. Uni himoya qilgisi, boshiga tushgan tashvish va g‘amlariga sherik bo‘lgisi keldi.

Yaqin atrofdan o‘roqchilarining shitirlatib o‘t o‘rayotgani eshitilar, yangi o‘rilgan o‘t hidi yon-atrofga taralardi. Ayolning ko‘zları yigitni sehrlab qo‘ygandi, dudoqlari yigitning labiga yaqinlashmoqda edi. Shu tob askar uning labiga labini bosdi. Qiz go‘yo shu daqiqani poylab turgandek, yigitni mahkam quchoqlab oldi, ehtiros ila bo‘sahadya etdi. Ular bir-birlariga to‘ymas, yo‘lda kimdir ke layotganini-yu yon-atroflarida kuzatib turgan o‘roqchi ayollarni ham sezmasdilar.

Dedenko ko‘zları suzilgan Loreni quchog‘idan chiqargisi kelmasdi. Lore to‘satdan dahshatga tushib, vahima bilan

– O'ldiradi! – deya qichqirdi. Hoynahoy Lore askar-ni ogohlantirish uchun bor ovozi bilan qichqirgan bo'lsa ajab emas. Shu on Dedenko o'girilib qaradi-yu, qo'lida o'roq ushlab, g'azab bilan yugurib kelayotgan kimsaga ko'zi tushdi. Dedenko bu kimsa ayolning eri ekanligini darhol payqadi. U vajohat bilan, ko'zida g'azab o'ti yongan ko'yi halloslagancha to'g'ri Dedenko tomon yugurib kelmoqda edi. Qo'lida ko'tarib olgan o'rog'i oftobda yaltirardi. G'azab otiga mingan kimsa tobora yaqinlashib kelarkan, hozir yetib keladi-yu, ikkimizni ham tilka-pora qiladi, degan o'y o'tdi Dedenkoning xayolidan. Uning qo'rquvdan dag'-dag' titrayotgan ayolga rahmi kelib ketdi. O'ylamay-netmay cho'ntagidan to'pponchani olib g'ilofidan chiqardi-yu...

O'q ovozi yangradi.

Dedenko o'sha kuniyoq gauptvaxtaga tushdi. Gauptvaxta o'rmon chetida joylashgan edi.

– Dedenko, gapni aylantirmay to'g'risini ayt, sharob ichib kayfing oshganmidi? – unga sovuq ko'zlarini tikdi so'roq qilayotgan odam. – Ayt, mastlik ustida qildingmi bu ishni?

– Ha, mastlik ustida, lekin siz o'layotgan mastlik ustida emas.

– Qanaqa mastlikni aytapsan? Qani, gapir!..

– Muncha so'rayverasiz, do'q urmang, – xotirjam javob qildi Dedenko.

Dedenko lom-mim demay jim o'tirar, tergovchi qancha savol bermasin, u gapirmsasdi.

Dedenkoni qo'riqlayotgan do'stлari unga chin yurakdan achinardilar. Axir bu Dedenko degani sadoqatli do'st, yaxshi artilleriyachi edi-da. Ha, u hozir hibsda, sen esang uni erta-yu kech qo'riqlab turibsan, lekin u bilan birga ko'rgan azob-u janglarni, fashist tanklariga

o‘t qo‘ygan damlarimizni unutish mumkinmi? Agar ix-tiyor askarlarda bo‘lganida edi, ular Sashko Dedenkonibir kun bo‘lsa-da hibsda ushlab turmagan bo‘lardilar. Axir u katta gunoh qilgani yo‘q... U o‘g‘irlilik qilmadi, bosqinchilik qilmadi, qarorgohdan ruxsatsiz ketib qol-madi. Qayerdandir paydo bo‘lgan rashkchi erkak kelib, qo‘lidagi o‘roq bilan uni tilka-pora qilishini kutib o‘tiri-shi kerakmidi?! To‘g‘ri, chol dunyoni tark etmaganida yaxshi bo‘lardi.

Dedenko Loreni bor-yo‘g‘i bir marta ko‘rgan bo‘lsada, lekin u haqda to‘xtovsiz gapirardi. Dedenko Larisa-ning egnidagi qizil ko‘ylagi, lablaridan bo‘sса olgani haqi-da gapirayotganida ko‘zлari poslab ketardi. Ammo hozir bu ko‘zлar iztirobga to‘la. Biz Loreni o‘zi sevmagan kishisiga turmushga bergenlarini bildik. Husnidan boshqa sepi bo‘lmagan bu qiz qari bir boyga uzatib yuboril-gan ekan. Bu qari boy uning umrini xazon qilgan ekan. Askarlar tasavvurida Lore o‘zi yoqtirmaydigan qari boy bilan azobda yashayotgan bir paytda suv tashuvchi yosh askarga ko‘zi tushib qolgan-u, armon bilan unga tikilgan. U yigitni bir ko‘rishdayoq, qani endi, peshonamga shun-day yigit bitilganda, degan o‘y o‘tgan bo‘lsa, ehtimol.

– Bunday ayol uchun o‘zingni o‘tga ham, cho‘g‘ga ham ursang arziydi, – deya faxrlanishardi gauptvaxta oldiga yig‘ilgan askarlar. – Axir bu ayol muhabbat har narsadan ustun ekanligini ko‘rsata oldi-ya!

Muhabbat insonga kuch-quvvat hadya etishi, qalbini yayratib yuborishini eshitgan bo‘lsalar-da, bugun buni o‘z ko‘zлari bilan ko‘rib, guvohi bo‘lib turibdilar. Ularning do‘sti hamma qatori odam. Lorening kamondek qoshlari, sarmast qiluvchi charos ko‘zлarini o‘ylayotgan askar qa-chon qamoqdan chiqishi-yu sevgilisi tomon qachon qanot qoqishini zoriqib kutardi.

– Muhimi, menga suv tashiydigan aravamni qaytarib bersalar bo‘lgani, – derdi Dedenko soqchilarga ochiqko‘ngillik bilan. – Aravaga o‘tiraman-u, sevgilim tomon qushdek uchaman! Uni yonimga o‘tkazib, shahar bo‘ylab aylantiraman!

Soqchilar uning o‘ylamay-netmay gapirayotgan gapi dan xavotirda edilar.

– Qonun bunga yo‘l qo‘ymaydi! – e’tiroz bildirardilar ular.

– Qanday qonun! – go‘yo oydan tushgandek ajablanardi Dedenko. – Sevgiga qarshi bo‘lgan qonunmi? Bunday qonun bo‘lishi mumkin emas! Ko‘rasizlar, men gapimning ustidan chiqaman!..

Soqol-mo‘ylovi olinmagan mahbus Dedenko Lorening ishqida yonib, tinmay u yoqdan bu yoqqa tanda qo‘yardi. Soqchilar boshlig‘i borgan sari diydasi qattiq askarlarni navbatga qo‘yardi. Xizmatga yangi kelganlar mas‘uliyatni qat’iy his qilib, mahbus bilan suhbatlashmasdilar. Faqat ovqat-u suvini berardilar, xolos.

Dedenko boshi uzra qora bulutlar bosib kelayotganini his etmasdi ham.

Keksa rashkchi kimsaning o‘limi bilan tugagan mudhish hodisa haqidagi xabar hamma yoqqa tarqalib ketgandi.

Kun sayin vaziyat og‘irlashib bormoqda edi. Dedenkonning ishini harbiy tribunal ko‘rib chiqa boshladi. Sodir etgan jinoyati uchun Dedenko oliy jazoga hukm etilgan edi. Ish Markazga yuborildi. Dedenko o‘zini qanday jazo kutayotganini hali bilmasdi. Qotillik, sud va hukm go‘yo unga taalluqli emasdek – bu bor yo‘g‘i bir tushunmovchilikdek tuyulardi. Intiqlik bilan oqlanishini kutardi. U aslo ruhini tushirmas, o‘zini xotirjam tutardi. Lekin uyuqusini yo‘qotgan edi.

Kunlarning birida, quyosh atrofga nur taratayotgan bir paytda shudring bosgan tokzorlar orasidan Lore chiqib keldi. Yigitning xayoli unda edi. Avvaliga Dedenko ko‘ziga ishonmadi, o‘zi tomon kelayotgan ayol uning sharpasimi, deb o‘yladi. Yo‘q, u sharpa emas, Lorenning o‘zi edi... U egniga odmi ko‘ylak kiygancha oyoqyalang kelar, sochlari esa paxmayib ketgandi. Lore kimsasiz keng maydonga chiqdi-yu, xavotirlik bilan yon-atrofga alanglay boshladi va boradigan joyini avvaldan bilgandek gauptvaxta tomon yo‘l soldi.

– To‘xta! – deb qichqirdi unga soqchi.

Kiyimlari to‘zib ketgan, aqldan ozayotgan Lore qaddini bukkancha qadamini tezlashtirdi.

– To‘xta! Otaman!

Soqchi miltig‘ini o‘qtalib, uni nishonga olganini ko‘rgan Lore, joyida taqqa to‘xtadi. Dedenko voqeasidan xabardor bo‘lgan soqchi yigit kelgan ayolning kim ekanligini darhol tushunib yetdi-yu, uni hayday boshladi. Ayol qanchalik yalinib-yolvormasin soqchi uni tinmay haydar, maydondan chiqarib yuborishga harakat qilardi.

Ayol qanchalik yalinib-yolvormasin, uni soqchilar hibsdagi askar yoniga yo‘latmadilar. Loreni bir joydan haydasalar, boshqa yoqdan paydo bo‘lar, u yoqdan bu yoqqa Yugurar, go‘yo sharpa kabi har yerda paydo bo‘lardi.

Kechga borib soqchilarni almashtirdilar, Dedenkoning yaqin do‘satlari navbatda turishdi, ular qoidani buzsalar-da, rahmlari kelib, sevishganlarga diydor ko‘rishishga ruxsat berdilar.

Lore soqchilarning ko‘ziga g‘am-g‘ussadan ezilgan, ko‘zлari kirtaygan ayol bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa-da, Dedenko uchun tengi yo‘q go‘zal edi. Ayol eshikka ya-qinlashganida Dedenko tirqishga yopishgancha yig‘lab yubordi.

Lore tirqish orqali qoracha qo'llarini ichkariga kirkizganda Dedenko bu mehnatkash qo'llarni bo'saga ko'mib tashladi.

Soqchilar odob yuzasidan o'zlarini biroz chetga ol-salar-da, dam ayolning, dam askarning his-tuyg'ularga, ishq-muhabbatga to'la sevgi izhorlarini eshitib turardilar.

– Mening go'zalim! Tengi yo'q malikam! – derdi timay Dedenko. Urushda to'pori bo'lib qolgan artilleriyachida bunday nozik erkalovchi so'zlar qayerdan paydo bo'ldi ekan-a? U shu vaqtgacha faqat o'limni, xandaqlarni ko'rgan, snaryad otishni bilgan, xolos. Ayol esa osmondan tushgan quyosh nuri kabi uning qalbini nurafshon etgandi.

Soqchilar bir necha daqiqadan so'ng ayolga ketishi kerakligini aytdilar, lekin Lorenning qulog'iga gap kirmas, soqchilarning gapini eshitmasdi ham, bo'ynini cho'zanga-chi tirqishga yaqinlashib, jon-jahdi bilan Dedenkoning yoniga kirib ketgudek bo'lardi... Lore Dedenkoga qarab to'ymasdi.

Ayol qo'llarini tirqishdan tiqib, kaftlari bilan yigitning yuzlarini silab erkalardi, boshini boshiga yaqinlashtiranga-chi ikkovlon yig'lardilar, buni ko'rib turgan soqchilarning ularga rahmi kelardi. Ular yaqinlashib kelayotgan noxushlikni sezayotgandek edilar.

Tunda Markazdan javob xati keldi. Unda hukm o'z kuchida qoldirilgani yozilgandi, hukm harbiylar va fuqarolar ishtirokida zudlik bilan ijro etilishi buyurilgandi.

Endi Dedenkoni faqat mo'jiza qutqarib qolishi mumkin. Izg'irinli shamol esardi. Batalyon askarlari tik jar yoqasida so'nggi fojeali marosimda ishtirok etish uchun saf tortdilar. Bu yerga marhumning qarindoshlari ham kelgan edi. Dedenkoning sobiq komandiri Shaduro keksa artilleriyachi bo'lib, u ham Dedenko kabi o'z pushkasi bilan dunyoning yarmini kezib chiqqan edi. U yerto'la-

ga g‘amgin holda tushib keldi. O‘zini qanday tutishni bilmay, bir yo‘talib oldi-da, boshini yelkalari orasiga qisgancha yog‘och karavotga cho‘kdi. U gapni nimadan boshlashni bilmasdi, u Dedenkoni yaxshi ko‘rardi, chun-ki Dedenko intizomli askarlardan hisoblanardi. Yetti ux-lab tushiga kirmagan ishlar ro‘y berdi: uning ro‘parasida o‘limga mahkum etilgan artilleriyachi turardi. Nahot-ki, bu vidolashuv suhbati bo‘lsa? Bu qat’iy hukmnning ijro etilishiga zubitning ham ishongisi kelmasdi. Biroq u Dedenkoga qanday tasalli berishi mumkin. O‘limga mahkum etilganlarga shu onda nima ham deyish mum-kin? Zobit Shadura boshini solintirib, tamaki xaltasini cho‘ntagidan oldi-da, undan bir chimdimini o‘ziga olib, bir chimdimini Dedenkoga uzatdi. Ular indamay cheka boshladilar.

– Xo‘sh, Dedenko, biz birga jang qildik, sen yaxshi askar eding. O‘sha Verblyusho, Bart, Estergom ostonalari da bo‘lgan hamma jang yodimda. O‘sha yerlarda senga o‘q tekkan emasdi, hozir esa bu yerda... Nima bo‘lyapti o‘zi? Vatan uchun jang qilgan eding, endi esa unga o‘zing dog‘ tushirding, – deya Dedenkoga tikildi. Ammo Dedenko lom-mim demay turardi.

– Nega gapirmaysan?

– Nimayam derdim?

– Janglarda hayotingni xavf ostiga qo‘yding, Vatan-ni deb jang qilding! O‘sha paytlarda qo‘rqmagan, endi qo‘rqasanmi? Agar dog‘ tushirgan bo‘lsang, uni faqat qon bilan yuvishing mumkin, nima, bu qo‘lingdan kel-maydimi?

U yana Dedenkoning biron nima deyishini kutdi.

– Bu ayol... U o‘zi kim?.. Munosabatlaringiz jiddiyimi?

Dedenko qo‘lidagi sigaretani xuddi birov tortib oladi-gandek yutoqib, ketma-ket chekdi-da, so‘ngra:

— Men uni sevaman! — dedi qat’iy ohangda.

Batalyon komandiri xo’rsinib qo’ydi. Ular jim bo’lib goldilar.

— Agar sevgi bo’lsa, unda boshqa gap, Dedenko... Ammo bo’lib o’tgan ishlar... yaxshi bo’lmadi.

— O’rtoq komandir, meni yaxshi bilasiz-ku? Vatanim sha’niga dog‘ tushirmadim... Muhabbat qurboni bo’ldim. Shunday ekan... uni faqat o’lim bilan yuvishga tayyorman... men tayyorman!

Dedenko jar yoqasidagi askarlar qarshisida qaddini tik tutib turardi. Qora bulutlar uning boshi uzra suzib borar edi.

Hukmning so‘nggi jumlalari o‘qilayotgan bir paytda jimlikni tokzorlar orasida berkinib o’tirgan ayol qichqirig‘i buzdi.

Qichqiriq eshitilgach, yig‘ilganlar bir on sarosimaga tushdilar, egniga o‘ngib ketgan kiyim kiyib olgan ayol tokzorlar orasidan yugurib chiqib, sarosimaga tushgan askarlar oldidan xuddi sharpadek o‘tdi-yu ketdi...

Tartibsizlik tezda bartaraf etildi...

Jarlik tepasidagi bulutlar suzgandan suzib borardi. Hukm ijro etildi.

## SO‘QQABOSH

Tog‘da bir haftadayoq kayfiyati ancha ko‘tarildi. Do‘xitir: havo almashtiring, tog‘ga borib dam olib keling, deb to‘g‘ri aytibdi.

Nihoyat, miriqib uxmlay boshladи. Ilgari salgina shitirlashdan ham cho‘chib uyg‘onib ketgancha vahima bosib tun bo‘yi mijja qoqmay chiqardi. Ishtahasi ochilib, oyoq-qo‘li ham chaqqonlashdi. U mavsum oralig‘ida deyarli huvullab qolgan chang‘i uchish maydoni bo‘ylab sayr qilarkan, o‘zini erkin qushday his qilardi. Mahalladoshlari sira ko‘zini ochirmas, bu yerda esa hech kim mushugini pisht demasdi.

Sigaretta yoki bir bo‘lak sovun xarid qilish uchun biron do‘konchaga bosh suqsa, sotuvchilar ism-sharifini aytib ensasini qotirmas, salomatligini so‘rab yoki ertangi ob-havo haqidagi safsatalar bilan bezor qilmasdi. Sotuvchilar u so‘ragan narsani indamay peshtaxta ustiga qo‘yar va qaytimni uzatishardi.

Boshqa mijozlar singari u ham bu yerda sayyoх, ya’ni hech kimni qiziqtirmaydigan besh kunlik mehmon edi. Keyingi bir oy mobaynida boshiga tushgan savdolarni eslaganda bu yerda o‘zini jannatga tushganday baxtiyor sezardi.

\* \* \*

U oltmis besh yoshga kirganiga qaramay, otday sog‘-lom edi. Biroq shunga qaramay, ikki oy muqaddam uni nafaqaga chiqarishdi. E’tiroz bildirmay, taqdirga tan berdi.

Qolgan umrini maroqli o'tkazish niyatida reja ham tuza boshladi. Ro'zg'or yumushlari bilan bir qatorda – u so'qqa-bosh edi – kuniga ikki soat jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Qolgan vaqtida esa o'ttiz yildan ortiq bo'limgan qadrdon Luden shahrining tarixini o'rganadi.

Afsuski, hamma rejalar chippakka chiqdi. Yangi hayot baxtiyor xotirjamlik o'rniqa faqat ko'ngilsizliklar keltirdi. Ilk sayr paytidayoq – u ko'proq piyoda yurishni mo'ljal-lagandi – odamlar g'alati tikilayotgandek tuyuldi. Yettiyon begona ayrim kimsalar esa irshayib yoki boshini silkib salomlashardi. Bularning barchasi unga noodatiy tuyular va g'ashini keltirardi.

Mana shu mahallada o'n besh yildan buyon yashayotgan bo'lsa, biron-bir tanish-bilish orttirmagan, hech kim bilan dildan suhbatlashmagan. U hamisha o'zini xokisor tutar, barchaga begonasirab qarardi. Qo'ni-qo'shnilarни tanimas, ularning ham e'tiborini tortmaslikka urinardi. Hech kim xotirjamligiga rahna solishini istamasdi; shu niyatda odamlardan o'zini chetga tortardi. Hatto tikuvchi bilan sartaroshning oldida ham tiliga ortiqcha erk bermasdi. Oziq-ovqat do'konlarida esa og'izdan bitta ham ortiqcha so'z chiqmasdi.

Ishlab yurganida hayoti risoladagidek kechardi, nafaqa olishni boshladi-yu, hammasi izdan chiqdi. Dastlab kunduzi sayrga chiqqandayoq qo'ni-qo'shnilarning qiziqsinib kuzatayotganlarini payqadi. Bu o'yin paytida raqibi qasd-dan g'irromlik qilganday g'azabini keltirdi. Hech kimning salomiga alik olmasdi, irshayib qaraganlarga esa nafrat bilan tikilardi.

Avvaliga g'azablangan bo'lsa, ko'p o'tmay xavotir domiga qoldi. Bir gal xiyobondagi o'rindiqda hordiq chiqarib o'tirganda qo'ltiqtayoqli notanish kimsa yoniga

joylashib olib, hasrat qila ketdi. Notanish kimsa o‘ziga qarata gapirayotganini oldiniga tushunmadi: o‘zi bilan o‘zi gaplashadigan, oshkora o‘ylaydigan va orzularga beriladigan savdoyilardan biri bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Afsuski, buning aksi edi. Notanish odam aynan unga qarata malomat toshlarini uloqtirardi.

– Bizday nogironlarning dardidan bexabar, oyoq-qo‘li butun kimsalar ham bor, – dedi u. – Olamni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi, pinagini buzmay sayr qilib yuraveradi. Tog‘ni ursa tolqon qiladigan kuchi borligiga qaramay, tekinxo‘r kanaday o‘zgalar qonini ichadi. Mo‘may nafaqa ham oladi. Men esa tishimning kirini so‘rib yuribman. Shu hamadolatdanmi? Tabiatda ham shu ahvol... Kimdir dala-dashtda xarob kulbaga ega bo‘lishni baxt deb biladi, kimdir esa chinorlar-u mevali daraxtlar bag‘ridagi shohona imoratda davron suradi. Biroq ularga bu ham kam! Biz kabi g‘ariblarga joy berishni xayoliga ham keltirmay xiyobonlarni egallab olishti. Buni ularga kim ham taqiqlab qo‘yardi, xiyobonlar hammaniki! O‘zgalarga zarari tegmasa bas, bizda hamma erkin. Siz ham erkinsiz, to‘g‘rimi? Yo erkin emasmisiz? Mayli, indamay qo‘ya qoling... Lekin sirasini aytganda, men ayrim kimsalar kabi ham xo‘rdani, ham burdani uradigan olg‘irlar xilidan emasman. Hech kimga zarracha ziyonim tegmasa deyman. Yana maqtanchoq ekan deb o‘ylamang. Axir, odamlarga turlicha xalaqit bersa bo‘ladi. Gap-so‘zlarim malol kelayotganini aytishgani hamono nari ketaman... Har kim o‘z bilganicha yashaydi, buni tushunish kerak... Yonimda o‘tirgan tasqara esa buni tushunishni istamayapti... Qulog‘iga tanbur chertib nima baraka topardim. Bor-e!..

Notanish kimsaning ta’nalaridan toshday qotib qoldi. Qaysi aybi uchun? Nahotki bu kimsa uni tanisa? U biron-

ta tuki qilt etmasdan, tili kalimaga kelmay g'ujanak bo'lib oldi. Baxtiga, notanish kimsa sayray-sayray charchadi shekilli, bukilmaydigan oyog'ini sudragancha nari ketdi.

Biroz o'ziga kelib oldi-yu, barchadan nigohini olib qochgancha uyiga oshiqdi. Ko'cha tuyulishida to'xtab, odatdagidek yarimta baton olish uchun non do'koniga kir-di. Kutilmaganda sotuvchi uzoq yillar mobaynida birinchi marta ism-sharifini aytib murojaat qildi:

– Sizga nima bo'ldi, tobining qochedimi, janob B.? Rangingiz dokaday oqarib ketibdi.

U yo'q, deganday imo qildi-da, qaytimni olishni ham unutib, tashqariga otildi. Uyiga kelib darvozani ham, eshikni ham qulfladi. Shunaqayam jahli chiqdiki! Hamma til biriktirib olganmi?! U bilan gaplashishga begona odamlarning qanday haddi sig'di? Nima kerak ularga? Qaysi qilgan gunohlari uchun qasos olishmoqchi? Bir-on-bir sababsiz malomatga qolganini sira tushuna olmasdi. Nahotki, qo'ni-qo'shnilarini unga nisbatan birorta nojo'ya ish qilishni mo'ljallayotgan bo'lishsa? Biroq nega? Yo uyi bilan bir parcha bog'iga hasad qilishyaptimi? Qanchalar pastkashlik!

Ertasiga uydan kamroq chiqishga qaror qildi. Jismoniy tarbiya mashqlarini ham xonada bajardi, lekin dimiqqan xonada o'n daqiqa ham o'tmay toliqib qoldi. Risoladagidek hayotiga shu asno putur yetdi. Zora chalg'isam degan niyatda „Ludenlik jin chalgan rohibalar solnomasi“ kitobini o'qishga tutindi, biroq yuragidagi vahima yana ham kuchaydi: chor-atrofini ko'zga ko'rinxaydigan g'ayriod-diy sharpalar qurshab olganday tuyuldi...

Derazaning oldiga o'tirib olib, tirqishdan ko'chani kuzata boshladi. Ko'pgina yo'lovchilar hovlini o'ragan pan-jara devor osha bog'iga suqlanib qarayotganini payqab, yana vahimaga tushdi.

Kechasi barcha eshiklarni tambalab, xonasiga qamalib oldi. Biroq sahargacha uxlay olmadi. Oromkursiga ikki bukilib joylashib olgancha bog‘dan shoxlarning arang eshitilayotgan, biroq vahimali shitirlashlariga qulq solib chiqdi. Tun epkinlari qandaydir yovuz ruhlarning sovuq nafasini eslatardi... Tong bo‘zarishi bilan ko‘zguga nazar solib, bir kechadayoq soqoli qorday oqarib ketganini ko‘rdi.

Keyingi kunlarda baqqol, qassob va sutchidan zarur mahsulotlarni xarid qilish uchungina ko‘chaga chiqdi. Sotuvchi ism-sharifini aytib g‘ashiga tegmasligi uchun non do‘koniga kirmadi, pecheniy bilan kun ko‘rishga ahd qildi. Biroq bu ehtiyyotkorlik ham naf bermadi: hamma joyda shubhali nigohlarni sezib turardi. Sotuvchilar kelishib olganday o‘zlarini uning sog‘lig‘i haqida qayg‘urayotganday ko‘rsatishardi. Eng alam qiladigani, ularning hammasi – ayrimlari oldinroq, ayrimlari keyinroq – unga ism-sharifi ni aytib murojaat qila boshladi. Hech kim bilan osh-qatiq bo‘lishni istamasa ham, hamma uni tanib olganiga nihoyat, qat’iy ishonch hosil qildi.

Ko‘chada hamma uning ortidan tikilardi. Biron davraning yonidan o‘tadigan bo‘lsa, gaplashib o‘tirgan odamlar yaqinlashishi bilan jim bo‘lib qolar, yiroqlashgani hamono yana gapga tushardi. Nazarida, hamma faqat u haqida gapi-  
rar, kurakda turmaydigan mish-mishlarga zo‘r berardi.

Oxir-oqibat uydan chiqmay qo‘ydi. Suvga g‘arq bo‘lganday ko‘zlardan yo‘qoldi. Kunduzi darchalarni ochmas, kechasi esa chiroq ham yoqmasdi. Shunday qilsam hamma meni qayergadir jo‘nab ketgan, deb o‘ylaydi degan fikrda edi. Oziq-ovqatni juda tejab, hatto misqollab ishlatdi: axir, qamal uzoq davom etishi mumkin. Uyqusizlikka duchor bo‘lgani kamday, ishtahasi ham yo‘qoldi. Polning g‘ijirlashidan cho‘chigan o‘g‘ri singari o‘z uyida mushuk-day pisib qadam tashlardi.

Nimqorong'i uyda qo'liga kitob ham olmay qo'ydi. Kun-u tun butun vujudi qulogqa aylanib, tiq etgan tovushni ham ilg'ashga harakat qilardi. Nazarida, xatarli tovushlar tobora ortib, yaqinlashib kelar, kuchayib borar, go'yo butun shahar uning uyi atrofida charx urib aylanardi. Shu yili kuz osuda, havo ochiq keldi, shu bois qo'shnilarning ochiq derazalaridanuzuq-yuluq gaplar qulog'iga chalinardi. Ular, albatta, uni muhokama qilyaptilar. Barcha deraza-yu darchalardan uning uyini kuzatuvga olgan. U o'zini iniga qamalgan yirtqichday sezardi. Ayniqsa, qadam tovushlari uning asabini egovlardi; qadam tovushlari yaqinlashib keelayotganini aniq eshitardi, lekin nima uchundir qaytib ketgani eshitilmasdi. Qadamlar goh yashirin xatarday pisib kelar, goh oshkora do'q-po'pisaday qattiq eshitilardi. Hatto kechasi ham qadam tovushlari tinmasdi. Nega? Ayrim tunlarda qadam tovushlari bog'ning chetida yoki sal nari-da to'xtaganday bo'lardi... Ko'p marta astagina taqillatish eshitildi, go'yo kimdir temir tayoq bilan panjaraga urganday edi. Balki, panjaraning mustahkamligini sinab ko'rgandir...

Ertalab panjarani kimdir taqillatayotganini eshitdi, bu safar uni sindirishga qasd qilganday rosmana urishardi. Kimdir uni chaqirardi:

– Janob B.! Janob B.! Uyda bo'lsangiz birrov qarang yoki tovush bering! Javob bering, yo'qsa chilangarni chaqirib eshikni buzamiz. Janob B., nima uchun javob bermayapsiz? Qayerdasiz, o'lib qoldingizmi? Qo'shnilar xavotirlanyapti, sizni hafta mobaynida bir marta ham ko'rismabdi, nahotki nimadir bo'lgan bo'lsa?

U javob berishga majbur bo'ldi. Deraza qopqasini ochib, uyatdan qulog'igacha qizargancha derazadan boshini chiqardi. Politsiya komissarining baqirishidan bezovta bo'lgan butun mahalla uning uyi oldida to'plangandi. Qo'shnilar esa derazalardan tikilib turardi. Tekin tomosha!

Sharmanda! Shunaqa ham haqorat qilishadimi! U o‘zini olomon oldida yalang‘och turganday his qildi. Boz ustiga oftob nurlari ko‘zini qamashtirardi.

Biron gap aytmagani uchun politsiya komissari panjaradan oshib yaqinroq keldi-da, uni tashqariga chiqishga ko‘ndirmoqchi bo‘ldi. Ishqilib, tinchlikmikan? Nima uchun uzzukun qorong‘i uyga qamalib o‘tiribdi? Tobi qo‘chib qolmadimikan?

U xavotirlanishga o‘rin yo‘q, deb aytishga o‘zida kuch topa oldi, shu bilan birga meni tinch qo‘yinglar, sizlarning g‘amxo‘rligingizga zor emasman, deb uzib ham oldi. Politsiyachi battar bo‘lmaysanmi, deganday to‘ng‘illagancha ketvordi, u esa qopqani yana mahkam berkitdi. Kun botguncha g‘azabdan bo‘g‘riqib yurdi, chunki g‘iybatchi va bekorchi xotinlar uyining oldida qoqqan qoziqday turib olib, bu hodisani ataylab baland ovozda qizg‘in muhokama qilishdi. „Sho‘rlik janob B.“ qabilidagi qayg‘urishlarni yuz marta eshitgandirov.

Qorong‘i tushishi bilan uyidan xufyona chiqdi-yu, shifokorning huzuriga yo‘l oldi. Uyqusiz tunlar uning tamomila tinkasini quritgan, shu bois tinchlanishi zarurligini sezib turardi. Binobarin, shifokor tog‘ga borib dam olsangiz, ko‘rmaganday bo‘lib ketasiz, deb maslahat berganda jon deb rozi bo‘ldi.

\* \* \*

Ertalab deraza pardalarini ochish asnosida tog‘ cho‘qqilari qor bilan qoplanganini ko‘rdi. Suv quyganday osoyishtalik hayratga solardi. Go‘yo butun olam haykalday qotib qolgan. Hatto mehmonxonada ham g‘ayrioddiy osudalik hukm surardi. U derazani ochgan edi tog‘ jilg‘asining bir maromdagи shovullashi xonaga yopirildi. O‘zini baxtiyor his qildi. Bu yerga kelganidan buyon birinchi marta

qotib uxladi, yarim kechada qadam tovushlaridan cho‘chib biron marta ham uyg‘ongani yo‘q. Odatda, juda kech uxlaydigan yosh nemislar kecha kechqurun jo‘nab ketganini beixtiyor esladi. Butun mehmonxonada yolg‘iz o‘zi qolibdi. Ayni muddao!

Restoranga tushib, nonushta va gazeta so‘radi. U bu yerda birinchi kuniyoq gazeta so‘ragandi. Gazetani shunchalar berilib o‘qirdiki, uni bezovta qilgani biron kimsa ning jur’ati yetmasdi. Ofitsiant ham, xodimlar boshlig‘i ham u bilan gaplashgani urinmadi ham. Ular uning ism-sharifini bilmasdi. Mehmonxona xodimlari uchun ham „oltinchi xonadagi janob“ bo‘lib qolaverdi. Nonushta qilib bo‘lgach, xonasining kalitini topshirmsandan mehmonxonadan chiqdi.

Qayoqqadir shoshilayotganday tez yurib ketdi. Sharchadagi kaftday maydoncha sari burilish o‘rniga tog‘ jilg‘asi tomon eltadigan so‘qmoq bo‘ylab yurdi. Taxta ko‘prik ustida bir nafas ham tin olmagani mehmonxona xodimlarining e’tiborini tortdi, narigi tomonga o‘tib, qarag‘ayzor bag‘riga sho‘ng‘idi. Faqat chorrahaga yetgach to‘xtadi. So‘qmoqlardan biri tik tepaga qarab o‘rlagan, biri esa, aftidan, daraning tubiga olib borardi. U qaysi yo‘ldan yurishni bilmay ikkilandi. Shu yergacha dadil yurib keldi. Endi esa ikki yo‘ldan birini tanlashi talab qilinardi. Tunda tog‘larga qor tushganini esladi. Qor tushgan joyga borish uchun tik so‘qmoqdan yurishga to‘g‘ri kelardi, shu bois o‘zini ortiqcha urintirgisi kelmadi. Busiz ham yuragi bezovta bo‘la boshlagandi. Juda tez yurgani uchun o‘zidan ranjib, shoshilmay quyi so‘qmoq bo‘ylab yo‘lga tushdi.

Chamasi biron soat o‘rmon oralab yurdi, hech kim ergashib kelmayotganmikan, deb o‘qtin-o‘qtin ortiga nazar tashlab qo‘yardi. Chap tomonda tog‘ jilg‘asi sharillab oqar, daraxtlarning shoxlarida esa qushlar sayrardi. Yuragi

odatdagidan tezroq, biroq bir maromda urardi. Me'yordagidan sal qattiq urayotganini tan oldi. Bu toliqqani uchun emas, hayajon tufayli bo'lsa kerak: axir, hayotida birinchi marta yolg'izlik nashidasini surayotgandi. O'z ko'ziga ishongisi kelmasdi: bir soat mobaynida biron ta ham tirik jon uchramadi-ya!

Ravon so'qmoq yuqoriga o'rлardi. U bir maromda, tog'liklarday mardona ketib borayotganidan mammun edi. Qo'llari ohista silkinganidanmi, isib ketdi. Halovat mast qildi. Noyabrning oxiri bo'lgani uchun yo'l bo'yida billurday muzlagan halqoblar ko'zga chalinardi.

O'rmon daf'atan tugadi. Yana tekislikka chiqib olgанини va tog' jilg'asining jildirashi deyarli eshitilmayotgанини ham payqamadi. U o't-o'lan bilan qoplangan chog'roq yaylovga chiqib qolgandi, yastanib yotgan yaylov biron chaqirim naridan yana torayib ketgandi. Uning barcha tomonidan tik qoyalari siuvuga olgandi. Bu joyning sirk maydonidan sira ham farq qilmasligidan hayratga tushdi. O'zaniga tushib olgan tog' oqimi singari yo'l ham belga uradigan o'tlar oralab ilonizi bo'lib ketgandi. Yalanglik bag'rida biroz vahima chulg'ab oldi. O'zini ko'z-ko'z qilayotganday xijolatga tushdi. Qaysidir tepalikdan biron kimsa uni kuzatayotgani aqlga sig'masdi, biroq u rosmana maydon sahnida turardi. Bunday xijolatpazlik oqibatida tabiat go'zalligi ham tatimadi. Yana ilgari yurarkan, odam zotini axtarganday chor-atrofdagi qoyalarga ko'z yugurtirdi. Hatto biron jonivorni ham topa olmagani shunday alam qildiki, go'yo butalar panasiga va xarsanglar oralig'ida-gi tirqishlariga bekinib olgan mavhum g'animlar uning sabr-u bardoshini sinayotganday tuyuldi. Bir xayoli ortga qaytmoqchi ham bo'ldi.

Bu yerda yolg'iz emasligini bilgach, fikridan qaytdi: u bilan birga maydon sahnida yana bir odam paydo bo'lgan-

di. Yo‘ning narigi tomonida yerning ostidan chiqqanday bir yo‘lovchi paydo bo‘lib, unga peshvoz kela boshladi. Qochib qolishga kechikkandi. To‘g‘ri, notanish kimsa hali uzoqda, biroq – kunday ravshanki – undan ko‘zini uzmay kelayotir. Kutilmagan istalgan xatti-harakat, oniy ikkilanish ham notanish kimsaning e’tiborini tortishi, oqibatda uni behuda savollarga ko‘mib tashlashi hech gap emas... Bunday yalanglikda begona odamning e’tiborini tortmaslikning yagona yo‘li – hamisha uning ko‘z oldida bo‘lish, degan fikr xayolidan chaqmoqday o‘tdi. Va u atayin bir maromda, salmoqlab qadam tashlagancha notanish kimsa sari yurdi.

Begona odam imillab odimlar, juda sekin yaqinlashardi.

O‘rtada yuz qadamcha masofa qolganda notanish odamning raftoriga ko‘z yogurtirdi. Tog‘ shamolida toblangan qiyofasiga qarab necha yoshga kirganini tusmollab ham bilib bo‘lmasdi. Manglayiga tushirilgan kallapo‘shi ostida qop-qora ko‘zlarini gavharday yiltirardi. Notanish kimsa bilan uchrashishga oldindan taraddudlanib kulimsiradi: balki, yo‘l ustida to‘xtab u bilan biroz hangomalashar, kuz yaxshi kelgani, biroq kutilmaganda havo aynigani-yu bu qish qattiq bo‘lishidan darak ekani haqida suhbatlashar. Begona odam esa turli savollar berishi, qayerdan kelayotganini surishtirishi shubhasiz. Sayohat maroqli bo‘lishini tilab, qaysi yo‘ldan yurgani ma’qul ekanni ham maslahat beradi.

Yo‘q, janob B. bunga chiday olmaydi! U notanish kimsaning xayrixoh, samimiyo ko‘zlariga qaramaslikka ahd qildi. Boshini egib olgancha yo‘lda yotgan toshlaridan ko‘z uzmadidi. Dadil qadam tashlayotganiga o‘zining ham ishongisi kelmadidi. Notanish odamga tobora yaqinlashib borar, hatto uning qadam tovushlarini ham eshitila boshladi. Qadam tovushlari sekinlashdi, keyin esa eshitil-

may qoldi. Yuragi qinidan chiqquday tipirchilab urarkan, hamon o‘z oyoqlaridan ko‘z uzmasdi. Yo‘lning narigi tomonida begona boshmoqni ilg‘adi. Hozir salomlashish uchun qo‘lini uzatadi yoki xitob qilib meni to‘xtatadi, deb xavfsirab nafasi ichiga tushib ketdi. Boshini quyi solgancha hamon shaxdam qadam tashlardi... Nihoyat, uning poyabzali notanish odamning boshmoqlari bilan baravarlashdi... Asabi torday taranglashdi! Bu lahzada har qanday arzimagan hodisa ham es-hushidan ayirgan bo‘lardi... Qadam, yana qadam... Begona boshmoqlar g‘oyib bo‘ldi... Tamom, balo-qazo domidan omon o‘tib oldi. Yigirma odimlarcha yurgach, ortidan yana qadam tovushlarini eshitdi: demak, notanish odam yana yo‘lga tushdi. U yengil tin oldi.

Kutilmaganda qor uchqunlay boshladи. Endi u tegirmondan sog‘ chiqqanini o‘ylab quvonar, bu olishuvda g‘olib bo‘lganidan baxtiyor edi. Yiroqlashib borayotgan yo‘lovchi ortiq hech qanday xavf tug‘dirmasdi. Bu yerning odamlari shahardagi qo‘ni-qo‘shnilaridan tamomila boshqacha, kamtarin, hurmat qilishni biladi. Nigohini olib qochganidan afsuslandi. Notanish odamning chehrasiga to‘yib tikilsa bo‘lardi, endi esa hatto qorasi ham ko‘zga tashlanmayotir! Biroz tez yursa, ortidan yetib olishi hech gap emas, lekin buni o‘ylagani ham yo‘q: yaxshi tarbiya ko‘rgan odamlar buni o‘ziga ravo ko‘rmaydi.

Qor kuchaydi. Qo‘llarini tez-tez harakatlantirgancha yelkasini yupqa paxtaday qoplayotgan qorni tushirishga urinardi. Mehmonxonaga qayta qolsa yaxshi bo‘lardi, biroq notanish odam ketimdan izma-iz kuzatib kelayotir, degan xayolga bormasin, deya bu fikrdan qaytdi. Yana ancha yurgandan keyin daraning tubiga yetib keldi: yo‘l mana shu yerda tugardi. Tog‘dan tushayotgan jilg‘a bu yerda shalolaga aylanardi. Xarsangtoshlar-u dov-daraxtlar oralab

yuqoriga o'rلانan so'qmoq e'tiborini tortdi. U so'qmoq bo'ylab dadil ko'tarila boshladi.

Tabiatning barcha ranglarini kulrang parda qoplaganday bo'ldi. Faqat yaqinroqdagi qarag'aylar qorayib ko'rinar, chor atrofga sal bo'lsa ham o'zgacha tus berardi. U yo'ldan adashmaslikka urinib yana uzoq yurdi, so'qmoq bo'yidagi toshlar ham qor ostida arang ko'zga chalinardi. Butun badani hamon qizib turardi. Nafas olishi yana ravonlashdi, keksa yuragi ham pand bermas, bir maromda urardi. Bundan buyon hech kimni uchratmaslikka ishonchi komil bo'lib, miyig'ida kulib qo'ydi. Hech qayoqqa nazar solmay, shitob bilan yuqoriga ko'tarilar, butun e'tiborini shalolaning shovullashi jalb qilgandi. O'qtin-o'qtin tilini chiqarib qor uchqunlarini ilib olardi. Muzday qor uchqunlarini yamlamay yutarkan, bolalar-day quvonardi.

Nishab so'qmoq nihoyat tekislasha boshladi, o'rmon ham siyraklashdi. Laylakqor yana ham kuchaydi. Qor uchqunlaridan himoyalanib ko'zlarini biroz qisib oldi. Qo'q-qisdan oyog'i chuqur bir joyga tushib ketdi. Beixtiyor qandaydir devorga suyanibdi; shamol bu joyga ancha qorni to'plab qo'ygan ekan. Tashlandiq cho'pon kulbasining eshigi ochiq edi. U ichkariga kirdi, qurigan qo'lansa tezak hidi dimog'iga urildi.

Nihoyat, daraga tushib, mehmonxonaga qaytishga, bu yerdan umuman bosh olib ketishga qat'iy qaror qildi. Butunlay sog'ayganini sezib, tog'da qiladigan bo'lak ishi yo'q ekani ko'nglidan kechdi. Ertagayoq poyezdda jo'nab ketadi... Qilt etmay oyoqda turarkan, charchaganini his qildi.

Yonida yotgan yo'g'on to'nkaza cho'nqaydi: yo'l oldidan biroz nafasni rostlab olish kerak. Egnidagi qorlarni qoqar ekan, paltosi nam tortmaganidan ajablandi. Biroq

sochlari ho'l bo'lgandi. Mehmonxonadan chiqishda nahot-ki shlapasini unutgan bo'lsa? Cho'ntagidan dastro'molcha olib, yuzi va bo'ynini artdi. Dastro'mol ho'l bo'lib ketdi, uni bir uyum tezak ustiga uloqtirdi. Nimqorong'i kulbada faqat dastro'molcha oqarib ko'zga tashlanardi. U seskanib ketdi, sovqotganidan emas, balki allaqanday mavhum vahimadan cho'chib tushdi. Ochiq eshikdan lo-pillab qor yog'ayotganini ko'rди, o'ttiz qadamlar naridagi qarag'ay qor pardasi oralab arang ko'zga tashlanardi. Bu yerda uzoq qolmasligi kerak. U qo'zg'aldi-da, kulbadan shoshib chiqdi. O'z izini topdi-yu, kulbada qamrab olgan vahimadan qutuldi. Dimog'iga o'rnashib qolgan tezak hididan xalos bo'lish uchun entikib-entikib nafas oldi. Yo'lga tushgani hamono kulbada biroz o'tirganining o'zi-dayoq teri qotganini tushundi. Isinishga urinib, qo'llarini silkitgancha qadamini tezlashtirdi. Kapalakday laylakqor uchqunlari yuzini chimdilar, kipriklariga qo'nardi. Butun tabiatni oppoq qor choyshabi qoplاب olganday tuyuldi. Hatto shalolaning ovozi ham quyidan arang eshitilardi. Baxtiga, o'zining izlari yaqqol ko'zga tashlanar, qayssi tomonga yurish kerakligini ko'rsatib, ko'nglini xotirjam qilardi. Tepadan pastga tushish oson kechdi. Xirgoyi qilgisi keldi. Biron kimsaning qulog'iga chalinishidan cho'chib, ming'irlab xirgoyi qila boshladи. Daf'atan tanish izlar qor ostida ko'milib borayotganini payqadi. Bu ovloq joylarda adashib ketmaslik uchun shoshilgani ma'qul. U yugura boshladи.

So'qmoq burilishida o'zini to'xtatib qololmadi. U nishablikka ro'para kelib, o'zini tuta olmay qorni bilan yiqildi-yu, yigirma qadamlarcha pastga sirpanib ketdi. Qandaydir buta joniga oro kirdi. O'rnidan turib o'zini biroz tutib olganiga qaramay, qo'l-oyoqlarini xavotirlanib siypaladi. Bir yelkasi biroz simillar, biroq hech qayeri

sinmagandi. To'rt muchasi butunligi uchun shukrona ayt-di. So'qmoqqa chiqib olishga urinib, goh toshlarga, goh butalarning ildizlariga yopishgancha qor changalladi. Biroq urinishlari behuda ketdi. Oyoqlari sirpanar, ushlagan toshlar esa ko'chib tushar, butalarning qurigan ildizlari esa sinib ketardi. Ilkis hayoti xavf ostida ekanini anglatdi.

Mening tog'da nobud bo'lganim haqida gazetada yozi-shadi, degan fikr xayolidan chaqmoqday o'tdi. Falon joyda joylashgan, falon mehmonxonada istiqomat qilayotgan allaqanday janob B. g'oyib bo'lgani oradan bir necha kun o'tgandan keyin odmi gazetalardan birida oshkor qilinadi. Qidiruv ishlari hech qanday natija bermagani ham qayd etiladi. Bunday xabarlarni o'zi ham tez-tez o'qib turar, lekin e'tibor bermasdi.

Biroq bu xabarni qo'shnilaridan biri, albatta, o'qishi va yangilik butun mahallaga zudlik bilan yoyilishi, uni baqqolning ham, qassobning ham, non do'konni sotuv-chisining ham oldida muhokama qilishlarini, hovlisining oldida esa hangomatalablar to'planib olib, uning ism-sharifini eshitib, ichi achigancha boshlarini sarak-sarak qilishlarini o'ylab g'azabga keldi. Va qayerdandir kuch paydo bo'ldi-yu, jon-jahdi bilan tepalikka chirmashib, yuqoriga chiqib oldi...

Nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan odimlaganiga qaramay, qaltis tog' so'qmog'ining tuzoqlarini chetlab o'tolmadidi. Ba'zan kutilmaganda qor bilan to'la o'ralarga tushib, beli-gacha botib ketar va ulardan ming mashaqqat bilan chiqib olardi. Gohida esa muzlagan halqobni bilmasdan bosib olib, muvozanatni yo'qotar va chalqancha yiqilgancha pastga sirpanib ketardi. Bunday kezlarda biron do'nglik saqlab qolar yoki qo'li ilingan butaga yopishardi. O'rnidan turib, yana yo'lda davom etardi. Bir lahza yo'lni topganday bo'ldi. Keyin esa yonbag'irlab aylangan so'qmoq bo'y lab

ellik metrcha yurdi. So‘ng qarag‘ayzorda yana adashib qoldi. Goh shox-shabbalarga osilib, goh daraxtlarning tanasiga yopishgancha tik yonbag‘ir bo‘ylab ketib borardi. Daraxtlarning tagidagi qor yupqa bo‘lib, ehtiyyotkorlik bilan qadam tashlardi va bu unga ishonch baxsh etdi: yo‘q, u hech qachon jurnalistlarning o‘ljasiga aylanib, mish-mishlar sababchisi bo‘lmaydi!

Butun irodasini ishga solib, qat’iyat va jidd-u jahd qilib, daraning tubiga yetib keldi. Ancha holdan toyganiga qaramay, xotirjam edi: axir, sarguzashtlab g‘iybatchilarining umidlari chippakka chiqadigan bo‘ldi. Bu yerda boshidan nimalar o‘tganini hech kim hech qachon bila olmaydi. Uning yoshidagi odamning bunday ahvolga tushishi o‘taketgan bema’nilik ekanini bilar, biroq birorta ham guvoh yo‘qligidan, hech kim unga ta’na qila olmasligini o‘ylab quvonardi. Ob-havo kutilmaganda yomonlashganidan hafsalasi pir bo‘lgan sayohatchiday ertagayoq jo‘nab ketadi va bundan hech kim ajablanmaydi. Uyiga qaytib borganidan keyin esa, ortiq odamlardan o‘zini chetga olmaydi. Hartugul hayotining mana shu yerdarda kechgan bir bo‘lagi qiziquvchan qo‘ni-qo‘shnilar e’tiboridan chetda qoladi.

Nihoyat, tekislikka chiqib oldi. O‘zi kelgan yo‘lni topishdan voz kechib, oldinga yuraverdi. Har safar qadam qo‘yanida oyog‘i to‘pig‘igacha qorga botar, bu uni holdan toydirardi. Yuragi bezovta bo‘la boshlaganidan cho‘chib, asta-sekin, salmoqlab odimlardi. Vahima-ga tushganidan keyin xotirjam qadam tashlash katta kuch talab qilardi. Muzlab qolgan qo‘llarini isitish uchun cho‘ntaklariga soldi.

U to‘xtadi. Muzday qo‘llari bilan asabiy ravishda cho‘ntaklarini paypaslay boshladи. Boshiga qon urdi, keyin esa rangi o‘chdi: kalitni yo‘qotibdi.

Mehmonxonaga yetib borgach, xonasini ochib berishlari uchun sharmandalarcha yalinishini tasavvur qildi. Avval barcha kalitlarni saqlaydigan mehmonxona bekasiga murojaat qilishadi. Hamma xodimlar darhol xabar topadi. U tomoshaqovoqqa aylanadi, paltosi yirtilgani-yu shimi shilta bo'lib ketganiga e'tibor berishadi... Mehmonxona yo'lagida orqasidan shivir-shivirlar kuchayib, hammasi yangidan boshlanadi...

U orqaga o'girildi. Avvaliga iziga qaytib, kalitni qidirishga chog'landi, biroq batamom holdan toygani uchun o'rnidan jila olmadi. Qor gupullab yog'ar, kalitni allaqachon ko'mib yuborgan bo'lsa ajab emas. Darvoqe, cho'ntagidan tushgani hamono qor ostida qolgan. U alamdan toshday qotib qoldi. Sovuqdan titragancha oldinga yurishta ham chog'i kelmedi.

Kuragi sanchdi. Nima uchundir sartaroshini eslatdi, tasavvurida navbat kutib o'tirgan mijozlar gazetadan ko'z uzmasdi. „Oltmish besh yashar qariya tog'da yo'qolib qolganini eshitdingizmi? – Ha. Men uni tanirdim, u ham mijozim edi, rosti juda g'alati odam edi-da. Aytishlaricha, uning...“

U tobora muzlab borayotgan toshday og'ir oyoqlarini zo'rg'a ko'tarardi. A'zoyi badani muzlab qoldi, endilikda oyoqlarini ko'tara olmas, arang sudrab bosar, oppoq qor choyshabini go'yo shudgor qilib borardi... Chang'i uchiladigan maydonga yetib olsa bas. Mehmonxonaga kirmaydi. Ashqol-dashqollari qolsa, qolib ketaversin, avtobusga o'tirradi-yu vokzalga jo'naydi. Poyezdda isinib oladi... U yana bir necha qadam tashladi...

Qor sal sekinlashdi. Chor-atrof yaxshi ko'rina boshladi. Olisda, o'rmonning chetidagi yo'lakka ko'zi tushdi. Yo'l o'sha tomonga boshlab borar, unga uchragan notanish odam o'sha yerda ko'zdan g'oyib bo'lgandi! Bu tog'lik ro'para kelganda unga kulimsirab qaragandi... Boshini

solintirib oyoqlariga nazar soldi, nazarida, o‘z oyoqlari begonaday tuyuldi. Nimani kutayotir? Yordammi? Kimdir kelishi kerak. Albatta, kelishi zarur. Notanish odam hammani oyoqqa turg‘azgan bo‘lsa kerak, qutqaruvchilar yo‘lga tushgan bo‘lsa ajab emas. Qutqaruvchilar, avvalo, hov anavi qorayib turgan o‘rmon chetidagi yo‘lakda paydo bo‘ladi. Ular o‘n kishi bo‘lib, uni shu yerda topib oladi va zambilga solib ko‘tarib ketadi. Keyinchalik mehmonxonalar va mayxonalarda o‘z jasoratlari bilan maqtanishadi. Hammaning e’tiborini tortadigan hodisa bo‘ladi. Katta-yu kichik huzuriga kirib, salomatligi bilan qiziqadi. Keyin esa qo‘li qichigan jurnalistlar...

Yo‘q! Yo‘q! Butun kuchini ishga solib qochishi, qutqaruvchilarning qo‘liga tushmasligi kerak. Muhimi – ularga peshvoz chiqmasa bo‘ldi! Tez berkinishi kerak!

U muzlab qolgan paltosini bir amallab yechdi. O‘rmonning chetidan ko‘z uzmay paltosi bilan o‘z izini yashiranga cha ortga sudraldi. Oyoqlari qotib qolgan, quloqlari esa shang‘illardi. Qaddini arang tutib turganiga qaramay, to‘xtamadi. Nihoyat, qor to‘xtadi. Qo‘llarini cho‘zgancha paltosini changallab turganini payqadi. Go‘yo tulup yoki masxaraboz singari hammaning oldida sharmandalarcha o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotir. Uyatdan yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi.

Bekinishga oshiqib yiqlidi. Egnidagi qora kiyimidan topib olishlaridan cho‘chib, oxirgi kuchini to‘plab o‘zini qor bilan ko‘ma boshladи. Go‘yo uni axtarib chorlayotgan ovozlarni eshitganda, o‘z zarblari bilan e’tiborni tortmaslikka uringanday yuragi urishdan to‘xtadi.

\* \* \*

Uni bahorda topishdi. Hisob-kitobni ham unutib, mehmonxonadan juftakni rostlab qolgan mijozni hamma allaqachon unutgandi. Jasadni hech kim tanimadi. Gazeta-

larda hech qanday xabar bosilmadi, zero, tahririyatdagilar buni e'tibor berishga ham arzimaydigan hodisa deb hisoblashdi.

Uning bog'chasida daydi mushuklar paydo bo'ldi; qari qizlar panjara osha yeguliklar qoldiqlarini uloqtirib, mushuklarni boqardi. Luden shahar fuqarolik holatini qayd etish mahkamasining dalolatnomasiga ko'ra, u endilikda yetmish ikkiga kirgan bo'lardi. Basharti hech vaqo o'zgarmasa, dalolatnomada hatto yuzga kirgani ham qayd etilishi hech gap emas.

---

## HAYOTGA MUHABBAT

Palmadagi qizg'in hayot kechasi bozor ortidagi ko'ngilochar qahvaxona atroflariga ko'chadi: boshqa ko'chala larga tun qorong'isi va osudalik cho'kkani bir pallada qahvaxonalarining chiy parda tortilgan eshiklaridan nur yog'ilib, musiqa sadolari eshitiladi. Ana shunday qahvaxonalaridan birida deyarli tongga qadar qolib ketdim. Qahvaxona chor qirrali bo'lib, shifti qo'l cho'za yeta-digan darajada past, ko'kimtir rangga bo'yalgan va mo-viy naqshlar chaplab tashlangandi. Taxta shiftidagi son-sanoqsiz qip-qizil chiroqlar ko'zni qamashtiradi. Kaftday joyda orkestr ham, rang-barang shisha idishlar terib tashlangan rasta ham joylashganki, aql bovar qilmaydi. Qolaversa, qahvaxona tirbandligidan mijozlarning tirsagi tirsagiga tegib turadi. Faqat erkaklar. O'rtaliqda atigi ikki quloch ochiq maydoncha. Ofitsiantlar qahvaxona bo'y lab ulashib yurgan shishalar-u stakanlarda qizil chiroqlar shu'lesi shafaqlanadi. Bitta ham hushyor yo'q. Hamma baravar baqiradi. Qandaydir shirakayf dengiz zobiti men-ga iltifot ko'rsatadi. Yoshini bilib bo'lmaydigan bo'yi bir qarich kimsa esa boshidan kechirganlarini hikoya qiladi. Men esa uning hasratini tinglaydigan kayfiyatda emas-man. Orkestr to'xtovsiz faqat bitta kuyni chaladi, biroq mijozlar oyoqlari bilan yerni tapillatganlari uchun faqat kuy ohangini ilg'ayman.

O'qtin-o'qtin eshik ochiladi. G'ala-g'ovur oralab ki-

rib kelgan yangi mijozga darhol kimlarningdir o‘rtasidan joy topib berishadi. Daf’ atan hushyorlikka chorlovchi sadolar ostida o‘rtaliqdagi kaftday sahnda bir qiz xirom qila boshlaydi. „Yigirma bir yashar“, – deydi imo qilib dengiz ofitseri. Hayratdan haykalday qotib qolaman. Chehrasi yosh boladay beg‘ubor, biroq jussasi xarsangtoshday katta. Bo‘yi ham uzun – boshi naqd shiftga tegay deydi. So‘laqmonday gavdasi kamida bir yuz yigirma kilogramm tosh bossa ajab emas. Qo‘lini beliga qo‘yib olgan, sarg‘imtil to‘qima trikodan oppoq badani xamirday toshib chiqayotganday ko‘rinadi, boz ustiga og‘zi qulog‘iga yetguday irshayadi. Qahvaxona quturgan dengizday junbishinga keladi. Mijozlarning barchasi nainki uni tanishi, hatto shaydo ekani, chiqishlarini intizorlik bilan kutishi yaqqol seziladi. Labidan tabassum arimaydi. Nigohi bilan mijozlar ko‘ngliga g‘alayon soladi. Hamon sukut saqlagancha tabassum ulashadi, biroq tog‘oraday qornini behayolarcha o‘ynatishga tushadi. Zal hayqiradi, barcha, aftidan, o‘zlariga tanish ashulani talab qila boshlaydi. Nihoyat, xonanda andalus xalq ashulasini boshlab yuboradi, bu xufyona, deyarli jirkanch xirgoyi bo‘lib, har uch taktdan keyin nog‘oralar sadosi quloqni qomatga keltiradi. Qiz tinmay kuylaydi, nog‘oralar sadosiga hamohang ishva bilan muqom qiladi. Yelkalarini uchiradi. Mahliyo bo‘lgan zaldagilar es-hushini yo‘qotadi. Ashulaning naqorati-ga kelganda atirgulday alvon og‘zini katta ochgancha qo‘sish qaytaradi, zaldagilarning barchasi g‘ala-g‘ovur bilan o‘rnidan qalqib, unga jo‘r bo‘ladi. Xonanda esa terga botib, badaniga yopishib turgan tor to‘qima kiyimda yana ham semizroq tuyulganidan qat‘i nazar, qomatini g‘oz tutgancha telba mijozlar hukmroniga aylanadi. Ayni soniyalarda u dengizdan chiqib kelayotgan betavfiq ma‘budaga o‘xshaydi: beparvo alfozda ko‘zları jovdiray-

di, chopacha-chopacha toliqqan to'riq kabi tizzalari qaltiraydi. Mijozlar baqirib-chaqirib olqishlaydi, u esa barqaror va ilhombaxsh hayot qoyasiday yana ham e'tiborni tortadi: umidsiz ko'zları ma'nisiz charaqlaydi, ter tomchilari qor-ni bo'ylab marjonday tiziladi...

Qahvaxona va gazetalarsiz sayohat tatimaydi. Ona tilingda chop etilgan gazeta hamda duch kelgan odam bilan ulfatchilik qilinadigan qahvaxona yettiyot begona mahalliy odam bilan bamaylixotir oshnachilik qilishga ko'maklashadi. Zotan, sayohatchi hamisha hadiksirab qadam tashlaydi. Hadiksirash esa ko'ngil xotirjamligiga rahna soladi. Xizmatda, ishlayotgan kezlarimizda asl qiyofamizni niqoblashga ko'nikib qolganmiz, sayohat chog'ida bunday ayyorlikni eplay olmaymiz. To'g'ri, xizmatda munofiqlik qilmaslikka har doim harakat qilamiz, biroq ayni shu xislat bizlarni iztirobli yolg'izlikdan qutqarmaydimi?! Men har doim shunday roman yozishni orzu qilamanki, uning qahramonlari vaqtı-vaqtı bilan: „Agar xizmat bo'limganda, holim nima kechardi?“ degan bo'lardi. Yoki: „Xotinimdan judo bo'ldim, biroq yaxshi ham baxtinga meni bu kulfat-dan chalg'itadigan ish bor, bir dunyo hujjatlarni ko'zdan ke-chirishim zarur“, – deb o'ziga o'zi taskin berardi. Sayohat bizlarni mana shunday boshpanadan mahrum qiladi. Ona tilingda gapiradiganlar va yor-u birodarlaringdan olisda, odatiy niqoblar-u tayanchlardan ayro tushgan holda (axir, begona shaharda hatto tramvay chiptasining narxini ham bilmaysan), asliyatimiz bilan yuzma-yuz kelamiz. Biroq begona sharoitda o'zimizni har qancha noqulay sezmaylik, har bir ashyo-yu har bir jonzotning chinakam afsungarlik mohiyatini kashf etamiz. Telbalarcha raqs tushayotgan juvon yoki tamaki tutuni ortidan ko'zga chalingan shisha ham – barcha-barchasi ramziy ma'no kasb etadi. Bularning barchasida hayot yaxlit aks etayotganday tuyuladi, ayni

ashyolar-u odamlarda o'zimizning mavjudligimiz ham in'ikos etadi. Biz shunday lahzalarda hayot ne'matlarini o'zgacha jo'shqinlik bilan his etamiz, rang-barangligidan sarmast bo'lamiz, nihoyat, qalbimiz ko'zi yaraqlab ochil-ganday bo'ladi. Sirasini aytganda, meni Yer yuzidagi biron-bir joy O'rtayer dengiziday begona-yu ayni paytda qadrdon go'shaday rom qilmagan.

Palmadagi qahvaxonada ham ayni shunday kechinmlar og'ushida qoldim. Biroq choshgohda, yirik ibodatxonaning yalang gumbazlari ostida, qadimiylar saroylarning keng hovlilarida, ko'lanka qoplab olgan ko'chalarda meni qandaydir sinoat sehrlab qo'ydi. Ko'chalarda zog' ham ko'rinxaydi. Balkon derazalari ortidagi kampirlar haykalga o'xshab qimir etmaydi. Imoratlar yonida odimlab, yum-yumaloq kulrang ustunlar ro'parasidagi yam-yashil gulzorlar oldida to'xtaganimda, o'zligimni batamom unutdim, o'z qadamlarimning sadosiga, hali quyosh nurlari jilva qilayotgan yuksak devor uzra ko'zga chalingan qush to'dalarining parillab uchishlariga do'nardim. Men Avliyo Fransisko ibodatxonasida ancha qolib ketdim. Uning zar bilan qoplangan purviqor ustunlari barcha ispan yodgorliklari singari yarqirab ko'zni qamashtiradi. Hovlidagi pushtirang dafna ham, manzarali qalampir buta ham, tepasiga zanglagan zanjirli cho'zinchoq cho'mich ilingan naqshin panjarali quduq ham esimda. Odamlar to'xtab quduqdan suv ichardi. Cho'mich quduq toshlariga urilganda chiqqan aks sado ba'zan quloqlarim ostida ro'yirost jaranglaydi. Bularning barchasidan qat'i nazar bu ibodatxonada qizg'in xayot nafasini his qilmadim. Kabutarlar to'dasining mustargina qanot qoqishlarida, bog'ning allaqaysi kunjaklariga bekinib olgan favqulodda osudalikda, quduq zanjirining g'aribona jiringlashida o'zim uchun yangi, ayni paytda yuragimga juda yaqin jihatni kashf

etdim. Men bunday uyg'unlikdan zavqlanardim. Shaffof billur ko'zguda olam qiyofasini ko'rganday bo'ldim, lekin arzimagan qo'pol xatti-harakat bilan bu ko'zgu darz ketishi mumkinligini ham sezib turardim. Nimadir hammasini izdan chiqarishi kerakday edi: kabutarlar havoda jon taslim qilishadi va qanotlarini majolsiz yoygan holatda yerga ina boshlaydilar. Yolg'iz mening jim va tosh kabi qotib turganim tush singari bu manzaraga barqaror tus berardi. Men o'yin qoidalarini buzmadim. O'zimni al-dashlariga yo'l qo'yagan tarzda ko'z o'ngimdag'i olam manzaralariga moslashdim.

Oltin oftob barkashi cherkovning sarg'ish g'ishtlarini ilitardi. Qandaydir xotin quduqdan suv oldi. Bir soat, bir daqiqa, bir soniyadan keyin, hatto hozirning o'zidayoq bularning barchasi barbod bo'lishi mumkin. Biroq afsungar hayot davom etardi. Avvalgidek olam ham azaliy o'zorida kechardi – bokira, ayni paytda xiyol istehzoli, xufyna edi. Intiho tuyg'usi bilan yo'g'rilganidan qat'i nazar muvozanat buzilmadi.

Mening hayotga muhabbatim ayni shu o'rinda mujassam edi: istalgan soniyada qo'ldan chiqishi mumkin bo'lgan sirli manzaraga sassiz ehtirosli mahliyolik, asriy sharob tubidagi achchiq quyqa.

Bu cherkovdan har oqshom ortga qaytar ekanman, bir lahzali halovat topgan jumlayi jahon teranliklari bilan ming mashaqqat bilan xayrleshardim. O'shanda Dorida Appolonlarining so'qir ko'zları va toshday qotib qolgan Djotto qiyofalari nima uchun yodimga kelgani bejiz emas. Ayni shunday lahzalarda shunga o'xshagan mamlakatlardan nimalarni o'rganishim mumkinligini yaqqol his etardim. O'rtayer dengizi sohillari meni hayratga solardi, bu yerda men hayotning mustahkam negizini his etardim, tafakkurimni yana ham boyitib, qalbimdagi nekbinlik

va bashariy hamjihatlik tuyg‘usi yana ham qanotlanardi. Lekin meni, asosan, insoniy mezonlar bilan yaratilgan va aynan inson siyemosida o‘z tajassumini topgan olam hayratga solgan emas. Yo‘q, basharti ayni mamlakatlar xalqlarining tilidagi nimadir yuragimga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, bu ayni tilning o‘ziga xosligi mening ko‘nglimdagi muammolarga yechim topib bergenida emas, balki o‘sha muammolarning barchasi behuda ekanni fosh etgani bilan bog‘liqdir. Qolaversa, tashna yuragimga huzur-halovat emas, aksincha, ulug‘vor Mavhumiyat sehri o‘zgacha shukuh baxsh etdi, zero, bu o‘lkalarning otash oftob taftida qovjiragan adirlaridagina sirli Mavhumiyat qaror topadi. Zotan, hayotga muhabbat umidsizlik bilan payvasta.

Ibizada kun sayin bandargoh bo‘ylab yastangan qah-vaxonaga qatnadim. Asrdan keyin mahalliy yoshlar sohilda qo‘ltiqlashib kezib yurishardi. Ayni shu yerda yoshlarning taqdirlari bog‘lanar, umuman, ularning hayotidagi eng muhim voqealar sodir bo‘ldi. Va men beixtiyor shunday fikrga keldimki, hayotning ayni shu asno, hammaning ko‘z oldida boshlanishi – o‘ziga xos bir ulug‘vorlikka ega.

Peshindan keyingi issiqliqdan biron soya-salqinda panoh toparkanman, oppoq ibodatxonalar-u ularning surrang devorlari, issiqliqdan jizg‘anak bo‘lgan qirlar-u hurpay-gan zig‘ir bog‘lari ko‘z o‘ngimdan ketmasdi. Men sharbat ichdim. Tuya o‘rkachiday adirlar pinhona dengiz sari talpinayotganday tuyuladi. G‘ira-shira shom qorong‘isi ko‘kimir tus olganday. Shomda dengiz tomondan esgan shabada eng baland adir ustidagi tegirmon parraklarini harakatga keltiradi. Daf’atan, go‘yo sehrli tayoqcha amri bilan barcha sadolar pasaydi. Menga bepoyon osmon-u, tobora yuksalib borayotgan, biroq olis-olislardan arang

eshitilayotgan navolardan bo‘lak hech vaqo yo‘qday tuyuldi. Yorug‘lik o‘z o‘rnini tun zulmatiga bo‘shatib berayotgan mana shu qisqa fursat mobaynida olamni na biron bir odam va na butun odamzod anglay olmaydigan allaqanday tuyg‘u qoplab oldi. Ba’zida odam o‘zini ko‘zyoshi qilishdan tutib tura olmaganidek, daf‘atan yuragimda mehr-muhabbat to‘lib-toshdi. Bundan buyon mudrab o‘tkazilgan har bir soat qizg‘in hayotga xiyonat bo‘ladi, deb o‘yladim... Ya’ni allaqanday mavhum umidlar fursatidan. Palmadagi qahvaxona va Avliyo Fransisko ibodatxonasi dagi sehrli soatlarda butun olamni kaftimda tasavvur qilgandek g‘aroyib holat qarshisida ojiz alfovza yana haykalday qotib qoldim.

Men nohaq ekanimni juda yaxshi bilaman: jumlayi jahon bilan uyg‘unlikning ham chek-chegarasi bo‘lishi kerak. Zotan, faqat shunday antiqa holatda inson nimadir yarata oladi. Biroq muhabbat haqiqatan ham chegara nima ekanini bilmaydi, mayli, noshud bo‘lsam bo‘la qolay – gap bunda emas, – muhimi barchani, butun olamni bag‘rimga jo qila olaman. Genuyadagi ayollar esimga tushadi: har tong ularning tabassumiga mahliyo bo‘lardim. Bilaman, chamasi, ularni ortiq hech qachon ko‘rmayman. Yuragimni o‘rtagan achchiq armonni ifodalay olmayman. Avliyo Fransisko ibodatxonasi dagi mo‘jaz quduq hamon ko‘z oldimda – men kabutarlarning parvozini kuzatarkanman, tashna ekanimni ham unutardim. Lekin vaqt o‘tib borar ekan, bu manzaralar ko‘z oldimda qayta-qayta paydo bo‘laveradi.

## CHINNIGULLI YIGIT

– Qo‘rqmang, mademuazel, qo‘lga olingenlar sizni ko‘rmaydi.

Lyusena, aslida, hozircha qo‘rqlayotgandi. Faqat xona-ni sinchiklab ko‘zdan kechirdi. Ikki politsiyachi ixcham reflektor chiroqlarni devor tomon to‘g‘rilashdi, stullarni olib qo‘yishdi. Qizning ko‘ngli xijil bo‘ldi – mehnat ta’tili tugashiga bir necha kun qolgan bo‘lsa ham bugun kech-qurunoq Barselonadan jo‘nab ketadi. Uch politsiyachi-ning bittasi, qotma, qoramtilar Alvaro yasama oliftaligi bilan Lyusenaning ensasini qotirdi.

– Qanchalar shahlo ko‘zlar tikilganini ular hech qachon bilishmaydi!

Shilqim! Qiz qizarib ketdi. Ehtiyyotsizlik qilgani uchun o‘zidan yana bir bor o‘paladi.

Yo‘lakdan odamlarning asta gaplashgani, qadam to-vushlari eshitildi. Tergov tugamaguncha politsiya mahka-masida ushlab qolishlari ham ehtimoldan xoli emas, u holda poyezdga kechikadi. Lyusena bu shaharni imkon boricha tezroq tark etishga oshiqar, allaqanday xavotir sira tinchlik bermasdi.

– Besh daqiqadan keyin hammasi yakun topadi, – dedi Alvaro.

Nahotki, Lyusena hayajonlanayotganini bildirib qo‘ydi? Keng xonada, to‘g‘rirog‘i kamerada oyog‘ini chalishтирив o‘tirarkan, qiz erinmay lablarini bo‘yar ekan,

pardoz qutichasidagi ko‘zgu bilan politsiyachilarni zimdan kuzatardi.

„Keyingi safar tilimga ehtiyyot bo‘laman“, – degan fikr uning ko‘nglidan kechdi.

Hammasi o‘tgan kechasi boshlandi. Iyul tunida dimiqib ketgan Lyusena toza havodan nafas olish uchun balkonga chiqdi. Mehmonxona balkonidan shohko‘cha, yarim kecha bo‘lgani uchun deyarli ship-shiydam bo‘lib, ahyon-ahyonda bandargoh tomon yuk mashinalari o‘tib turardi. Qiz dengiz shamoliga yuzini tutib, yengil nafas olarkan, uch haftalik ta’tilning yarmi Tanjerada do‘stlari davrasida ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketganini eslab shirin entikdi.

Daraxtlarning panalarida chopib kelayotgan bir yigit beixtiyor Lyusenaning e‘tiborini tortdi. Qiz ermak topilganidan xursand bo‘lib uni kuzata boshladi. Yigit ro‘znomalar do‘konni yonida to‘xtab, qo‘ynidan tezda katta varaqacha chiqardi-da, yelimlaganidan keyin devorga yopishtirdi. Lyusena xira chiroq yorug‘ida yirik qizil harflar bilan yozilgan „Pueblo“ so‘zini o‘qiy oldi, xolos. Boshqa so‘zlarni bunday masofadan o‘qiy olmadidi. Shu pallada qiz churulagan hushtak ovozini eshitdi. Yigit xavotirlanib o‘sha tomonga qaradi. Keyin esa beixtiyor balkonga ko‘z tashladi. Lyusena hurpaygan sochli yigitning yuzini aniq ko‘rdi. Yigit oyog‘ini qo‘lga olib qochdi. Hech qancha o‘tmay tuyulishda paydo bo‘lgan uzun qora mashina chiroqlari porlagancha mehmonxona tomon katta tezlikda yaqinlasha boshladi. Osuda tun bag‘ri darz ketganday bo‘ldi. Mashina ro‘znomalar do‘konni qarshisida to‘xtadi, politsiya ofitseri varaqacha tomon yugurdi va uni devordan g‘azab bilan shilib oldi. So‘ng politsiyachilar yigitning izidan tushdi. Olis bandargohdan shatakchi qayiqning sirenasi eshitildi. Lyusenaning eti uchganday bo‘ldi va xalatiga o‘ralib oldi.

Kutilmaganda o‘q ovozi yangradi, qizning nazarida, yon-ginasida qarsillab eshitilganday bo‘ldi...

Ertalab umumiyl dasturxon ustida qariya kechasi o‘q ovozidan uyg‘onib ketdim, deya shikoyat qildi. Lyusena tunda ko‘rganlarini soddadillik bilan oqizmay-tomizmay gapirib berdi: bir yigit, yashirin guruhning a‘zosi bo‘lsa kerak, do‘koncha devoriga varaqqa yopishtirdi; quvib ke-layotgan politsiyachilar unga qarata o‘q uzishdi. Davradagi-lardan hech kim savol bermadi, shuning uchun ortiqcha izohga hojat qolmadi. Davradoshlarining befarqligi Lyuse-nani ajablantirdi, birpasdan keyin esa hammasini unutdi. Nonushtadan keyin bir soat o‘tgach, qiz mehmonxonadan chiqib ketayotganda boshqa politsiyachilar bilan birga Alvaro ham uning yo‘lini to‘sib, bir necha savol berdi. Lyusena endi o‘ylab gapirishi kerakligini angladi, zero, mehmonxo-na bekasi Ruis ham ko‘zini uzmay tikilib turardi. Lyusena yigitning yuzini ko‘ra olmadim dedi. „Birinchidan, chiroq-ning yorug‘i juda xira edi, ikkinchidan, hammasi shuncha-lik tez sodir bo‘ldimi, e’tiborga molik biron jihatni eslab qolishga ulgurmadm“, deb aytdi.

Alvaro qizning javobidan qoniqqanday edi, biroq qizga shubha bilan tikildi. Inspektor Lyusenaning xonasiga chi-qishi lozim, dedi. Qiz asabiylashib norozilik bildirdi, lekin politsiyachi beka bilan birga zinapoya bo‘ylab ko‘tarila boshlaganini ko‘rib ularning ortidan ergashdi. Lyusena-ning noroziligi inspektoring e’tiborini tortdi. Alvaro balkonga chiqib, do‘koncha va unga tutash ko‘chaga bir necha daqiqa diqqat bilan tikildi. Shu asno hammasi yakun topganday edi.

Lyusena tushdan keyin cho‘milishdan qaytganda meh-monxona vestibulida ikkita politsiyachiga ko‘zi tushdi. Ular, chamasi, uni uzoq kutishgandi, stol ustidagi kuldon chekib tashlangan sigareta qoldiqlari bilan to‘lib ketgandi.

Alvaro muhrlangan rasmiy qog'ozni ko'rsatganiga qaramay, oldiniga ular bilan birga borishdan bosh tortdi. Lenkin inspektor juda nazokat bilan, labidan tabassum arimay qizning qo'ltig'idan oldi.

— Arzimaydigan xizmat. Bir necha daqiqa vaqtingizni ayamasangiz bo'ldi, faqat bitta rasmiy ishni ado etsangiz bas...

...Daf'atan ikkala reflektor ham porladi, ro'paradagi devor hatto ko'zni qamashtira boshladidi. Hozirgina yo'lakdan kameraga kiritilgan odamlar ham ko'zlarini qamashib nigohlarini olib qochishdi. Ular sakkiz kishi bilan, hammasi odmi kiyengandi. Ayrimlarining oshkora hayajonlanayotgani sezilib turardi. Faqat chapdan uchinchi turgan odam hech gap bo'lmaganday o'zini xotirjam tutardi. Manglayi keng, iyagi ixcham yigitni Lyusena darrov taniidi — varaqani yopishtirgan aynan shu edi! Uning saxtiyon kamzulining yuqori cho'ntagidan oppoq chinnigul chiqib turardi, biroz eskirgan odat bo'lsa ham, bu bezak yigitta o'zgacha ko'rak bag'ishlardi. U butun qiyofasi bilan aybdor emasligini, politsiya behuda vaqt sarflayotganini ta'kidlardi.

Ha, bu rostdan ham sochlari hurpaygan, yoqimtoy o'sha notanish yigit edi. Lyusena bilan deyarli tengdosh — yigirma olti-yigirma sakkiz yoshlarda.

Yonma-yon turgan gumondorlar yorqin chiroqqa tik qaray olmay ko'zlarini tez-tez pirpiratardi. Ularning ba'zilari qorong'ilik ichra o'tirgan Lyusenani ilg'ashga urinardi. Qiz xijolat cheka boshladidi. Muhimi politsiyachilar har bir xatti-harakatini kuzatib turgan ayni pallada o'zini qo'lga olib, sir boy bermasligi kerakligini tushundi. Asoysiisi — devor oldida tik turganlarning har biriga sinchiklab tikilmasligi, hayajonini ham bildirmasligi kerak. Lyusena eng chetda turgan odam tomonga o'girildi va uning yuzi-

dagi qotib qolgan qonni ko'rib, nafasi bo'g'ildi. Politsiyachilarga bularning ichida sizlar izlayotgan odam yo'q, deya sal bo'lmasa baqirib yuborayozdi. Biroq tili kalima-ga kelmadi. Ortida turgan politsiyachilar uning fikrini kutishardi. Politsiyachilar jinoyatchini yaxshi tanib olish uchun qiz ularni sinchiklab ko'zdan kechirayotir deb o'ylab, uni o'zlarining gumashtasi hisoblagan bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Bu fikr Lyusenaning ko'nglidan kecharkan, eti jimirlab ketdi. Goh unisi, goh bunisi tikilar ekan, qiz gumondorlarning ko'nglidan kechayotgan turli xavotirli fikrlarni ham uqqanday bo'lardi. Faqat cho'ntagiga chinnigul solib olgan yigit hamon xotirjam edi. Yigit Lyusenaga sira e'tibor bermasdi, lekin barcha qatori u ham talab qilingandek, boshini o'ngga o'girib, qo'llarini tushirgancha itoatkorona turardi.

- Xo'sh, – so'radi pakana Alvaro.
- U bularning ichida yo'q.
- Hech birini tanimadingizmi?

Lyusena yelka qisdi. Sal bo'lmasa yig'lab yuboray dedi, biroq butun irodasini ishga solib, o'zini qo'lga oldi.

Cho'ntagiga chinnigul solib olgan yigitning hurpaygan sochlari projektorlarning porlagan yorug'i ostida metall qalpoqday tuyuldi.

- Anavi ko'k kiyimli emasmi... yaxshiroq qarang!
- Alvaro go'lax kiyimidagi jag'lari qovushgan, qarashlari qahrli yigitga ishora qildi.
- Uni ham sizning mehmonxonangiz yonida qo'lga olishgan.
- Aytdim-ku, hech kimni taniy olmayapman.
- Afsus, – dedi alamini arang ichga yutib Alvaro. – Nahotki esingizda qolmagan bo'lsa?

Lyusena bu pakana politsiyachidan nafratlana boshladi. Surbet, yolg'onchi! „Arzimagan rasmiyatçilik“ emish!

Bu sharmandali tomosha nahotki shunchaki rasmiyatchilik bo‘lsa! Qiz shaxt bilan o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Sabr-toqati tu-gayotganini sezdi. Alvaro undan ko‘z uzmasdi. Bu mas-xarabozlik poyoniga yetganini anglatish uchun qo‘lga olin-ganlarga orqa o‘girib oldi.

– Bir soniya, mademuazel. Balki, uning yonida turgan kimsadir?

– Anavi qariyami?

– Uning chap tomonidagi, ko‘kragida gul bor yigit.

– Yo‘q, u emas, – dedi Lyusena.

Biroq hayajonini ovozidan bildirib qo‘yganini sezib, nafasi ichiga tushib ketdi.

Kameraga azobli sukut cho‘kdi, Alvaroning sovuqdan sovuq bo‘g‘iq ovozi go‘yo yerning ostidan kelayotganday eshitildi:

– Qat’iy fikr aytishga oshiqmang. Nazarimda, bu yi-gitni taniysiz.

Lyusena qo‘rqib ketdi. Alvaro pixini yorgan tergovchi. Guvohlarni ham bulbulday sayratishga ustasi farang bo‘lsa ajab emas.

– Hurpaygan sochlarni qarang, qorong‘i kechada ham boshqalar orasidan uni tanib olish hech gap emas, – dedi Alvaro.

Lyusena yana ortga o‘girildi. Qo‘lga olingen sakkiz nafar odam o‘z taqdiri hal bo‘lishini kutardi. Ko‘krak cho‘ntagiga chinnigul taqib olgan yosh yigit hamon o‘zini xotirjam tutar, biroq uning ko‘zlarida allaqanday istehzo uchqunlari porlardi... Do‘konchaga varaqani u yopishtir-ganini bilishsa, sheriklarining ism-shariflarini aytishni tabal qilib, o‘lguncha kaltaklashadi, azoblashadi, keyin esa uzoq muddatga qamoqqa tiqishadi. Lyusena shularni o‘ylab dahshatga tushdi.

Yana inspektor tilga kirdi:

– Chamasi, bu yigit boshqalarga qaraganda sizni ko‘proq qiziqtirayotir?

Lyusena ilkis cho‘chib tushdi. Lekin zo‘rma-zo‘raki jilmaydi-da, biroz kinoya bilan dedi:

– Meni-ya? Albatta! Qop-qora sochlari mahliyo qildi.

Alvaro ham kuldi. Lyusena nahotki xato qildim, sir boy berib qo‘ydim, degan fikrdan vahimaga tushdi. Lekin inspektor xiyol engashib, tagdor qilib ta’kidladi:

– Bu kelishgan Romeo ertami-kechmi o‘z Julyettasini topadi...

– Ehtimol...

Lyusena chiqish eshigi tomon yurdi, eshik oldida esa ikki barvasta politsiyachi qo‘llarini orqasiga qovushtirib, oyoqlarini keng yozgancha vajohat bilan toshday qotib turardi. Balki, bunda ham bir ayyorlik bordir. Ular o‘z vajohati bilan uning yuragiga vahima solib, biron harakati va ishorasi bilan sirni fosh qilib qo‘yishini xohlayotgandir. Soqchilar unga yo‘l berishdi. Alvaro ham ergashib yo‘lakka chiqdi va quyuq minnatdorchilik bildira ketdi. Lyusena quruq javob qaytardi:

– Minnatdorchilikka arziydigan hech ish qilganim yo‘q.

Ular yop-yorug‘ yo‘lak bo‘ylab yonma-yon ketib borardi. Yorug‘lik yon tomondan tushar, Alvaroning yuzini nimko‘lanka qoplagani bois qizga yana badjahl, hatto shafqatsizday ko‘rindi.

– Sizga sidqidildan minnatdorchilik bildiryapman. Axir, bizga yordam berish uchun astoydil urindingiz. Umid qilamanki, jinoyatchini tanigan bo‘lsangiz, kimligini ni-hoyat menga aytasiz.

Alvaro qizdan sal orqada, yo‘lakka yotqizilgan tosh plitalarni qarsillatib, shaxdam qadam tashlab kelardi. Lyusena

unga siz qattiq yanglisyapsiz, demoqchi bo'ldi. Yuragida qahr-u g'azabi tug'yon urdi, biroq so'nggi lahzada o'zini bosib, indamay qo'ya qoldi.

– Nahotki indamay ketaversangiz? – hafsalasi pir bo'lib so'radi inspektor.

Lyusena taksiga o'tirib mehmonxonaga keldi va narsalarini shoshilinch yig'ishtirib, vokzalga yo'l oldi. Perron gavjum, vokzal radiokarnayidan uzuq-yuluq gaplar eshitilardi.

Vagon hali huvullab yotar, hatto chirog'i ham yoqilmagandi. Uning kuplesida ham hech kim yo'q ekan. Lyusena o'z joyini topib, chiptaga qarab raqamni yana bir bor tekshirdi. Peshtaxtada nimadir yotar, biroq Lyusena qorong'ida nima ekanini bila olmadi. Avvaliga ajablandi, keyin biroz hayajon bilan chiroqni yoqqandi, bir dasta oq chinnigulga ko'zi tushib, ko'ngli yorishib ketdi.

Yangi uzilgan gullar olovday qizil tasma bilan bog'-langandi. Guldastadan bahor nafasi ufurardi. Lyusena shosha-pisha vagon derazasini tushirdi-da, perrondagi odamlarни ko'zdan kechira boshladi, lekin, nazarida, unga hech kim e'tibor bermadi. Ikki kampir inqillab-sinqillab vagonga ko'tarildi; askarlar devordan chiqib turgan jo'mrakka idishlarini tutib, to'ldirib olishdi... Qo'shni temiryo'l izlari bo'ylab parovoz sir panganday deyarli sassiz o'tib ketdi. Radiokarnay orqali esa kimnidir axtarib behuda chorlashardi. Go'yo kimsasiz cho'ldagiday...

Lekin bu yer biyday biyobondan tamomila boshqa joy ekanı Lyusenaning ko'nglidan kechdi. Nihoyat, yelkasidan tog' ag'darilganday o'zini yengil his qilar, eng muhimi kimningdir g'oyibona mehrini tuyib entikardi. Qo'lida bir dasta chinnigulni ushlagancha poyezd joyidan jilmaguncha vagon derazasidan nari ketmadi...

## SO'NGGI DARS

Men o'sha kuni maktabga kechikib bordim. Bunga sabab o'qituvchim janob Xamelning darsda bergen savoli va mening javob berolmay sinfda izza bo'lganim edi. Shundan keyin maktabga borishni jinim suymay qolgan, „Darsga kirmasammikin?“ deb ham o'ylagandim. Havo shunday issiq va yorug'ki... qushlar o'rmonda daraxtma-daraxt qo'nib shodon sayrashadi. Lekin bularning bari qoidani buzishimga yo'l qo'ymasdi: men shosha-pisha maktab tomon ketib borardim. Shaharchani kesib o'tarkanman, odamlar „Xabarlar taxtachasi“ qarshisida bir to'p bo'lib turganiga ko'zim tushdi. So'nggi ikki yil ichida sodir bo'lgan barcha noxush voqealarni biz shu yerdan bilib olardik: janjallar, chaqiruvlar, buyruqlar va hokazo. Men darrov o'yladim: „Yana qanaqa buyruq chiqibdi ekan?“ Bu yerda alanglamay, yana shoshgancha yo'limda davom etayotgandim, odamlar orasida turgan temirchi Vochter men ga qarab qichqirib qoldi:

— Bunchalik shoshma, bolakay. Maktabga borishga hali ulgurasan.

Uning ustimdan kulayotganini sezdim.

Maktabimizda darslar, odatda, shovqinli bo'lar, shuning uchun baland ovozlarimiz bemolol tashqariga eshitilib turardi. Lekin bugun maktabga yaqinlashganimda ahvol bunday emasdi. Maktab go'yo yakshanbaday tinch, sinfimiz derazasidan ko'rinish turgan o'quvchilar jum, o'qi-

tuvchimiz esa tund qiyofada u yoqdan bu yoqqa yurib turardi. Men asta eshikdan mo'raladim. Hozirgi ahvolimni tasavvur qilgandirsiz? Ammo kutganim sodir bo'lmadı. Janob Xamel menga muloyimlik bilan o'girildi:

— Sensiz darsni boshlab qo'ydik-ku! Qani kira qol, kichik Frans, joyingga o'tir.

Men tezda partamga joylashdim. So'ng biroz cho'chib janob Xamelni kuzatdim. Qiziq, bugun u chiroyli yashil splash, yaltiroq shim va kichkina qora ipakli bosh kiyim kiygandi. U, odatda, maxsus kunlar yoki bayramda shunday kiyinardi. Menimcha, bundan faqat mengina hayron emasdim. Eng hayratlanarlisi, doim bo'sh turadigan orqadagi stol-stullarni qishloq ahli gallab o'tirgandi: keksa mayor, pochtachi va yana bir nechta kishi. Hammasining qovog'i soliq edi. Bir payt o'qituvchimiz joyiga o'tirdi va o'sha muloyim va yumshoq ohangda davom etdi:

— Aziz o'quvchilarim, bugun sizlarga oxirgi darsimni o'taman. Berlindan buyruq keldi: Elzas va Lotoringiya maktablarida darslar faqat nemis tilida o'qitilishi shart ekan. Yangi o'qituvchi ertaga keladi. Bugun bizning fransuz tilidagi so'nggi darsimiz. Sizlarni darsga e'tiborli bo'lishingizni so'rayman.

Miyamga bir nima urilganday bo'ldi. Mening oxirgi fransuz tilidagi darsim! Shunday bo'lishi mumkinmi? Nega unda yozishni yaxshiroq o'rganmadim? Endi esa hech qachon o'rganolmayman. Qanchalar afsuslanyapman... essiz mening g'animat vaqtim. Ko'zimga xunuk ko'ringan qalin kitoblarim, grammatikam, tarixim... qadrdon do'stlarim ekan-ku. Janob Xamel-chi? U ketadi va men uni boshqa ko'rolmayman, uning saboqlari va qattiqqo'lligi ham o'zi bilan birga ketadi. Bechora o'qituvchim! Demak, bekorga bunday kiyinmabdi-da, odamlar ham bejiz to'planmagan: hammasi uning ketayotganidan afsusda... O'ylarim bilan

ovora o‘tirganimda, mening ismim yangradi: javob beradi-gan galim kelibdi. Qanday qilib bu qiyin qoidani to‘g‘ri talaffuz qilib, xatosiz aytib berishim mumkin-a? Men ta-vakkal gapirib berdim. Partamga suyangancha yuragim dukurlab o‘qituvchimga tikildim.

– Senga tanbeh bermayman, kichik Frans. Biz har kuni o‘zimizga va’da beramiz: „O‘rganishga hali vaqtim bor. Ertaga o‘qiyan“, deb. Elzasning katta muammosi shu – u bugungi ishni ertaga qoldiradi. Senga faqat bir gapim bor: o‘z ona tilingda yozolmay, gapirolmay turib, haqiqiy fransuz bo‘la olasanmi? Sen yomon bola emassan, ilojsiz, kichkina Franssan, xolos. Sening ota-onang endi o‘qiyol-masligingga achinishmaydi ham. Ular seni fermada ishlash uchun uzoqqa jo‘natishadi, biroz ro‘zg‘orga qarashsin, deb. Axir, o‘zim-chi? Men ham shunday edim. Dars vaqtida seni gullarga suv quy, deb tashqariga chiqarmaganmidim, yoki bo‘lmasa, baliq oviga ketganimda sizlarga ta’til e’lon qilmagan edimmi?

Janob Xamel jim qoldi, so‘ng asta dars mavzusini boshladи. U fransuz tili dunyodagi eng chiroyli tillardan biri ekanligi, tiniqligi, go‘zalligi haqida ancha gapirdi va grammatika kitobini ochib, bugungi darsni o‘qib berdi. Men darsni tushunardim va bundan hayratlanardim. Uning hamma aytganlari bugun shunchalik oson tushuni-lib qolayotgandiki... go‘yo men hali bunchalik berilib ting-lamaganman va u ham bunday qunt bilan tushuntirmagan edi. Men o‘qituvchimiz ketishidan avval u biladigan hamma narsani o‘rganib olishni juda istadim. Grammatikadan so‘ng biz yozishni boshladik. U bizga nusxa ko‘chirilgan varaqlar tarqatdi, unda chiroyli husnixat bilan „Fransiya, Elzas“ deb yozilgandi. Biz uni takror ko‘chira boshladik. Sinfda faqat qalamlarning shitirlab yozishi eshitilardi, xolos. Men tashqariga qulop tutdim: kaptarlar xonishi naqa-

dar chiroyli-a... „Nahotki ular hatto kaptarlarni ham nemis tilida sayrashga majbur qila olishsa?“

O‘qituvchimiz biz yozish bilan bandligimizda sinfni va bog‘ni sinchiklab kuzatardi. G‘alati. U bu yerda qirq yildan beri ishlaydi. Hammasi o‘sha-o‘sha-ku, nimasini kuzatadi? Faqat partalarning sifati va daraxtlarning o‘lchammi o‘zgargan, xolos. U bularni qanday tashlab ketarkin? Axir, shahardan butunlay ketishi kerak-ku! Yozib bo‘lganimizdan keyin tarixga o‘tdik. Negadir hammaning yig‘lagisi kelardi. Ba’zan yodimga tushib qolardi: bugun oxirgi darsimiz-a...

Cherkovning soati o‘n ikkini ko‘rsatib bong urdi, keyin Prussiya soatlari ketma-ket chalina boshladи. Janob Xamel og‘irlik bilan joyidan turdi.

– Do‘stlarim, – dedi u, – men... men... – uning bo‘g‘ziga bir nima tifilib qolganday gapirolmadi. Keyin keskin o‘girildi-da, bo‘r bilan doskaga yoza boshladи: „Vive La France!..“<sup>1</sup>

So‘ng boshini devorga qo‘yib, turib qoldi va bir og‘iz ham gapirmay, qo‘li bilan ishora qildi: „Ketaveringlar, dars tugadi...“

---

<sup>1</sup>Yashasin, Fransiya!

## MENING KAPALAGIM

Men ko'makka muhtoj bolalarga yordam berardim. Ancha yillar ilgari ish joyimda Alisiya ismli kichkina bir qizaloqni uchratdim. Uning sochlari jigarrang, ko'zlar esa katta-katta, moviy edi. Aslida, u yetti yosh bo'lsa-da, ko'r-gan odam bunday demasdi. Qiz autizm kasali bilan og'rir-di. Ishdan bo'shashimdan bir kun oldin u bilan oxirgi marta ko'rishdim...

Alisiyani izlab uning xonasi tomon yo'l oldim, topol-may turganimda qizchaning yolg'iz o'zi burchakka tiqilib o'tirganiga guvoh bo'ldim. Uning yuz ifodasini ko'rib qo'rqib ketdim. Ko'zlarida g'alati bir iztirob bor edi.

– Ha, shu yerda ekansan-da, Alisiya! Xo'sh, nima qil-yapsan?

U darrov yerga qarab oldi.

– O'ylayapman, – dedi sekingina.

– Nima haqida?

– Kapalaklar to'g'risida...

– Ularning nimasini o'ylayapsan?

U boshini yerdan ko'tarib, ko'zlarimga qaradi:

– Bugun tashqariga chiqqandim... Gullarni tomosha qildim va u yerda kapalaklarga ko'zim tushdi. Ularni tut-gim keldi va ortidan rosa quvlab, bittasini ushlab oldim. Keyin uni hamshiraga ko'rsatdim. Hamshira esa, „Oh, shirinim, sen uni qo'yib yuborishing kerak“, dedi. Men kapalakni qo'yib yuborishni istamasdim, chunki u endi

menga do'st bo'lishini o'ylab quvonardim. Lekin hamshira agar uni qo'yib yubormasam, o'lib qolishini ta'kidladi. Men do'stimning o'lishini istamadim va uni darrov tash-qariga olib chiqib, qo'yib yubordim. Qilgan ishimdan juda xursand bo'ldim, biroq keyin o'ylab qoldim... men unga ozor berdim: men yomon odamman. So'ng hamshiraning yoniga bordim va o'ylaganimni aytdim. Hamshira esa buning yomon tomoni yo'qligini, bu ko'p uchraydigan oddiy hodisaligini tushuntirdi. Bugun esa missis Karin bizdan baxt nimadaligini so'radi. Men „Baxtni qachon kapalak tutib, uni yana qo'yib yuborganingda tuyasan“, deb javob berdim. Kapalaklar bizga baxt ulashadi.

U menga kichik hikoyasini so'zlab bergach, yuzini burdi. U ko'zyoshini yashirish uchun shunday qildi. Bir on, atigi bir on u bemorligini unutgan edi. U haq, kapalaklar faqat baxt beradi. Yetti yashar qizaloq, yana autizm bilan og'rikan bemor menga hayot darsini berolganidan lol edim. Baxtni har kimdan, har narsadan topish mumkin. Men asta uni tark etdim. Baxtli edim, chunki uni uchratdim. Men uni ahvoli yaxshiligida bexavotir tark etdim.

Keyinroq qizning boshqa kasalxonaga ko'chirilganidan xabar topdim. Onasining saraton kasalligidan vafot etgani ni ham eshitdim. Uning o'limidan so'ng otasi kasal qiziga qaray olmagan, parvarish qilishni istamagan. Men buni eshitib, ko'nglim buzildi. Darhol uni ko'rgim kelib ketdi. Bu orada yillar o'tdi, umidim so'nib borardi. Uni ko'rishni va gaplashishni qanchalar istar edim...

Oradan besh yil o'tdi. Mening hayotim juda ham yaxshi. Endi mitti umidim yonimda katta orzuga aylangan. Nega deysizmi? Chunki bugun mening o'n ikki yashar qizim bor, ismi Alisiya. Sochlari jigarrang, ko'zları moviy... Uni umidim so'nayotgan bir paytda topdim. U mening hayotimdagи kapalagim.

## **YAQIN, BEGONA AYOL**

– Ikki kishilik dasturxonmi? Qani, mana bu yoqqa marhamat qilsinlar, hurmatli janob. O, xonimingiz nihoyatda latofatli ekan! Siz uchun ataylab deraza oldidagi joyni tannadik, ko‘rfaz manzarasidan bahuzur baha olib o‘tirasizlar-da! Qalay, ma’qulmi?

Alisa eriga suyunib qaradi:

– Ha, albatta! Bo‘lmasam-chi! – dedi ayol quvonchdan ko‘zлari chaqnab. – Mark, azizim, bu yerda biz o‘zimizni xuddi dengizda, qayiq ichida tushlik qilayotganday his etamiz! O, qanday ajoyib! Bu yerni...

Ayolning gapi og‘zida qolib ketdi. Eri imi-jimida xotinining qo‘lini qattiq qisdi.

– U yerdan sal beriroqdagi joy ancha tuzukroq ko‘rindi, chamamda.

– Anavi yoqdagagi deysanmi? Odamlarning qoq o‘rtasida-ya? Lekin menga ko‘proq...

– Alisa, jonginam, iltimos.

Mark ayolining qo‘llarini yanayam mahkamroq qisdi. Bu gal u shunday harakat qildiki, Alisa beixtiyor eriga o‘girilib qaradi.

– Nima gap? Senga nima bo‘ldi?

– Tsss... – dedi Mark ohista barmog‘ini labiga bosib. Ayni damda u xotiniga bor vujudi bilan tikilib turardi. U Alisani tamaddixonha o‘rtasidagi stol tomon boshladi.

– Nima gap, Mark? Tinchlikmi? – xavotirlanib so‘radi Alisa tag‘in.

– Keyin aytib beraman, azizam. Kel, avval taom buyurtma qilib olaylik. Xo‘s, nima yeymiz? Dengiz mayda qisqichbaqasiga tobining qalay? Yo qovurilgan tuxum xohlaysanmi?

– Istanaganing, azizim, menga farqi yo‘q.

Ikki yosh bir-biriga mehr bilan jilmayib qo‘yishdi. Keyin birpas yonlarida terga pishib, goh jazava ostida timmay raqsga tushayotgan bir to‘da odamlarni maroq bilan kuza-tib o‘tirdilar.

– Unday bo‘lsa, birinchisiga mayda qisqichbaqadan bo‘la qolsin, – deb xulosa qildi Mark. – Keyin tuxum va tuzlangan cho‘chqa go‘shti ham yeymiz. Yana jo‘ja kabob bilan italyancha salat olsak. Bugun bir maza qilib o‘tiraylik, a, Alis? Shu kun ayni o‘z uyimizdagiday o‘tiramiz! Shosh-mang, – dedi u shunda ofitsiantga yuzlanib, – yodimdan ko‘tarilayozibdi, yana ikkita qora qahvadan ham olib kelsangiz. – Shunday dedi-da, yana Alisaga qarab gapida davom etdi: – haydovchimiz ham tushlik qilayotgandir hozir. Demak, taxminan ikki soatlardan so‘ng ketsak ham bo‘ladi. Bu yog‘idan tashvishga hojat yo‘q. Ikki soat davomida bemalol dam olishimiz mumkin. Alis, jonim, ichimliklarga tobining qalay? Hmm... Kel, yaxshisi, shampan vinosidan totib ko‘rsak, nima deysan?

Bir muddat shunday gaplar bilan o‘zini chalg‘itgan Mark nihoyat yengil xo‘rsinib, go‘yo ichidagi og‘ir bir toshni sal bo‘lsa-da qo‘zg‘atgandek biroz yengil tortdi. So‘ngra u of-toh shu’lasiga limmo-lim to‘lgan rangdor dengiz sathiga, qushlar charx urib aylanayotgan musaffo osmon qo‘yniga va nihoyat, qarshisida butun umrining bor mazmuni va bax-tiga aylangan, chiroyli shlapasi ustidan shol ro‘molini nafis

tang‘ib olgan eng go‘zal xilqat – o‘zining umr yo‘ldoshiga ichki bir dard to‘la nigohlarini qadadi.

– Sen juda dilbarsan, hayotim! – dedi u rafiqasining nurli chehrasidan ko‘zini ololmay. – Mana bu dengiz suvi esa sening jozibali ko‘zlaringga ajib zangorlik bag‘ishlab, husningni yanayam oshirgan. O‘zing ham bir ko‘rgin-a, Alis! Buning ustiga sayohatma-sayohat yuraverib, ancha vazn tashlagansan. Qomating sambitday<sup>1</sup> bo‘lgan, jonginam. Faqatgina... Sen o‘zing ham shu malohatni o‘z qalbing bilan xuddi menikiday his qila olishing kerak, faqat his qilishing kerak, Alis, eshityapsanmi?!

U erining so‘zlarini maroq bilan tinglar ekan, unga tomon stol osha tobora yaqinlashib borardi.

Mark ortiq o‘zini o‘zi aldashni istamadi. U to‘satdan jiddiy tortib, ayolga sinchkov ko‘zlarini tikdi.

– Alis, bilasanmi, sen hozir bu yerda senga notanish bo‘lgan, ammo menga judayam tanish bo‘lgan bir odam bilan bitta yerda, bitta tamaddixonada o‘tiribsan.

– Menga notanish bo‘lgan odam?

– Ha... ya’ni, o‘sha odam – mening sobiq xotinim.

Shu payt ayolning ko‘zлari hayratdan katta-katta ochilib ketdi, u qanday kalima bilan ayni damda ichida kechayotgan kuchli g‘alayonni ifodalashni bilolmay, so‘zsiz qotib goldi.

– Xo‘sh, nima qipti?.. – deb og‘iz ochdi u nihoyat. – Uning bu yerda ekanligining bizga nima ahamiyati bor? Axir... u sen uchun ortiq muhim emas-ku, Mark...

Alisa shunday deb o‘zini biroz chalg‘itgani bilan, bari-bir barcha ayollarga xos bo‘lgan qizg‘in qiziquvchanlik ichida erini qochib qutulib bo‘lmaydigan bir dunyo savol-larga ko‘mib tashladi:

<sup>1</sup> Sambit – tik o‘suvchi tol.

– Uning o‘zi seni ko‘rdimi? Yo sening unga qaraganngi payqab qolmadimi? U qani hozir, qayerda turibdi? Mark, o‘sani menga shundoq ko‘rsatib yuborolmaysanmi?

– Hozir emas, iltimos. U bizlarni kuzatayotgan bo‘lishi ham mumkin... Mana bu yerdan zimdan nazar tashla, huv, ana – jigarrang sochli, shlapasiz ayol. Ko‘rdingmi? U shu mehmonxonada turgan bo‘lsa kerak. Bitta o‘zi, yolg‘iz...

– Hmm, tushunarli.

Alisa bir qancha turli-tuman shlapali boshlar orasidan „o‘sha“ni axiyri, ko‘rib olishga erishdi. U ayol erining o‘n besh oy muqaddam turmush o‘rtog‘i bo‘lgandi.

– Bema’nilik, – dedi Mark g‘ashi kelib. – Menga bu hol umuman yoqmayapti... Turgan-bitgani bema’nilik axir! To‘g‘ri, bizlar tarbiyali kishilarday do‘stona, jimgina, janjalsiz ajralishgan edik. Keyin mening hayotimga farishta misol sen kirib kelding. Men seni sevib qoldim va sen ham men bilan bir umrga baxtiyor bo‘lishni istading. Bizning baxtimiz, Alis, atrofdagi har qanday g‘alamislar galasi-yu hasadgo‘ylar hiylasidan omon qoladi! Menga ishon, azizam!

O‘sha boshyalang, jigarrang sochlari yelkasini qoplab, to‘zg‘itib yotgan ayol hech kim bilan ishi yo‘q, parvoyi falak, ko‘zlarini yarim yumgancha sigara tortib o‘tirardi. Alisa undan ko‘zlarini oldi-da, eri tarafga o‘girildi.

Dasturxondagи qisqichbaqa bilan saryog‘ga titroq qo‘llarini uzatdi-da, shoshilmay yeya boshladи. Oraga bir necha soniyalik sukunat cho‘kdi. Oxiri Alisa taraddudlanib so‘radi:

– Nega sen menga uning ko‘zlarini ko‘k ekanligini ayt-mading?

– Buni qara, buni aytish hech ham aqlimga kelmagan ekan!

Mark xotinining non savati tomon uzatilgan qo‘llarini olib, ohista o‘pdi, Alisa xotirjam qiyofaga kirdi va xiyol qizardi.

Asta-sekin tamaddixonani shom nafasi chulg‘agach, atrof tobora quyuq qorong‘ilik bag‘riga singib, devorlarda uzun-qisqa soyalar o‘ynay boshladi. Alisaning ko‘nglini qandaydir xiralik bosib borar, nimadandir qattiq tashvishlanar, joyida hech tinch o‘tirolmasdi. Uning ko‘zлari hadeb ko‘pchilik bo‘lib raqs tushayotgan odamlar orasidan jigarrang sochli, sigara tutatib o‘tirgan shirakayf ayolni qidirardi.

Biroq Alisa ayni chog‘da eriga ham minnatdorchilik bilan termilib qolardi. Mark turmush qurbanlaridan buyon unga qildek ham yomonlik qilmagan, bor-budi bilan Ali-sani xursand qilishga urinardi.

Ular ancha payt bir-birlariga churq etmay, yaxshilab ovqat yeyishdi, to‘yib shampan ichishdi, miriqib o‘tirganday bo‘lishdi, ammo har ikkisining ham xayoli o‘sha „jigarrang soch“da edi. Ora-orada Alisa qattiq kulib yuborar (albatta, buni jo‘rttaga qilardi), Mark bo‘lsa uning har bir xatti-harakatidan hushyor o‘tirar, Alisaning bosh burishlariyu qayerga ko‘z tashlashlarigacha nazaridan qochirmasdi. Ular buyurtma qilgan qahvalarini uzoq vaqt kutib qolishdi, yana jim qotishib, sal naridagi deraza ortida yastanib, ufq shu’lasi taftida jimirlab yotgan poyonsiz dengiz sathiga so‘zsiz tikilib qolishdi. Chindan ham dengiz ko‘zni qamash-tirguday darajada yal-yal tovlanib turardi.

– Mark, – dedi shu payt Alisa eriga biroz sarosima aralash qarab. – U hali ham shu yerda.

– Bu seni bezovta qilyaptimi? – so‘radi Mark xotining vahimasini pisand qilmaslikka tirishib. – Qahvamizni boshqa biron xoliroq yerga borib ichaylikmi yo? Nima deysan?

– Yo‘q, yo‘q! Aslo! U menga nimaga xalal bersin? Menimcha, boyaqish bu yerda yomon dam olmayotgan ko‘rinadi, raftorini ko‘ryapsan-ku o‘zing! Nima, endi o‘sha-

ning bemalol kayf-u safo qilishi uchun shunday shirin o‘tirishimizni buzishimiz kerakmi? Hech ham-da!

– Ha, menimcha ham u bevafo lazzat og‘ushida chog‘i, – deb qo‘ydi Mark kesatib. – Mana bunday qilib o‘tirganidan keyin...

– Qanday, qanday? – Alisa sevinch va shoshqaloqlik bilan eridan uning qilig‘ini qayta ko‘rsatib berishini so‘radi.

Mark sigarasini olib tutatdi-da, xuddi ayni damda so‘biq xotini chekayotgani singari burun kataklaridan pag‘a pag‘a tutun chiqarib, uzun qilib esnadi. Alisa erining tomoshasidan zavqlanib, chapak chalib qah-qah otdi.

– Voy, rostdan ham xuddi shunday, ha-ha-ha!

Shu payt Mark to‘satdan jiddiy tortdi. U endi hech narsani yashirmay, bor jinoyatini fosh qilish fursati yetganini anglagan aybdor kabi so‘zlay ketdi:

– Yo‘q... Yo‘q, – dedi u o‘ychan bosh chayqab. – To‘g‘-risini aytganda, u men bilan sira ham baxtli bo‘lolmadi. Ehtimol, men o‘zim u kutgan baxtni berolmagandirman? Ehtimol, u men tufayli baxtsizdir...

– O, sen uning yurish-turishiga bir qara! G‘irt takasaltang-ku! Nega sen o‘zingni gunohkor his qilishing kerak ekan, azizim?

Mark yuzlari kuchli hayajondan qizarib, nozik barmoqlari asabiy titrayotgan xotinining butun vujudiga mehrmuhabbat to‘la ko‘zlarini qadadi.

– Mening butun fikr-u xayolimni o‘g‘irlagan „jinoyatchi“ bu sensan, jonio... Men jinni bo‘lib qolaman, bila-sanmi?.. Sen... Sen naq farishtaning o‘zginasisan... Sening sevging?.. Sening sevgi to‘la nigohlaringni har on ko‘rganimda benihoya g‘ururlanib ketaman. Sening nigohla-ring bo‘lakcha, Alis... U esa... Uni men qanday qilib sendek mas’ud qilishni bilolmadim, bor-yo‘g‘i shu, xolos. Uni xushbaxt qilishni men bilolmadim...

– Uning o‘zi shunga munosib ekan!

Alisa yana asabiylashib, yengil qaltiray boshladi, yana o‘sha jigarrang sochli tannoz xonimga tez-tez alamnok qaradi. U ayol bo‘lsa hamon hech kim bilan ishi yo‘q, parvoyi falak, baland kursisi orqasiga boshini tashlagancha, hali ham sigara tortib o‘tirardi. Uning nigohlarida cheksiz horg‘inlik, loqaydlik va alam izlari aks etardi.

– Sen haqsan, – deb iqror bo‘ldi Mark Alisaga yuzlanib. U begunohday bosh chayqab, yelkalarini qisib qo‘ydi.

– Nima ham derdim? Baxtiqaro odamlarga faqat achi-nish kerak, xolos, – dedi u ta’kidlagannamo. Keyin esa ayricha bir g‘urur bilan xotiniga baland ovozda xitob qildi:

– Biz esa baxtiqaro emasmiz! Biz juda-juda xushbaxt-miz! Shunday emasmi, hayotim?

Alisa indamadi. U g‘ayrishiuriy holda erining yuziga sinchkov tikilib qolgandi. U Markning chehrasidan o‘zi uchun xufiya bir belgini, nosamimiylar biror alomatni qidirar, erining qalin, qora sochlari-yu oppoq, uzun-uzun barmoqlariga ziyraklik bilan boqar ekan, ich-ichini ayovsiz qiynoq timdalab o‘tirardi. U ilk marotaba shuncha vaqt ardoqlagan, ishongan eridan shubha qildi. Qandaydir xavf borday, to‘satdan hushyor tortib, o‘zidan so‘radi: ehtimol, birinchi xotini hali ham erining ko‘yida yurgandir?..

Nihoyat, ular bu kutilmagan ko‘ngilsizliklarga makon bo‘lgan tamaddixonani tark etishdi. Mark hisobni to‘lagan zahoti haydovchisini chaqirdi. U go‘yo hech nima yuz bermaganday yo‘l bo‘yi haydovchisi bilan nimalardir xususida chaqchaqlashib ketdi. Alisaning xayolidan esa o‘sha sigara tortib o‘tirgan Markning shirakayf sobiq xotini ketmas, u har nafas „Balki, u erimni qidirib, ortimizdan quvib kelayotgandir“, degan vahimada ortiga tinmay o‘girilib qarar, yuragi tashvishli urib turardi.

### „MEN SENI SEVMAYMAN...“

O‘tgan zamonalarda Skandinav qishlog‘idagi yoshlari olov atrofida yig‘ilar, qo‘schiq aytib, ertak so‘zlashardi. O‘scha kichkina dehqonlar qishlog‘ida qachonlardir bir bola va bir qiz yashardi. Ular bolalikda birga katta bo‘lishgan, bir idishdan sut ichib, nonni ham bo‘lishib yeb ulg‘ayishgandi. Doim birga o‘ynashar, urishishar va yarashishar, o‘rmonda birga uycha yasashardi. Vaqt o‘tib ular ulg‘ayishdi.

– Sen chiroyli, aqlli va mehribonsan. Sen bilan men ga yaxshi, ammo seni sevmayman-da, – dedi bir kuni yigit qizga. – Qishlog‘imizda o‘zim tengi boshqa qiz yo‘q. Shuning uchun baxtimni izlab boshqa o‘lkalarni kezmoq-chiman. Sevgi nimaligini anglab, uni topib qishloqqa olib kelaman. Kelgach, unga uylanaman!

– Yaxshi, – javob berdi qiz, – men ham seni sevmayman. Ammo kutaman. Tezroq qayt va o‘zingni asra!

„Seni sevmayman“, deya o‘ylardi yigit qishloqdan uzoqlasharkan.

Yigit uzoq kezindi. Qiz esa dengizga nigohlarini tikib, yigitni uzoq kutdi, qo‘schiqlar kuyladi, unga deb yoping‘ich tikdi. Ikki yil o‘tib yigit qaytib keldi. Biroq yolg‘iz edi.

– Sevgimni har yerdan izladim: Angliya, Fransiya, Irlandiya va Islandiya. Ammo topolmadim. Bu orada sening mehring, e‘tiboring va g‘amxo‘rligingni sog‘indim. Seni sevmasam-da, men bilan yashashni istarmidинг?

– Yaxshi. Menam seni sevmayman. Shunday bo'lsa-da, sen bilan yashashga, taom tayyorlashga, g'amxo'rlik qilishga roziman. Chunki ketganingda seni juda sog'in-dim.

– Menga turmushga chiqasanmi? To'g'ri, seni sevmay-man. Lekin sen bilan baribir yaxshi-da. Yoningda bo'lish menga yoqadi. Sendan yoqimli ifor taraladi...

– Albatta, turmushga chiqaman. Seni sevmasam-da, ro-ziman. Sening bag'ring biram qaynoqki... o'zimni bexa-votir sezaman. Biz chiroyli juftlik bo'lamiz.

„Seni sevmayman“, deb o'ylardi yigit nikoh to'yida qizni o'z uyiga olib kirarkan.

– Azizim, bizning farzandimiz bo'ladi! – shodlandi ayol.

– Bu juda ajoyib-ku! Agar o'g'il bo'lsa, biz uni haqiqiy askar qilib tarbiyalaymiz. Qiz bo'lsa, u yoqimtoy va so-hibjamol bo'ladi. Seni sevmayman, buni bilasan. Lekin qiz bo'lsa, uni senga o'xshashini istardim.

Ular qizaloq ko'rishdi. Keyin esa ketma-ket uchta o'g'il-li bo'lishdi. Qizcha chindan qishloqdag'i eng go'zal malak, o'g'illar esa mard bo'lib ulg'ayishardi.

„Seni sevmayman“, deb o'ylardi erkak bolalarni o'yna-tayotgan ayoliga qarab.

– Bilasanmi, men boshqasini uchratdim. Qo'shni qish-loqdan... U bilan birga bo'lishni istayman. Bilaman, ayni paytda farzand kutyapsan. Ammo tushun, seni sevmay-man. U bilan esa baxtli bo'lmoqchiman.

– Mayli... menam seni sevmayman. Bora qol, baxtingga yetish. Lekin unutma, uyimiz eshigi sen uchun doimo ochiq.

U ketdi. Shu bilan bir yil kelmadı. Ayol qiz ko'rди. Tongdan tungacha ishlab, bolalarni katta qilardi. Tunlari esa olov yoqib yana eski qo'shig'ini kuylardi. Ayol umid bilan erini kutardi.

„Uni sevmayman“, deb o‘ylardi erkak begona uyda begona ayol bilan uxlarkan.

U qaytdi.

– Meni kechir, azizam. Ancha vaqt yo‘qolib ketdim. To‘g‘ri. Seni sevmayman, lekin negadir sening yoningda bo‘lsamgina o‘zimni baxtli sezaman. Meni uyga kiritasanmi?

– Albatta. Qaytganingdan baxtliman. Ovqatlanasanmi?

– Jonim bilan.

„Baribir seni sevmayman“, derdi erkak ovqat yeyarkan. Oradan yillar o‘tdi.

– Azizim, menimcha, kasal bo‘lib qoldim. Nafas olishga qiynalayapman. Hozir o‘ladigandekman...

– Nima bo‘ldi senga? Qanaqasiga axir? Hoziroq likor keltiraman. Faqat nafas olishdan to‘xtama! Menga keräksan. Sensiz menam o‘lib qolaman! Hayotim, qayering og‘riyapti? Bu yermi? Seni sevmasam-da, sensiz yasholmayman.

Erkakning kasali og‘ir edi. Besh hafta davomida o‘lim va hayot o‘rtasida olishib yotdi. Bu payt ichida ayol uni ovqatlantirdi, kiyintirdi, quyoshga olib chiqdi. Erkak tirik qoldi.

„Seni sevmayman“, deb o‘ylardi erkak ayol ichirayotgan suvni ho‘plarkan.

– Azizim, ancha qarib qoldim. Qara, sochlarim ham oqardi.

– Nima qipti, azizim? Sen olamdagi eng ko‘rkam erkaksan.

– Umrimga achinaman-da... Shuncha yil yashab, sevgimni uchratmadim. Demak, mazmunsiz yashabman.

– Men ham uchratmadim, – der edi ayol erining ko‘z-yoshlari artarkan.

– O‘lsam kerak...

Ayol qo'lidan biror yordam kelmasligini bilib, unsiz yig'ladi. Ha, kasallik va keksalik uni yengdi. Hatto nabi-ralar kulgisi, bolalarining daldasi ham uni asrab qololmadi. Umr yo'ldoshi uning qo'llaridan mahkam qisib turardi:

– Qo'rhma, men sen bilanman.

– Bilaman. Hammasi uchun rahmat senga. Doim yonimda bo'lding. Ketib qolmading, ba'zida kutding. Dunyodagi eng chiroyli ayol o'zingsan. Afsus, nega bir-birimizni sevmadik-a?

U so'nggi bor ko'zlarini yumib ochdi va pichirladi:  
„Men seni...“

– Men ham seni sevaman, azizim... – davom ettirdi ayol, – rahmat. Bir umr sevib, sevilganim uchun minnat-dorman sendan.

Ba'zan ko'ngil sasini eshitmaymiz. Bir umr yonimizda bo'lgan, qalbimizni allaqachon zabit etgan insonni sevmayman, deb o'ylab, o'zga bir muhabbat izlaymiz. Asli-da esa... baxt hamisha yonimizda bo'ladi. Buni so'nggi lahzada emas, doimo his etib yashang va yoningizdagi yo'ldoshingizga takrorlang: „Seni sevaman, azizam...“

## YOZUVCHI

Savdogar Yershakovning choy do‘koniga tutashgan xo-nada, bahaybat idora stoli orqasida po‘rim kiyangan, yosh, ammo horg‘in, aftidan, davrini surib yurgan yigit Yershakovning o‘zi o‘tirgan edi. Katta-katta, jimmimador husnixati, sochi va sigarasidan chiqayotgan nozik hidga qaraganda u Ovro‘pa madaniyatga begona emasdi. Ammo do‘kondan chopib chiqqan bolakay keltirgan xabarni eshitgach, undan yana-da ko‘proq madaniyat hidi burqsidi.

— Yozuvchi keldi!

— A! Bu yoqqa chaqir uni. Lekin tayinlab qo‘y, do‘kon-ga kalishini yechib kirsin.

Bir daqiqadan so‘ng xonaga egnida eski sarg‘ish pal-to, salqigan yuzida, odatda, oz-ozdan bo‘lsa-da, ichkilikka ruju qo‘ygan kishilarda bo‘ladigan jur‘atsizlik, zaiflik bel-gilari ko‘rinib turgan yaltirbosh chol asta kirib keldi.

— A, salom berdik... — dedi Yershakov eshikdan kirib kelgan cholga qaramay. — Xushxabarlar bormi janob Geynim?

Yershakov „geniy“ va „Geyne“ so‘zlarini aralashtirib, bitta — „Geynim“ yaratgan, cholni hamisha shunday atardi.

— Bor, mana, buyurtmachani olib keldim, — javob berdi Geynim. — Tap-tayyor bo‘ldi-i...

— Darrov-a?

— Uch kunda, Zaxar Semyonich, reklama nima, roman yozsa bo‘ladi-ku. Reklamaga bir soat kifoya.

– Bor-yo‘g‘i-ya? Har doim xuddi bir yillik ish olayot-ganday savdolashasan. Qani, ko‘rsating-chi, nimalar yozibsiz?

Geynim qalam bilan yozilgan bir necha g‘ijimlangan varaqni cho‘ntagidan chiqarib, idora stoliga yaqinlashdi.

– Qo‘limdag'i hali qoralama, umuman... – dedi u. – O‘zim o‘qib beraman, siz eshitib, mulohaza yuritib, juz’iy xatosi bo‘lsa, aytarsiz. Xato topsangiz, ajabmas, Zaxar Semyonich... Ishonasizmi? Birvarakayiga uchta do‘konga reklama to‘qib tashladim... Bunaqa paytda Shekspirning boshi ham gangib qolardi.

Geynim ko‘zoynak taqib, qosh chimirdi, keyin mungli ohangda, go‘yoki ifodali o‘qiy boshladi:

– „*Bir ming sakkiz yuz sakson beshinch-i-sakson oltin-chi yilgi mavsum. Yevropa va Osiyo Rossiyasi hamda xorija ga xitoy choyi yetkazib beruvchi Z. S. Yershakov. Firma bir ming sakkiz yuz to‘rtinchi yildan e’tiboran faoliyat yuritib kelmoqda*“.  
Buning bari muqaddima, tushunyapsizmi, bu naqsh ichida, tamg‘alar orasida bo‘ladi. Bir savdogarga reklama to‘qib bergandim, u e'londa shaharlarning tamg‘asini ishlatdi. Siz ham shunday qilsangiz bo‘ladi, sizga o‘zim chiroyli bezak topib qo‘yanman, Zaxar Semyonich: sher, u lirani tishlab turibdi. Endi davom etamiz:  
„*Xaridorlarimizga ikki og‘iz so‘z. Marhamatli janoblar! Na keyingi davrdagi siyosiy voqealar, na jamiyatimizning turli qatlamlariga tobora singib borayotgan sovuqqon beparvolik va na matbuotimiz peshqadamlari yaqindagi-na ko‘rsatib o‘tgan Volganing sayozlanishi – hech narsa bizni hayratga sola olmaydi. Firmamizning uzoq yillik faoliyati va biz hozirgacha qozongan ishonch, tizimdag'i choy plantatsiyalari egalari bilan abadiy hamkorligimizga xiyonat qilmay va bu asosni mahkam tutish, buyurtmalariningizni sidqidildan bajarish imkoniyatiga egamiz.*

*Bizning shiorimiz sizga yetarlicha ma'lum. U bir necha-gina, ammo purma'no so 'zlar bilan ifodalanadi: halollik, arzonlik, tezlik!!!*

— Yaxshi! Juda yaxshi! — gapini bo'ldi Yershakov, o'tirgan joyida qimirlab. — Bunchalik yozasiz deb kutmagandim. Mohirona! Faqat, mana nima, azizim... o'sha joyiga bir narsa qilib soya berish kerak, mavhumlik joiz, qandaydir, bilasanmi, ozgina hiyla ishlatamiz... O'sha joyda, firmamiz bir ming sakkiz yuz sakson beshinchı yil bahorgi choy mavsumining ilk hosilini endigina olganini e'lon qilamiz... Shundaymi? Ammo bundan tashqari, endigina olingan o'sha choy omborimizda uch yildan buyon yotganini ko'rsatib o'tamiz, shunday bo'lsa-da, biz go'yo ularni Xitoydan o'tgan hafta olganmizni aytamiz.

— Tushunaman... Olomon bu zidlikni payqamaydiyam. E'lonning boshida choyning endigina olinganini yozamiz, oxirida esa shunday deymiz: „*Avvaldan boji to 'langan katta choy zahirasiga ega bo 'la turib, biz hech bir ziyonsiz, ehtiyojimizga ko 'ra, choyni o 'tgan yilgi narxda sotishimiz mumkin...*“ va h.k. Ha-a, boshqa sahifada narxlarni ko'rsatamiz. O'sha yerda yana tamg'a va naqsh ketadi... Uning tagidan katta harflar bilan: „*Plantatsiyalardan qayta terilib, saralangan muattar, kyaxta, puchan va bayxa choylarining narxi...*“. Davom etamiz: „*Lyansin choyining chinakam ishqibozlari diqqatiga ma'lum qilamiz – ulkan muhabbatga sazovor „Xitoy timsoli yoki raqiblar hasadi“ – uch so 'm ellik tiyin*“. Atirgulli choyni alohida tavsiya qilamiz: „*Bog'dixon guli*“ – ikki so 'm va „*Xitoy qiz ko 'zları*“ – bir so 'm sakson tiyin“. Narxnomadan keyin tarozida tortish va yuborish xizmatlari mayda harf bilan yoziladi. O'sha joyning o'zida siylov va mukofotlar haqidagi: „*Bizning ko 'plab raqiblarimiz xaridor jalb etish qasdida mukofot tarzida qarmoq tashlaydi. Biz o 'z to-*

*monimizdan bunday ablahona usulni rad etamiz, xaridorlarimizga raqiblar o‘z qurbanini siylaydigan xo‘rakni biz mukofot shaklida emas, balki tekin taklif qilamiz. Bizdan 50 so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda choy xarid qilganchalar quyidagi beshta narsadan birini tanlab, tekin oladilar: britan metalidan choynak, yuzta tashrif qog‘ozi, Moskva shahrining chizmasi, yalang‘och xitoy qizi surati tushirilgan choyqutி va „Kuyov ajablandi yoki tog‘ora ostidagi Kelin“ kitobi, „O‘ynoqi xushchaqchaq“ hikoyasi“.*

O‘qishni yakunlab, juz’iy tuzatishlar kiritgach, Geynim reklamani zudlik bilan oqqa ko‘chirib Yershakovga topshirdi. Shundan keyin oraga uzoq jimlik cho‘kdi... Ikkisi ham o‘zini xuddi qandaydir jirkanch ish qilib qo‘ygandek o‘ng‘aysiz sezdi.

– Ish haqini hozir olishni buyurasizmi yoki keyin? – so‘radi Geynim jur‘atsiz.

– Qachon istasangiz, xoh hozir... – beparvo javob berdi Yershakov. – Do‘konga bor-da, besh yarim so‘mga xohlagan narsangni ol.

– Menga naqd pul bering, Zaxar Semyonich.

– Pul bilan to‘lash odatim yo‘q. Hammaga choy yo shakar bilan to‘layman: sizga ham, xonishchiga ham, men boshliq ekanman, qorovullarga ham. Ichkilikbozlik kamayadi.

– Nahotki, Zaxar Semyonich, mening ishimni qorovul yo xonishchinikiga teng ko‘rish mumkinmi? Meniki aqliy mehnat.

– Qanaqa mehnat! O‘tirding, yozding, vassalom! Yozuv-chizuvni yeyolmaysan, icholmaysan... Tupurdim! Bir tiyinga qimmat.

– Hm... Yozish haqida qanday fikrdasiz-a... – xafa bo‘ldi Geynim. – Yeb-ichib bo‘lmaydi! Siz qaydan ham bilardingiz, balki, men bu reklamani to‘qiyotganda yura-

gim ezilgandir. Yozasan, yozasan-u, butun Rossiyanı al-dayotganiningni his etasan. Naqd pul bera qoling, Zaxar Semyonich!

— Jonga tegding-ku, og‘ayni. Bunchalik yopishib olma-da axir!

— Xo‘p, mayli. Bo‘lmasa shakar olaman. Siznikilar-ga balli, har qadog‘ini sakkiz tiyindan qaytarib olishadi. Bu savdoda qirq tiyin yutqazaman, ha, mayli, nima ham qillardim! Salomat bo‘ling!

Geynim tashqariga chiqish uchun ortiga o‘girildi-yu, ammo ostonada bir dam turib qoldi, xo‘rsindi va ma'yus dedi:

— Rossiyanı aldayapman! Butun Rossiyanı! Bir burda non uchun Vatanimni aldayapman! Eh!

Chiqib ketdi.

Yershakov gavana sigarasini tutatdi va xonada madaniyatli odamning hidi yana ham kuchliroq burqsidi.

---

## O'LIMDAN KEYINGI „O'LIM“

Dehqon Puavre kuyovi Per Gaslenning peshtaxtasi yonida aravasidan tushib otini yo'lak chetiga qoqilgan temir halqaga bog'ladi, mahkammi-yo'qmi, tortib ko'rdi, keyin qamchisini o'ynatib qassobxonaga kirdi.

– Kim bor? – deb baqirdi.

Mudrab yotgan ko'ppak bor bo'yicha kerishib, po'saxonani to'sib qo'ydi va bir vovullab, nariroqqa borib cho'-zildi. Ichkarida hech zog' yo'q, payshanba emasmi, peshtaxtalar bo'm-bo'sh. To'nkada so'yilgan novvosning chorak go'shti. Qorayib ketgan, pashshalar g'o'ng'illab o'rab olgan. Shiftga osilgan ko'chma ilgakda buzoq yuragi o'rtasidan yorib ilib qo'yilgan. Bir burchakda, mis tog'orada qon yuqi suyaklar va sarg'imtir yog' aynishni boshlaganidanmi, kasalxona va o'likxonadagi singari ko'ngil aynitar o'limtik hidi anqiydi.

– Biron tirik jon bormi? Hoy, Gaslen!.. Qayerdasan?

Gaslen ko'chaning narigi betidagi Gado qahvaxonasidan chiqdi. Labini yengiga artib, trubkasini tutatgancha chopib keldi.

– Shu yerdaman! Shu yerda!..

U yalangbosh, yenglari tirsagigacha shimarilgan edi; yuziga tig' tegsa yog' tomadi. Qizil dog' bo'lgan oq peshbandi butun gavdasini yopib turibdi – bo'ynidan tortib yog'och boshmoqlarigacha. Po'lat zanjirga osilgan pi-

---

chog‘i chap sonida lapanglaydi. U qaynotasining oldiga kelib, qo‘lini uzatdi.

– Sog‘-omonmisiz?

– Omonman, kuyovto‘ra, omonman.

– Otingizga suli tashlab beraymi?

– Ha, yo‘g‘-a, ertalabdanoq bo‘kib olgan... Men to‘g‘ri Shessian yarmarkasidan kelyapman, kuyovto‘ra!..

– Xo‘sh, qalay, yaxshi o‘tdimi?

Puavre bosh chayqadi:

– Bir navi, bir navi... Chidasa bo‘ladi... Narx-navo hali joyida... – Keyin esa muomalasini sal o‘zgartirib, shunday dedi: – Xo‘sh, xo‘sh, Mansonerga kelganimda, bolakay Av-gust musibat haqida aytib qoldi... .

– Ha, ha, shunaqa bo‘lib qoldi endi...

– Shunga otni aravadan chiqarmay kelaverdim... Otga bir paqir suli berdim-u, shu yoqqa qarab haydadim...

– Ul-bul icharsiz?

– Ha, yo‘q demasdim. Tomog‘im qaqrab ketdi. Demak, shu gap rostmi, yolg‘on emasmi, xotining qazo qildimi?

Qassob trubkasini olib, ichidagi kulini boshmog‘iga urib-urib qoqdi.

– Kecha tunda uzildi, soat ikkida... Balki, ikki yarimda-dir... xullas, shu vaqt atrofida...

– Tunda degin, – Puavre bosh chayqab qo‘ydi, – ana ko‘rgilig-u, mana ko‘rgilik! Unga nima bo‘lgandi o‘zi? Og‘ir kasalmidi, yo zarb yeganmidi?

– Yo‘g‘-e, unaqa emas, Puavre, zarb yemadi... Qorni shishib o‘ldi... Shishaverdi, shishaverdi... Biram baqirdi-ye! Ey Xudoyim-ey, yomon baqirdi!.. Keyin o‘lib qoldi... Shunaqa gap... Lekin bir narsani hech aqlimga sig‘dirol-mayapman...

– Xo‘sh, nima ekan?

– Xullas, gap bunday... Ikki hafta oldin, balki, o'n ikki kun oldindir... balki undan ko'proq yo kamroqdir, xulla-si kalom, qizingiz menga aytdiki... Adashmasam, u meni piyonista, to'ng'iz, deb so'kdi, chunki biz, Baku, Mote va men ozgina otvolgandik. Shunda undan meni tinch qo'yishini so'radim... jahl-pahlsiz, muloyimgina tushuntirdim! Bir qarasam, haddidan oshib, bo'lar-bo'lmas gaplarni qatorlashtirib tashladi. Pichoq borib suyakka teg-di. Bir shapaloq tushirdim, keyin qorniga tepdim. O'zingizdan qolar gap yo'q, Puavre, buni hazil tariqasida, achchiqlanmasdan qildim. Men unga yomonlik tilamagan-dim. Keyin yarashib oldik... Ertasi kuni: „Qornimda nima borligini bilmayman, lekin nimadir bor, maxluq-paxluq bormi deyman, ichimni kemiryapti!“ deb shikoyat qila boshladi. Lekin bu holat kelib-ketib, molni xarididlarga o'tkazishiga xalal bermadi. Uchinchi kuni bukchayib qoldi. Ko'rpa-to'shak qilib oldi. Qorni shisha boshladi. Tin-may baqirishga tushdi. Oxir-oqibat, oyoqni uzatvordi... yer yutsin! Ayol kishining qorniga hazil-huzul qilib tepil-sa, o'lib qolishini qayoqdan bilibman.

Puavre ensasini qashib, dilidagini tiliga chiqardi:

– Xo'sh, xo'sh! Ana bo'lmasam! – Keyin biroz qayg'u aralash taqdirga tan bergandek so'zлади: – Lekin bunga biz aybdor emasmiz! Buniyam qismati onasinikiga o'xshabdi, rahmatli xotinimni aytyapman... Ustiga daraxt qulab, til tortmay o'lgandi. Bilasan-ku, fermadagi yonib bitgur kat-takon yong'oq daraxtini!

– Ha, ha! – dedi Gaslen xo'rsinib. – Siz, ehtimol, qizi-ngizni ko'rgingiz kelayotgandir... Tepada u, Puavre.

– Albatta, kuyovto'ra... Qani, boshla.

Ikkovlon do'kon ortidagi xonaga o'tishdi, qorong'i pil-lapoyadan ko'tarilib, nim ochiq eshik oldida to'xtashdi.

Qaynota kuyovga so'z qotdi:

- Kir, sen birinchi!
- Yo‘q, siz birinchi, Puavre!
- Yo‘q, kuyovto‘ra, o‘zlaridan bo‘lsin!  
Ikkovlashib oyoq uchida ichkarilashdi.

Puavre boshidagi kartuzni marhumaga hurmat ma’nosida yechib, qo‘lida aylantirib turaverdi. Qisiq ko‘zlar moshdek ochilib, do‘rdoq lablarini vahimadan qimtib oldi. Keyin xonaga alangladi.

To‘shakda yuzlari bo‘zdek oqargan va cho‘zilgan, ustiga oqlik yopilgan ayol sokingina yotardi. Chalishtirilgan qo‘llarida xoch. Jasadning bosh tarafida bir kampir duc o‘qimoqda, yonida ikkita sham yoqilgan, shamlarning ikki tarafida boshqa but, ularga xira nur tushmoqda. To‘s yog‘ochidan yasalgan kropilo müqaddas suv to‘la qizg‘ish sopol xumchaga solingan.

Puavre cho‘qinib olib, to‘shakka yaqinlashdi. Bir muddat qiziga tikilib qoldi va egilib, bir necha marta peshonasidan o‘pmoqchi bo‘ldi, lekin taraddudlanib turaverdi, chunki u o‘ziga ham tushuniksiz vahima to‘riga tushgandi. Nihoyat, u dag‘al panshaha qo‘lini marhumaning qo‘liga qo‘ydi-yu, xuddi qizib turgan temirni ushlab olganday darhol tortib oldi. Keyin xona o‘rtasida qaqqayib turgan kuyovingning oldiga kelib pichirladi:

- Rostdanam o‘libdi! Muzlab yotibdi! O‘zing kechir, Egam, biram sovuqli!

Ular o‘lim qarshisida dovdirab-sovdirab, o‘ng‘aysizlangancha pastga tushishdi.

- Rabbim, biram sovuqli! – Puavre yog‘och boshmoqlari zinalarga to‘qillashiga hamohang shu gapni takrorlayverdi.

Gaslen esa:

- Sarg‘ayib ketgan! – dedi.

Do‘konga tushgach, bir-biriga qarab qolishdi.

– Dadillanib olish uchun jinday olarsiz? – so‘radi kuyov.

– Jonim bilan! Aql bovar qilmaydi, besh kun oldin ot-day edi-ya...

Shoshilmay ko‘chani kesib o‘tib, qahvaxonaga kirish-di. Bir shisha isqotini oldilariga qo‘qqaytirib, birmuncha fursat jim o‘tirishdi. Puavre stakanlarni to‘ldirdi.

– Sog‘lig‘ing uchun, – dedi u.

– Sog‘lig‘ingiz uchun, Puavre, – dedi qassob.

Keyin anchagacha go‘shtning narxi, yaylovlar, Shessian yarmarkasi haqida valaqlashib o‘tirishdi. Puavre ho‘kizlari-ni avvalgi narxlarda pullayolmaganidan o‘kindi.

– Agar ispanlar va amerikaliklarga sotolmasak, nima qilardig-a?

Ikkita shishani ag‘anatib, dilxiraliklar ketib, o‘rinlari dan turishganda, Puavre so‘rab qoldi:

– Baribir, kuyov, sen bilan gapni bir joyga qo‘ymadik.

Qachon ko‘mamiz?

– Ha, bu juda mushkul masala... Ertaga juma – men mol so‘yaman.

Qaynota „ha-ha“lab turdi:

– To‘g‘ri, to‘g‘ri.

– Ertaga ko‘molmayman-ku!

– Albatta, yo‘q. Albatta.

– Shanba kuni bozor...

– Bunisiyam to‘g‘ri.

– Go‘shtni tashlab qo‘yolmayman-ku, aynib qoladi.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri.

– Ja bosh qotdi-ku, Puavre...

Keyin jimib qolishdi. Puavrening peshanasi tirishdi. Oxiri gapiga sirli tus berib:

– Men senga bir gapni aytsam... Mayyit tamomila bu-zilib qoladi! – dedi.

– Buzilib qoladi? Ha, to‘g‘ri.

- So‘yadigan moling-chi?
  - Shu-da.. Shu-da! Nima qilsam ekan, Puavre? O‘zingiz ayting, nima qilay?
  - Puavre iyagini ushlab jiddiy o‘yga toldi, keyin qo‘l siltadi:
  - Yana bitta shisha ochmaymizmi?
-

## TERANLIK SOG'INCHI

Shtutgartlik durustgina surat soladigan yosh xonimga bir tanqidchi hech bir yomonliksiz va dalda bo'lish maqsadida uning ilk ko'rgazmasida bunday dedi:

— Suratlaringiz mahorat va nazokat ila ishlangan, ammo sizga hali teranlik yetishmayapti.

Ayol tanqidchining nima deganini tushunmadi va tez orada uning tanqidiy mulohazasini unutib yubordi. Lekin bir kundan so'ng xuddi o'sha tanqidchining gazetada taqrizi e'lon qilindi. Gazetada bunday yozilgandi: „*Yosh musavvira bag'oyat iqtidorli, uning ishlari anchagina jozbali, afsuski, ularda teranlik yetishmaydi*“.

Shunda xonim o'yelanib qoldi. Suratlarini qayta ko'zdan kechirib, eski jiddlarini titkilay boshladi. Hozirgi ishlarini ham takroran ko'rib chiqdi. Dovot qopqog'ini mahkamlab, patqalamini artdi-da, toza havodan bahramand bo'lish uchun tashqariladi.

O'sha oqshom u mehmonga chaqirilgandi. Aftidan, odamlar tanqidchining so'zlarini yod olishgan shekilli, o'qtin-o'qtin musavviraning iqtidori va kartinalarida jozib kuchliliginи gapirishardi. Orqavarotdan yosh xonim pichir-pichirlar orasida quyidagilarni ham eshitib oldi:

— Teranlik yo'q unda. Masala shunda. Iqtidori-ku bor, teranlik esa, afsuski, yo'q.

Kelasi hafta yosh xonimning qo'li ishga bormadi. Kvar-tirasida o'tirib, o'y-xayollar changalzorida kezindi, birgi-

---

na savol uning barcha o‘y-fikrlarini sakkizoyoqdek yutib yuborgandi: „Nima uchun menda teranlik yo‘q?“.

Ikkinchи haftada ayol surat solishga urinib ko‘rdi, lekin beo‘xshov qoralamalardan bo‘lak hech vaqо chiqmadi. Hatto ba’zida bir chiziq ham tortolmay qoldi. Oxir-oqibat, qattiq titrab-qaqshaganidan patqalamni dovotga ham sololmaydigan bo‘ldi. Ko‘zyosh va alamdan o‘zga chorasi qolmadi:

– Ha, hammasi to‘g‘ri, menda teranlik yo‘q!

Uchinchi haftada u san’atga oid jildlarni varaqladi, boshqa musavvirlarning ishlarini o‘rgandi va qunt ila galereya hamda moziygochlarga qatnay boshladi. Tasviriy san’at nazariyasiga doir kitoblar mutolaasiga tutindi. Kitob do‘koniga borib, sotuvchidan peshtaxtadagi eng teran kitobni so‘radi. Allaqanday Vitgenshteyn deganlarining kitobini titkilab ham hech qanday qo’llanma topolmadı.

Shahar muzeyida bo‘lib o‘tgan „Ovro‘pa rassomchiligining 500 yilligi“ ko‘rgazmasida badiiy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarni yetaklab yurgan bir maktab sinfiga qo‘silib oldi. Leonardo da Vinching bir surati yonida musavvira xonim tuyqus oldinga chiqdi-da, savol berdi:

– Ma’zur tutgaysiz, aytolmaysizmi, ushbu suratda teranlik bormi yoki yo‘qmi?

O‘qituvchi kulimsirab javob qildi:

– Agar hazil qilmoqchi bo‘lsangiz, muhtarama xonim, ertalablari barvaqtroq turing!

Butun sinf gur etib xaxoladi. Yosh xonim esa indamay uyiga bordi-yu, achchiq-achchiq ko‘zyoshlariga erk berdi.

Shundan beri xonimcha g‘alati-g‘alati qiliqlar chiqardi. Ustaxonasining to‘rt devoriga biqinib olar, shunga qaramay baribir ishlay olmasdi. Uzoqroq mijja qoqmaslik uchun xapdorilar ichadigan bo‘ldi, illo, nima uchun bedor bo‘lmog‘i kerakligini ham bilmasdi. Charchoq ustun kelganda

ham stulida pinakka ketardi, nega desangiz, karavotga yotishdan, chuqur uyquga ketishdan cho'chirdi. Tun uzog'i chiroqni ham o'chirmasdi. Endi chizmaydigan bo'ldi. Berlindan bir antiqafurush qo'ng'iroq qilib, bir nechta eskiz qilib berishni so'radi. Xonim esa go'shakka baqirib berdi:

– Tinch qo'yinglar meni! Menda teranlik yo'q!

Vaqti bemahal plastilindan bir nimalar yasab o'tirardi. Barmoq uchini plastilinga nuqib olar yoki mayda-mayda soqqachalar yasardi. Soxt-sumbati xarob ahvolga keldi. Na kiyim-boshiga, na uy-ro'zg'origa qaramay qo'ydi.

Do'st-dugonalari tashvishga tushdi. „Unga yordam berish kerak, hozir tang ahvolga tushgan. Bu yo shaxsiy, yo ijodiy tanglik; yoxud bu moliyaviy tanazzul. Birinchi holatda qo'limiz kaltalik qiladi, ikkinchi holatda uning o'zi harakat qilmasa, qolgani bekor, uchinchisida esa ozmi-ko'pmi mablag' yig'ib berishimiz mumkin, bundan xursand bo'lsa kerak har holda“, – deya o'zaro maslahat qilishdi ular.

Shu tariqa do'st-yoronlar musavvirani imlama tushlik va kechalarga taklif qilishadigan bo'lishdi. Ayol esa ishi tiqilib yotganini ro'kach qilib, rad etaverdi. Ammo u hech qanday ish qilmasdi, xonasiga biqinib olib, bir nuqtaga tikilgancha o'tirgani-o'tirgan edi.

Bir kuni, tushkun kayfiyat qarmog'ida, takliflardan biriga rozi bo'ldi. Musavvirada ko'ngli bo'lган bir yigit bazmdan so'ng uni uyiga o'sha falon maqsadda kuzatib qo'ymoqchi bo'ldi. Xonim ham yo'q demadi, chunki yigit unga maqbul tushgandi; faqat yigit xonimda teranlik yo'qligiga tayyor bo'lsa bas. Buni eshitgan yigit ko'nglidagi niyatidan voz kechdi.

Bir zamonlar surat solishni do'ndiradigan yosh xonim kun sayin emas, soat sayin cho'kib borardi. Tashqariga chiqmay, hech kimni qabul qilmay qo'ydi, harakatsiz-

likdan to‘lishdi, isqoti va xapdorilar dastidan yashin tezligida qarimsiq ahvolga keldi. Kvartirasida qo‘lansa hid ko‘tarildi, uning o‘zidan ham po‘panak hidi kelardi.

O‘z vaqtida u o‘ttiz ming marka meros qilib olgandi. O‘sha pullarga uch yil kun ko‘rdi. Hech kimga bildirmay Neapolga sayohat qildi.

Pullari ado bo‘lgach, hamma suratlarini qirqib, teshib, telemenoraga chiqib, 139 metr balandlikdan sakradi. O‘sha kuni kuchli shamol turgandi, shu bois musavvira minora tagidagi asfalt maydonga emas, sulizor osha o‘rmonning bir burchidagi qoraqarag‘ay ustiga tushdi. Shunga qaramay, o‘sha yerning o‘zidayoq uning joni uzildi.

Tuturiqsiz matbuot bu hodisani qo‘ymay ushlab oldi. Xudkushlik, qulash trayektoriyasi, bir paytlar yorqin istiqbol va durkun tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan musavvira – bularning barchasi yuqori ahamiyatga ega axborot. Boyaqishning kvartirasi abgor holatga kelgandi, fotograflar juda ta’sirli tasvirlarni suratga olishdi: minglab bo‘sh shishalar, laxta-laxta yirtilgan kartinalar, devorlarda plastilin qumaloqlari va h.k. Gazeta yana bir ichki betni ajratdi va yangi xabar uchinchi sahifaga ham o‘tdi.

Adabiy ilovaga avvalboshda eslab o‘tilgan tanqidching qaydlari ham joylashtirildi, tanqidchi yosh xonim bundayin dahshatli tarzda o‘z joniga qasd qilganidan hayratga tushgandi. „*O‘z qobig‘iga o‘ralashib qolgan, – deb yozgandi munaqqid, – navqiron, iqtidorli odamning ixlos topolmaganiga beixtiyor guvoh bo‘lar ekanmiz, biz, xom sut emgan bandalar chekiga mana shunday dahshatli hodisalar tushaveradi. San’at sohasida ijodiy ko‘mak vasiyliги haqida gap ketayotgan bir asnoda davlat g‘amxo‘rligi va xususiy tashabbusning o‘zi yetarli emas. To‘g‘ri, aytish lozimki, bu fojiali yakun murtagi individual holatga borib taqaladi. Negaki uning ilk, odmi ko‘ringan ishlarida*

*yurakka qo 'rquv solguvchi, qaysiki, shunday ta'sir o 'tka-zishga yo 'naltirilgan, ranglarni qorishtirish mahorati ila spiralsimon xippa bo 'g 'guvchi, shu bilan birga cheksiz hissiyotlarga boy, ammo o 'zining qaro „men“iga qarshi yaratuvchi-ijodkorning behuda bosh ko 'tarishi orqali manaman deb turmish hardamxayollikni ko 'rmayapmizmi? Men buni halokatga eltuvchi teranlikka intilish deb atagan bo 'lardim“.*

---

## MUNDARIJA

**Gi de Mopassan.** So‘nggi afsus

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 5

Sovuq kunlar

*Shahnoza tarjimasi* ..... 10

Tun

*Nodira Afoqova tarjimasi* ..... 18

Notanish mahbubam

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 26

To‘y sovg‘asi

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 32

Do‘stimning oilasi

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 38

Tavba

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 43

Marhumaning sirli sevgisi

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 49

So‘qirning qismati

*Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi* ..... 54

**Margaret Shteenfatt.** Jahl chiqsa, aql ketar

*Shuhratxon Imyaminova tarjimasi* ..... 58

<b>Oles Gonchar.</b> Muhabbat qurboni	
<i>Nazira Jo 'rayeva tarjimasi</i> .....	64
<b>Pol Savate.</b> So'qqabosh	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....	74
<b>Alber Kamyu.</b> Hayotga muhabbat	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....	92
<b>Emmanuel Rables.</b> Chinnigulli yigit	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....	99
<b>Alfonso Daudet.</b> So'nggi dars	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> .....	107
<b>Mishela Vot.</b> Mening kapalagim	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> .....	111
<b>Sidoni Gabriel Kollet.</b> Yaqin, begona ayol	
<i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> .....	113
<b>Beson de Toi.</b> „Men seni sevmayman...“	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> .....	120
<b>Anton Chexov.</b> Yozuvchi	
<i>Humoyun tarjimasi</i> .....	124
<b>Oktav Mirbo.</b> O'limdan keyingi o'lim	
<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	129
<b>Patrik Zyuskind.</b> Teranlik sog'inchi	
<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	135

*Adabiy-badiiy nashr*

GI DE MOPASSAN

## **SO‘NGGI AFSUS**

*Hikoyalari*

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

♦

Tarjimonlar:

**Nodirabegim IBROHIMOVA va b.**

Muharrir

*Abdurahmon Jo ‘rayev*

Badiiy muharrir

*Nasiba Ergasheva*

Musahhih

*Gulandom Umarova*

Sahifalovchi

*Habibulloh Haydarov*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
14.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>.  
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 7,56. Adadi 5000. Shartnoma № 106–20.  
Buyurtma raqami 422-20.

„Ziyo nashr“  
Mas’uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**Mopassan, Gi de.**

M 74      **So‘nggi afsus.** [Matn]: hikoyalar / Gi de Mopassan; tarjimonlar:  
N. Ibrohimova va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-6342-0-6

**UO‘K: 821.133.1-32**

**KBK 84(4Fra)**

Gi de MOPASSAN

# SONGGI AFSUS

HIKOYALAR



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6342-0-6

9 789943 634206